

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AL-XORAZIMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK**

Ro'zmetov Dilmurod Adilbekovichning


**Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid
davlat siyosati va yoshlar tashkilotlari tarixidan (Kamolot Yo'li misolida)**

5A 120302 "Tarix" (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)

DISSERTATSIYA

Tarix magistri akademik darajasini olish uchun

**Ilmiy rahbar:
t.f.n Nurullayeva Sh.**



Urganch- 2015

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet _____ Tarix _____

Magistratura talabasi Ro'zmetov Dilmurod

Kafedra _____ Tarix _____

Ilmiy rahbar t.f.n Nurullayeva Shoirra

O'quv yili 2014-2015

Mutaxassislik 5A120302 Tarix

(yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va buning natijasi o'laroq yoshlarga oid tashkilotlar faoliyati, xususan, "Kamolot" YoIH faoliyatini o'rganish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ishning maqsadi va vazifalari: Ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi mustaqillik yillarida Respublikamizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, yoshlar tashkilotlari va "Kamolot" YoIH faoliyati va uning asosiy yo'nalishlarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Respublikamizda bevosita yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qonun hujjatlarida aks etishi va yoshlar tashkilotlari tadqiqotning obyekti, yoshlar tashkilotlari tarixi va faoliyatini o'rganish asosida tahlil etish esa predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot uslubi va uslublari: Tarixiylik, holislik, uzviylik tamoyillari asosida, milliy mafkura asosidagi yangicha fikrlash, haqqoniy ilmiy tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ilmiy tadqiqot ishida 1991-2015-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasida yoshlarga qaratilayotgan davlat siyosati va yoshlar tashkilotlari tarixini yoritishga oid manba va tadqiqotlar ilk marotaba umumlashtirilgan holda hamda qiyosiy o'rganildi, bazi xulosa va fikrlar bildirildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: 1991-2015-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati va yoshlar tashkilotlari, xususan, "Kamolot" YoIH tarixi o'rganilishi masalasini tadqiq qilish va mavzuga doir fikr va mulohazalarni ilmiy jihatdan o'rganilgan holda umumlashtirish ishning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Ish tuzilishi va tarkibi: Magistrlik disertatsiyasi: kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Tadqiqot ishi "Tarix" kafedrasida yig'ilishida muhokamadan o'tgan hamda tadqiqot yuzasidan uchta ilmiy maqola e'lon qilingan.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi:

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati va yoshlar bo'lgan etibor va ko'rsatilayotgan g'amخورliklar va tashkilotlar, xususan "Kamolot" YoIH tarixini yanada chuqur, obyektiv va holisona o'rganilmog'i zarur. Buning o'rganilishi esa bevosita bugungi kunda yoshlarning vatan taraqqiyoti va yurt kelajagiga dahldorlik hisini uyg'onishida katta xizmat qiladi.

Ilmiy rahbar:

t.f.n Nurullayeva Shoir

Magistratura talabasi:

Ro'zmetov Dilmurod

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
URGENCH STATE UNIVERSITY**

Faculty History : Student of Master Degree Ro'zmetov Dilmurod

Department History : Scientific Advisor Nurullayeva Shoir

Study year 2014-2015 Speciality 5A120302-History

ANNATATION TO MASTER DEGREE DISSERTATION

The actuality of the work: In Uzbekistan Attention for youngs at independence year and organizations activities for youngs, especially, to study “Kamolot” for young social motion activity signs the culmination of the theme of dissertation.

The aim and tasks of the work: the main aim of this scientific research attention for youngs at independence year in our Republic, the organizations of youngs and “Kamolot” young social motion activity and consists of its main directions illumination.

The object and subject of the work: of the research the object of the for youngs in our Republic be reflected in law documents and organization of youngs, the subject is to analys the organization of youngs history and to study activity.

The methodology of the work: In the research work justification, historical-typological and problematic chronological methods are in use.

The novelty of the work: In scientific research's work between 1991-2015 years direct at state policy in the Republic of Uzbekistan and illumination the sources history organization of youngs and the researchs be studied at general and comparative at first time, be informed some summaries and ideas.

The practical importance of the work: between 1991-2015 years direct at state policy in the republic of Uzbekistan and illumination the source organization of youngs history and researchs be studied at general and comparative especially, apply “Kamolot” young social motion history be studied matters and the ideas and reflections about the theme be studied general scientific importance.

The component and structure of the work. The following master degree work includes: introduction, 3 chapters, conclusion and the list of used literatures.

The main results of the work: The research work was discussed in the discussion of history department and 3 scientific articles have been announced on the work.

Shortly defined form of invitations and conclusion: is about youngs of Uzbekistan independence year and attention and carefulness about youngs and organizations, especially, “Kamolot” young social motions must be studied deeply and objective. It’s services wake up youngs senses about homeland development.

Scientific Advisor

candidate on history Nurullayeva Shoirra

Student of Master Degree

Ro’zmetov Dilmurod

MUNDARIJA

Kirish.....	3
--------------------	----------

I BOB. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning vujudga kelishi va ularning fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi tutgan o'rni.....

1.1-§ Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nodavlat tuzilmalarining shakllanishi	12-18
---	-------

1.2-§ Nodavlat va notijorat tashkilotlarining mustaqil O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish borasidagi amalga oshirayotgan ishlari.....	18-23
--	-------

II BOB. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirigan islohotlarning yoshlar intellektual salohiyatini oshirishga qo'shgan hissassi hamda yoshlarga oid Davlat dasturlari

2.1. O'zbekistonda ta'lim sohasida o'tkazilgan islohotlarning bosqichlari va samaradorigi.....	23-29
--	-------

2.2. Mustaqil O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat dasturlari va ularning ahamiyati.....	30-49
---	-------

2.3. O'zbekistonning ta'lim sohasida tanlagan yo'li xorijliklar e'tifofida.....	50-60
---	-------

III BOB. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tarixi va faoiyati

3.1 «Kamolot» YoIH faoliyat tizimi va uning maqsad va vazifalari.....	61-86
---	-------

3.2 Xorazmda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati.....	87-100
---	--------

3.3. “Kamolot” YoIH UrDU boshlang'ich tashkiloti faoliyati.....	100-106
---	---------

Xulosa.....	107-115
-------------	---------

Adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar

Kirish

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi yaqinda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan yosh davlatlardan biridir. Lekin O'zbekiston qisqa vaqt ichida samarali tashqi siyosat olib borayotgan xalqaro munosabatlar sub'ektiga aylandi. Shu yo'l bilan u o'zining milliy manfaatlarini himoya qilibgina qolmasdan, ularni yangi yuqori darajaga ko'tardi. O'zbekistonning jahon arenasida munosib o'rin egallashiga nafaqat uning boy madaniy tarixi, qulay geografik joylashuvi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, yoki boy tabiiy resurslari balki uning barkamol avlodni tarbiyalashdagi harakatlari va bu sohada erishayotgan yutuqlari sabab bo'lmoqda. Zero barkamol avlodni insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq jahon xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Mustaqil komil yoshlarni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Farobiyning " Fozil odamlar shahri " asarida g'oyani yodga oling. Unga ko'ra jamiyatning har bir fuqarosi – mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar fozil kishi hisoblanib, fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, ularni tahlil etadi, fikrlaydi, o'z kasbining mohir ustasi, kerak bo'lganda o'z Vatani uchun jon fido qilgan. Ota-bobolarimizning bunday fikr yuritishlarining o'zi ularning naqadar yuksak ma'naviyatga ega bo'lganliklari hamda davlat va jamiyat kelajagini o'ylashlari, uning uchun poydevor yaratganliklaridan dalolat beradi. Yoshlar tarbiyasi bilan bo'g'liq ko'p asrlik merosi bizning mavzumizga eng birinchi va asosiy asos bo'ladi albatta. Qolaversa, 1991 yilning 20 noyabrida "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"¹gi, 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida"²gi Qonuni, 2002-yil 28-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi qarori, 2004-yil 21-maydagi "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy

¹"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Axborotnomasi N 2, 80-modda, 1992 yil

² O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

dasturi to'g'risida³»gi, 2008-yil 13-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida⁴»gi, "Barkamol avlod yili" Davlat dasturiga muvofiq hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, yoshlarni, avvalambor kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida⁵»gi, 2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida⁶»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006 yil 25 avgustda imzolagan "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 451-sonli⁷, 2006 yil 10 oktabrdagi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab – quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi 486-sonli⁸ qarori, 2014-yil 17-oktabrdagi "Mamlakatning ijtimoiy hayotida faol qatnashayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida⁹»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida¹⁰»gi 2014-yil 6

³ "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2004 yil, 21-son, 250-modda.

⁴ "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2008-yil, 42-son, 422-modda.

⁵ "Xalq so'zi", 2010-yil 29-iyul

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2010-yil, 30-son, 251-modda.

⁶ "Xalq so'zi", 2010-yil 30-sentyabr

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2010-yil, 39-son, 341-modda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, 9-son, 342-modda

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 451-sonli qarori. // "Xalq so'zi", 2006 yil 26 avgust.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi 486-sonli qarori. // "Xalq so'zi", 2006 yil oktabr. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2006-yil, 41-son, 412-modda

⁹ (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 37-son, 468-modda)

¹⁰ «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-son qarori

fevraldagi PQ-2124-son qarori hamda I.Karimovning “Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga bergan javobidagi aytilgan fikr-mulohazalar dissertatsiya mavzusining dolzarbligini yanada oshiradi.

«2008 yil – Yoshlar yili” davlat dasturi¹¹ning qabul qilinishi, yoshlarga bo’lgan e’tiborni yanada mustahkamlash bilan birga, yoshlarni qo’llab-quvvatlovchi tashkilotlar xususan “Kamolot” YoIHga yanada katta mas’uliyatni yuklaydi. Bugunda Harakatga bo’lgan Prezidentimiz hamda hukumatimizning ishonchini “Yoshlar yili” davlat dasturida ko’rish mumkin. Dasturning 9 bo’limi 113 bandining 49 tasida «Kamolot» YoIH bevosita ijrochi hamda hamijrochi sifatida belgilangan¹². Bu esa Harakatni davlat dasturining hayotga joriy etilishida o’z faoliyatini yanada jo’shqinroq va samarali tashkil etishga undaydi. Davlatning taraqqiy etishiga kafolat beruvchi milliy g’oya haqida so’z ketar ekan avvalo, bugungi kunda O’zbekistonda milliy g’oyani yoshlar ongiga singdirishda nodavlat - notijorat tashkilotlarning xususan ular orasida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining o’rni hamda uning faoliyatisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Mazkur tadqiqot ishi aynan shu masala ya’ni mustaqillik yillarida O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati va uni yoshlar ongiga sindirishda “Kamolot” YoIHning o’rni va harakat faoliyatining samaradorligiga bag’ishlanadi.

Tadqiqot ob’yekti va predmeti.

Mavzuning ob’yekti sifatida O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro’yxatdan o’tgan nodavlat –notijorat tashkilot “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatidir. Mavzuning predmeti tarixiy nuqtai nazardan yondashganda nodavlat-notijorat tashkilotlarning xususan «Kamolot» YoIH faoliyati, Nizomi, Dasturi hamda harakat tomonidan amalga oshirilayotgan tanlov-tadbirlarning ilmiy-nazariy, tarixiy tahlili, yoshlarga ta’sirchanlik darajasi va eng asosiysi uning samaradorligidir.

¹¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” davlat dasturini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-805-sonli qarori. 2008 yil 29 fevral.

¹² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” davlat dasturini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur dissertatsiyaning asosiy maqsadi mustaqillik yillarida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining ro’li va o’rni hamda ahamiyatini keng ochib berish qolaversa tarix sohasi va harakat faoliyatining uyg’unligini ko’rsatib berishdir. Zero Prezidentimiz ta’kidlaganidek “Bir haqiqatni o’zimizga yaxshi anglab olishimiz kerakki, milliy mafkurani tepadan turib yaratib va hayotga joriy etib bo’lmaydi. Bu – nihoyatda prinsipial masala.”¹³ Dissertatsiyaning ya’na bir asosiy maqsadlaridan biri O’zbekiston mustaqilligi yillarida, ya’ni 1991-2015 yillar davomida hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan yoshlarimizga bo’lgan e’tibor, qolaversa ular tomonidan yoshlarni qo’llab-quvvatlaydigan qonun va qarorlarning qabul qilinishi, ozodlik va erkinlik havosidan nafas olgan va yashayotgan yoshlarimizning o’y qarashlari, orzu-umidlari, kelajakka ishonchi va harakatlarini, ular ongida milliy o’zgarishlar va takomillashuv jarayonini ilmiy va tarixiy jihatdan tadqiq etish.

Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo’yildi:

- Milliy g’oyaning mazmun, mohiyati va uning bosh tamoyillarini ilmiy-amaliy tahlil qilish;
- Respublikadagi ilk nodavlat-notijorat tashkilotlarning shakllanishi va ularning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi tutgan o’rni;
- “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining tashkil topishi hamda uning faoliyat tizimini o’rganish, tahlil etish;
- Tarix sohasining “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faaoliyati bilan uyg’unligini o’rganish va ko’rsatib berish;
- Milliy g’oyani yoshlar ongiga singdirishda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tadbirlarining ahamiyatini va samaradorligini ko’rsatib berish;
- Vatanparvar va komil insonlarni shakllantirishda “Kamolot” YoIHning xizmati va o’rni yuqoriligini ko’rsatib berish;

¹³ Karimov I.A. “Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir” asaridan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

–Respublikadagi ilk nodavlat-notijorat tashkilotlarning tashkil topishi va rivojlanishini tarixiy tahlil qilinishi;

– nodavlat-notijorat tashkilotlarning jamiyatga xususan jamiyatning kuchli qatlami bo'lmish yoshlarga ko'rsatadigan yordami hamda ta'sirini tahlil qilinishi;

–milliy g'oyaning xalqimiz ma'naviy hayotida va yoshlarimizning dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rnini ko'rsatib berilishi;

–“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlarini tarixiy jihatdan tahlil qilinishi;

–O'zbekiston yoshlarining “Kamolot” haqidagi bilimlarini va muammolarini holisona o'rganilishi, baholanishi va tahlil qilinishi;

–Prezidentimiz hamda hukumatimiz tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlashdagi olib borayotgan siyosatini baholash va tahlil etilishi;

–“Kamolot” YoIH va tarix sohasining o'zaro bog'liqliligini hamda uyg'unligini ko'rsatilishi;

–milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirilishida «Kamolot» YoIHTanlov-tadbirlarining ahamiyati va samaradorligini ko'rsatilganligi;

– “Kamolot” YoIHning komil insonlarni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati muhimligini ko'rsatib berish;

– “Kamolot” YoIH faoliyatining yoritilishi;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Tadqiqotning asosiy masalalari “Kamolot” YoIHning 1991-2015 yillardagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Mazkur tadqiqot ishi mustaqillik yillarida yoshlarni qo'llab – quvvatlovchi nodavlat-notijorat tashkilotlarning tashkil topishi, ularning

faoliyati, Respublika hukumatining yoshlarga va ularni qo'llab-quvvatlovchi nodavlat-notijorat tashkilotlarga bo'lgan e'tibori, ko'magi, xususan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, yoshlar va harakat faoliyati bilan bog'liq qabul qilingan qonunlar, harakatning Nodavlat-notijorat tashkilotlar assotsiyatsiyasi, Respublika Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Respublika Bosh Prokuraturasi, Ichki Ishlar Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, "Vatanparvar" tashkiloti, Diniy ishlar qo'mitasi, Inson huquqlari milliy markazi, Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi, bilan hamkorlikda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, madaniy va ma'rifiy salohiyatini, huquqiy savodxonlik darajasini oshirish va jamiyatda munosib o'rin egallashlari maqsadida tashkil etish borasidagi qilingan amaliy ishlar, davra suhbatlari, seminar, konferensiya hamda ilmiy – amaliy anjumanlardan foydalanilgan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharxi (tahlili).

Mazkur mavzu bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-nazariy adabiyotlarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Harakat faoliyatini yorituvchi va davlatimiz tomonidan qabul qilinga barcha turdagi davlat dasturlari. Ushbu ikki mavzuni birlashtirilgan holatdagi adabiyotlar bo'lmaganligi sababli mazkur dissertatsiyada ushbu mavzular va adabiyotlarni birlashtirishga va o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qildik. Zerokim dissertatsiyamiz mavzusiga binoan "Kamolot" tarixini o'rganish cheksiz ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha o'rganilgan manbalar quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining (yangi tahrirdagi) Nizomi.-T.:2006 yil 29 noyabr.
- "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011 hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti.
- "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang'ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" gi qarori.
- "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" gi Qonun

Hozirgi davrda mamlakatimizda milliy g'oyani ommaga singdirishning usul va vositalari haqida, milliy g'oyaning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, uning mazmun-mohiyati haqida ko'plab kitob, risola va maqolalar e'lon qilinmoqda. Ular orasida I.A.Karimov, M.Quronov, S.Mamashokirov, Sh.Tog'ayev, Q.Nazarov, Yusupov O.O., A.Xolbekov, B.Umarov, Yunusov A.M., M.Qarshiboyevlarning asar va tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi sifatida tarixiylik, xolislik, uzviylik va tarixan muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy jarayonlarning sabab-oqibatli bog'lanishining muqarrarligi kabi ilmiy tamoyillar xizmat qilish nazarda tutiladi. Ilmiy tadqiqot olib borishning turli yo'llariga, kompleks-statistik qiyosiy solishtirish usullariga va tarixiy hodisa, fakt va raqamlarni falsafiy mushohada qilish yo'lida, umuminsoniy tafakkur qoidalariga, insonparvarlik g'oyalariga asoslanadi. Tanlangan mavzuni ilmiy jihatdan yoritishda, demokratik tamoyillarga asoslangan yoshlarni tarbiyalashdagi hamda jamiyatni ilmiy boshqarishdagi tadrijiylik, sistemalik, komplekslik, ilmiylik, tarixiylik, umumiylik, yahlitlik, aloqadorlik, davomiylik, mukammallik, mantiqiylik, milliy va umuminsoniylik, zamonaviylik tamoyillari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiyada o'z yechimini topgan masalalar yuzasidan chiqarilgan ilmiy xulosalardan Oliy O'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi, Fan tarixi, sotsiologiya, geopolitika va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanlarini, Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari Amaliy geografiya fanlarini

talabalarga o'qitishda, mazkur fanlar bo'yicha yangi adabiyotlarni yaratishda foydalanish mumkin. Tanlangan tadqiqot mavzusini tatqiq etishda, asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning shu mavzuga oid asarlari, risolalari, nutqlarida bayon qilgan fikr va tamoyillariga katta ahamiyatga ega bo'ldi.¹⁴ Hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Ozbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar

-
1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. -T.: O'zbekiston, 1996 yil.
 2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-jild. -T.: O'zbekiston, 1996 yil.
 3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: O'zbekiston, 1996 yil.
 4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. -T.: O'zbekiston, 1996 yil.
 5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. -T.: O'zbekiston, 1997 yil.
 6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yolida. 6-jild. -T.: O'zbekiston, 1998 yil.
 7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. -T.: O'zbekiston, 1998 yil.
 8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. -T.: O'zbekiston, 2000 yil.
 9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. -T.: O'zbekiston, 2001 yil.
 10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. -T.: O'zbekiston, 2002 yil.
 11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. -T.: O'zbekiston, 2003 yil.
 12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o'z kuch – qudratimiz, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild. -T.: O'zbekiston, 2004 yil.
 13. Karimov I.A. Sog'lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. -T.: "O'zbekiston", 2000 yil.
 14. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. (Prezident Islom Karimovning "Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga bergan javoblari). -T.: O'zbekiston, 1998 yil.
 15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. -: O'zbekiston, 2005 yil 28 yanvar.
 16. Karimov I.A. "Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamiz". (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi). // "Toshkent oqshomi", 2006 yil 8 dekabr soni.
 17. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oiliy qadriyat. -T.: "O'zbekiston", 2005 yil.
 18. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutq. 1997 yil.

Assotsiatsiyasi faoliyatiga doir hujjatlar, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Marakaziy Kengashining harakat faoliyatiga doir risolalar, adabiyotlar, broshyuralar, Respublika Oliy va O’rta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan yoshlarga doir farmoyishlari, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi tomonidan olib borilgan so’rovnoma natijalari, tadqiqotchining o’zi hamda ilmiy rahbar bilan hamkorlikda o’tkazgan so’rovnoma-tekshiruv natijalari, qolaversa tadqiqotchining o’zi o’quv muassasida «Kamolot» YoIH yetakchisi ekanligi ushbu boshlang’ich tashkilotning ish faoliyati eng muhim asos bo’ladi.

Mavzuni yoritishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 10 oktabrdagi “ “Kamolot” YOIHni qo’llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to’g’risida”gi,¹⁵ “ Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida”gi ¹⁶ qarorlari, ularning konseptual-nazariy qoidalari muhim ro’l o’ynaydi.

Tadqiqot ishi tuzilmasining tavsifi.

Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, sakkizta bo’lim, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro’yhati, ilova va taqdimot ishidan iborat.

19.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008 yil.

¹⁵ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatini qo’llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to’g’risida” gi qarori. // “Xalq so’zi”, 2006 yil 10 oktabr.

¹⁶ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida” gi qarori. // “Xalq so’zi”, 2006 yil 26 avgust.

I BOB. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning vujudga kelishi va ularning fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi tutgan o'rni

1.1-§ Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nodavlat tuzilmalarining shakllanishi

Har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati va mazmuni u olib boradigan funktsiyalar va faoliyat yo'nalishlarida yorqin ifodalanadi. Jamoat tashkilotlarining funktsiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirishlari orqali ta'sir ko'rsatishlarida namoyon bo'lishi shubhasiz.

Jamoat tashkilotlarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etish mumkin.¹⁷

Birinchidan, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funktsiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funktsiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funktsiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. T. 1993 yil. 4 - kitob.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mavjud konstitutsiyaviy huquq me'yorlari doirasida, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga dahl qilmagan holda shakllanib kelayotgan siyosiy jarayonlar va munosabatlar tamoyillari doirasida muqobil siyosiy yo'llarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Har bir partiyaning o'z dasturi va maqsadlariga mos ravishda nazariy, mafkuraviy, siyosiy va tashkiliy funksiyalari bo'lib, ular partiya faoliyati va ichki hayotining ajralmas qismidir.

Uchinchidan, jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadilar. Ta'kidlash joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi ta'siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan.¹⁸

Kasaba uyushmalarining ijtimoiy yo'naltirilgan funktsiyalarining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyatning integratsiyalashuviga erishish;
- ishlab chiqarish demokratiyasini rivojlantirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlatning ijtimoiy sohadagi siyosatini rivojlantirishga ko'maklashish;
- jamiyatning mehnat potentsiallarini saqlash va rivojlantirish;
- bozor munosabatlarini rivojlantirish;
- mehnat bozorini takomillashtirish;
- jamiyatda inson qadr-qimmatini oshirish va mehnat odatlarini rivojlantirish;

Mamlakatimizda ijtimoiy voqelikning jadal sur'atlarda rivojlanib borishi jamiyatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlarining yangi funktsiyalarini shakllanishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish muayyan sohalar yuzasidan insonning huquq va erkinliklarini himoya

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. T. 1993 yil. 4 - kitob.

qilish davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, jamoat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, jamoat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda ularning funksiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi ob'ektiv xususiyatga egadir.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng mahalla faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Bunda mahallalar hayoti bilan bog'lik ko'p masalalar bilan bir qatorda mahalla oqsoqolini saylash tartiblari ishlab chiqildi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslaxatchilari saylovi mamlakatimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Bu saylov demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi. Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla)ning o'рни beqiyosdir. Chunki boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko'rib turibmiz. Mahalla o'zini o'zi boshqarish organlarining eng yorqin ko'rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olinganligi bilan ham o'zining yuksak mavqeyiga ega.

Mustaqillik yillari mobaynida jamiyatdagi boshqaruv tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish borasidagi ishlar izchil davom ettirib kelinmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti - mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vazifani hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"¹⁹gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan taklifni ilgari surar ekan, bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishidagi ma'ruzasida "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"²⁰gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan biri - mahallaning o'rni beqiyosdir. Mahalla -

¹⁹ www.lex.uz.

²⁰ Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonuni

bu sharqona «demokratiya darsxonasi»²¹. O'zbekistonda fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalarning soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. «Maxalla» so'zi arabcha «maxal» so'zidan olingan bo'lib «istiqomat qiladigan joy», «hudud» ma'nolarini bildiradi²²

Tarixchi olim Abu Bakr Muxammad ibn Ja'far Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalq boshkaruvi bo'lganini yozgan edi. «Mahalla» atamasiga Maxmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati-turk», Yusuf Xos Xojibning «Kutadgu bilig»²³ asarlarida ham izoh berilgan. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki ma'muriy- hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Alisher Navoiyning «Hayratul-abror» («Yaxshi kishilarning xayratlanishi») asarida ham bu haqda ko'plab malumotlar uchraydi.²⁴

Mahallaning «joy» degan mazmuni yuqoridagi malumotdan ko'rinib turibdiki, o'rta asrlarda Hiri deb atalgan, Hirot shahri yuzta kichik «shaharcha» - mahallalardan tashkil topgan.

O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng mahalla faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Bunda mahallalar hayoti bilan bog'liq ko'p masalalar bilan bir qatorda mahalla oqsoqolini saylash tartiblari ishlab chiqildi. Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlari mahallaning o'rni beqiyosdir. Chunki boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy xodisa sifatida rivojlanib kelmoqda²⁵. Mustakillik yillari mobaynida jamiyatdagi boshqaruv tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli

²¹ «Oila, mahalla va maktab hamkorligi» konsepsiyasi. Toshkent, 2003

²² каранг: Корпев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари./Масъул мухаррир А.Мухаммаджонов./- Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2005. - 37-бет.

²³ Юсуф Хос Хожиб. «Кутадгу билиг» («Саодатга бошловчи билим»), Сузбоши муаллифи Б.Тухлиев; Р ассом Ш.Мухаммаджонов. - Т.: Юлдузча. 1989. - 83-бет.

²⁴ Навоий А. Ҳайрат ул-аброп [Тахрир хайъати А. Қаюмов ва бошк.: Сузбоши муаллифи А.Хайитметов; масъул мухариб В.Рахмонов]. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. - 187-бет.

²⁵ Масалан. Тошкент да XVIII асрда 150 та махалла ташкил топган булса. XIX аерда уларнинг сони 200 га етган, XX аср бошларида эса 250 га махалла бор эди. Каранг: *Корпеев С.* Тошкент топонимлари./Масъул Мухаррир А.Р..Мухаммаджонов. - Т.: «Фан». 1991. - 32-бет.

davlatdan kuchli jamiyatga o'tish borasidagi ishlar izchil davom ettirib kelinmoqda. Organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina o'zini-o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahallaning maqomini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatimizda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldi. Jumladan. mustaqillik davrida yurtimizda 10 mingdan ko'prok o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi²⁶. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obru-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldi.

1.2 Nodavlat va notijorat tashkilotlarining mustaqil O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish borasidagi amalga oshirayotgan ishlari.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida xizmat qilayotgan qonunlardan quyidagi ba'zilarini tilga olishimiz mumkin: «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida²⁷» Qonun, «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida» Qonun, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida²⁸» Qonun. «Siyosiy partiyalar to'g'risida²⁹»

²⁶ Karimov I.A. Ilm-ziyo salohiyati-yurt boyligi. Ma'rifat gazetasi, 1993-yil 21-iyun; Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik konserni, 1997; O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.-T.-1997; Barkamol avlod orzusi.-Toshkent, "Sharq", 1997; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi// Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. Toshkent. "SHarq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001; "Oila, mahalla va maktab hamkorligi" konsepsiyasi. Toshkent, 2003; Karimov I A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T: "Ma'naviyat", 2008; "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risida Prezident qarori. 2010-yil. "Ma'rifat" gazetasi, 27-yanvar 2010-yil; O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2011-yil 20-maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida"gi 1533-sonli qarori;

²⁷ O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. T. 1993 yil. 4 - kitob.

²⁸ "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1999 № 5.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun. T. 1997.

Qonun, «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida³⁰» Qonun. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonun, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» Qonun va boshqalar.

Ana shunday huquqiy asoslarning yaratilishi nafaqat mamlakatimiz milliy qonunchilik tizimida jamoat tashkilotlarining faoliyatiga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mustaqil sohasining yuzaga kelishiga olib keldi, balki unga tizimlilik tusini berdi. Ayni vaqtda jamoat tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar o'z ichiga konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy huquq normalarini qamrab oluvchi butun qonunchilik tizimining shakllanishiga imkoniyat tug'dirdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari. O'zbekistonda keyingi o'n yilda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik kadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib borgan sari ularning davlat va xokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchaymoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligi bois kishilar qalbi va ongida jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan tub ijobiy o'zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda. 2008-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzirida Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatlarining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va fond mablag'lari boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining tashkil etilishi

³⁰ O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonuni. T. 2004 yil

nodavlat notijorat tashkilotlarining izchil rivojlanishiga ko'maklashmoqda. Parlament komissiyasi qarorlariga muvofiq, so'ggi besh yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlariga muhim davlat dasturlari va boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun 2,8 milliard so'mlik mablag' ajratildi³¹. 2013 yilning dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"³² gi Qonuni nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyatlarining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashning mantiqiy davomi bo'ldi. Ushbu qonun jamoat tashkilotlari va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash masalalarini hal etishda faol qatnashish imkonini yaratdi. Nodavlat notijorat tashkilotlarini yanada rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida 2013 yil 12 dekabrda Prezident I.Karimovning "Fuqarolik jamiyatlarining institutlarini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"³³gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatga olish, ularning hisobot topshirish tartiblarini soddalashtirish, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. 2014-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, adliya idoralarida ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlari soni 7,8 mingdan oshdi³⁴. Holbuki, 1991-yilning boshida mamlakatimizda atigi 95 nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritardi. Bugungi kunda tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirishga yordam beradigan tuzilmalar, sport va yoshlar tashkilotlari, siyosiy partiyalar hududiy bo'linmalarining salmoqli o'rni bor. Ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish maqsadida ajratilayotgan grant mablag'lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish hajmi kengaymoqda. Masalan, agar 2009-yilda ularga 444,6 million so'm

³¹ "Ma'rifat" gazetasi, 27-yanvar 2010-yil;

³² O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida" gi Qonuni 2013 yil dekabr

³³ "Fuqarolik jamiyatlarining institutlarini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori. 2013 yil 12 dekabr

³⁴ Kun.uz sayti malumoti

ajratilgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 2,7 milliard so'mga yetdi³⁵. Shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularning muhokamasiga nodavlat notijorat tashkilotlari faollarini jalb etish o'sib borayotgani ham ta'kidlandi. Xususan, 2013-yilda ular "Ekologik nazorat to'g'risida"³⁶, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" va "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun loyihalarining jamoatchilik ekspertizasi va muhokamalarida, shuningdek, "Obod turmush yili" Davlat dasturining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida ishtirok etdi. Jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan: "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavsizligiga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo'ygan. Asosiy Qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanib hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy tamoyil o'z ifodasini topgan."³⁷

Birlashishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarining tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki undan chiqish huquqini qamrab oladi. Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida

³⁵ www.search.re.uz - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi

³⁶ O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida" gi Qonuni 2013 yil dekabr

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 12-modda 5-bet T.2012y

barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida teng ekanliklari belgilab qo'yilgan.³⁸

Asosiy Qonunning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.³⁹ Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chikuvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyatini hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi. Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"⁴⁰gi Qonunni ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta'rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi. Ushbu qonunga mustaqillik yillarida kiritilgan bir kator o'zgartishlar barobarida jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang tarzda jamoat tashkilotlarining huquq va majburiyatlari doirasi ham kengayib bordi. Qonunga binoan, ular o'zlarining ichki tuzilmasini, maqsadi, faoliyat olib borish shakli va usullarini tanlashda hamda ustavlarini qabul qilishda mustaqil ekanliklari belgilab qo'yildi. Jamoat tashkilotlari manfaatlariga dahldor bo'lgan masalalar davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli jamoat tashkilotlarining ishtiroki yoki kelishuvi asosida hal

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-modda 6-bet T.2012y

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 35-modda 9-bet T.2012y

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. T. 1993 yil. 4 - kitob.

etiladigan bo'ldi. Shu bilan birga, davlat jamoat tashkilotlarining qonuniy manfaatlari va huquqlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularning faoliyatiga har tomonlama ko'maklashishi, xususan, soliq va boshqa masalalarda imtiyozlar berishi lozimligi belgilab qo'yildi. So'nggi yillarda "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonun va "Homiyluk to'g'risida"⁴¹gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴²gi qarori va boshqa tegishli hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vositasini o'tamoqda.

⁴¹ «Homiyluk to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2007 yil 2 may № O'RQ-96

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

II BOB. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning yoshlar intellektual salohiyatini oshirishga qo'shgan hissasi hamda yoshlarga oid Davlat dasturlari

2.1. O'zbekistonda ta'lim sohasida o'tkazilgan islohotlarning bosqichlari va samaradorigi

Davlatimiz fuqarolarining bilim olishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi yoshlar tarbiyasida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Vatan ostonodan boshlanganidek, bolalarimiz ta'lim-tarbiyasi oiladan boshlanadi. Demak, kelajak avlodimiz har taraflama yetuk, sog'lom, bilimli, o'z vataniga sadoqatli bo'lib yetishishi uchun har birimiz mas'ulmiz. O'zbekistonda ta'lim tizimining tubdan o'zgarishi 1997 yilda "Ta'lim to'g'risida"⁴³gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"⁴⁴ qabul qilishdan boshlangan. Ta'lim tizimini islohotlashtirishdagi ahamiyatni O'zbekistonning demografik jihatdan qarash zarur: UNISEF vakolatxonasining Monitoring hisobotiga ko'ra 2003 yilda 26 milliondan 11 million aholi – 17 yoshgacha bo'lgan yoshlar, bu respublika aholisining 42 %ni tashkil etmoqda.⁴⁵ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD) respublikada uzoq muddatli ta'limning takomillashishi va uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishni ifodalaydi.

Ushbu dastur 3 bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (1997-2001) – tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatdan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlarni yaratish; dasturning amalga oshirilishi barcha davlat, ilmiy, sanoat va nodavlat tashkilotlarning ajralmas qismi bo'lishi; yangi o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari turlari (kasb-hunar kolleji va akademik litseylar) va ikki bosqichdan iborat oliy ta'lim tizimini kiritgan holda uzluksiz ta'limning yangi tizimi o'z faoliyatini boshladi.

⁴³ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁴⁴ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

⁴⁵ www.search.re.uz - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi

Ikkinchi bosqich (2001-2005) birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritildi va amalga oshirildi; ushbu bosqichda ta'lim sifatini yaxshilash va o'qituvchilarning malakalarni oshirish muhim o'rin tutadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) – dasturning keyingi rivojlanishi va takomillashishiga qaratilgan. Milliy dasturning maqsadlariga erishishdagi birdan-bir mehanizmi bu xalqaro hamkorlikni kengaytirishdir.⁴⁶

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy taraqqiyotning demokratik – huquqiy, fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "... barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi, ... fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi".⁴⁷ Shu boisdan ilk qadamlardan oq milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari darajasiga chiqarish maqsad qilib qo'yildi. Bunday ulug'vor vazifalarni amalga oshirishni mamlakatdagi mavjud uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilmasdan ta'minlab bo'lmas edi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997) xuddi shu maqsadga qaratilgan tarixiy davlat hujjatidir. Unda uzluksiz ta'limga shunday ta'rif beriladi: "Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. *"Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi"*.⁴⁸

⁴⁶Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2.2.Dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari bandidan. 29.08.1997-y. N 463-I

⁴⁷ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, "SHarq", 1998. 3-b.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T: "O'zbekiston", 1997.-B. 43.

“Uzluksizlik” – to’xtovsiz, muntazam davom etuvchi jarayon tushunchasini anglatadi. “Uzluksiz ta’lim”, tushunchasi yuqoridagi fikrga monand – komil shaxs ta’lim – tarbiyasini uzluksiz yo’lga qo’yishni anglatadi. Muhammad Rasulullohning muborak xadislari: “Beshikdan qabrgacha ilm izla!”⁴⁹ - deyilgan. Demak, buyuk ajdodlarimiz ham barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uzluksiz bo’lishi lozim deb hisoblashgan.⁵⁰ Faqat uzluksiz davom etuvchi pedagogik jarayonlardagina barkamol shaxs shakllanishi mumkin. Shaxsni shakllantirmasdan, rivojlantirmasdan turib davlatni ham, jamiyatni ham, rivojlantirish mumkin emas. Uzluksiz ta’lim shaxs kamoloti jarayoniga jadal ta’sir ko’rsatuvchi eng muhim omildir.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz, ta’lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat yaxlit jarayon komponentlarini o’z ichiga oladi. Binobarin, shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim xizmatlarining iste’molchisi va muallifi, davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi, qabul qiluvchi ijtimoiy hodisa, kafolatchilar, uzluksiz ta’lim - raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi, ta’lim turlari va standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimini o’z ichiga oladi; fan – yuksak saviyali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiquvchi kuch; ishlab chiqarish - kadrlar tayyorlashga, ularning sifatiga qo’yiladigan talablar buyurtmachisidir.⁵¹

Uzluksiz ta’limining faoliyat ko’rsatish tamoyillari quyidagilarni o’z ichiga olishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ko’rsatib o’tilgan.⁵²

-ta’limning ustuvorligi (jamiyatda yuksak darajadagi bilim, ta’lim va intellekt nufuzining yuqori qo’yilishi);

⁴⁹ Imom Ismoil Buxoriy. Hadisdan 1- kitob. Toshkent, “Meros”, 1991. 37-b

⁵⁰ Imom Ismoil Buxoriy. Hadis. O’sha joy 1- kitob. Toshkent, “Meros”, 1991. 37-b.

⁵¹ O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T: “O’zbekiston”, 1997.-B. 43.

⁵² Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida O’zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

-ta'limning demokratlashuvi (ta'lim – tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligi ...);

-ta'limning insonparvarlashuvi (inson qobiliyatlarining ochilishi va ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlarning ustuvorlashuvi);

-ta'limning ijtimoiylashuvi (ta'lim oluvchilarda estetik did, ma'naviyat, ijodiy fikrni shakllantirish);

-ta'limning milliy yo'naltirilganligi;

-ta'lim va tarbiyaning uzviyligi;

-iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuksak darajali, jadal ta'lim olishga shart-sharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'limni isloh qilish jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida zaruratga aylandi. Buning uchun milliy istiqlol davrida ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar yetildi. Respublikamizning milliy xususiyatlari, umumbashariy talablar, xalqimiz mentalitetiga dahldor omillar hisobga olinib, uzluksiz ta'limning quyidagi islohot yo'nalishlari, tizimi va turlari belgilandi:

Uzluksiz ta'lim yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.⁵³

a) ta'lim tizimida kadrlar salohiyatini, pedagoglar kasbiy nufuzini oshirish;

b) davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

v) ta'lim tizimini, ta'lim dasturlarini tubdan qayta qurish;

g) majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga o'tishni ta'minlash;

⁵³ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 3.3.3. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari bandidan. 29.08.1997-y. N 463-I

d) fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;

e) ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish;

yo) ta'limning boshqaruv tizimini takomillashtirish;

j) ta'lim olishda xalqaro fondlar, xayriyalar, jamoat tashkilotlari rolini kuchaytirish;

z) ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish; va boshqalar.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyati davlat ta'lim standartlari (asosida) va turli darajadagi ta'lim dasturlari izchilligi asosida yo'lga qo'yiladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) maktabgacha ta'lim;

b) umumiy o'rta ta'lim;

v) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

g) oliy ta'lim;

d) oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

e) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

y) maktabdan tashqari ta'lim Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridir.⁵⁴

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2012 yil 24 iyuldagi PF-4456-son Farmoniga o'zgartish kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 iyuldagi №PF-4458 son Farmoni. Manba: ziyonet. uz. 2014yil

Mustaqillik va Vatan taraqqiyoti g'oyalari sodiq bo'lgan yangi insonni tarbiyalash va voyaga yetkazish shu kunning muhim vazifasidir. Chunki mustaqil, ozod va obod o'lkamizning kelajagini ko'p jihatdan yuksak ma'naviyatli komil insonlar hal qiladi. Shunday ekan, yuksak ma'naviy fazilatlar, ezgu g'oyalarni yoshlar ongiga singdirmasdan, ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmasdan turib barkamol insonlarni tarbiyalashdek yuksak vazifaning istiqbolini tasavvur etib bo'lmaydi.

2.2. Mustaqil O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat dasturlari va ularning ahamiyati

Mustaqilligimiz tufayli fan, maorif, ta'lim-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirildi.

«Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi» - degan edi I.A.Karimov. Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturi tayyorlandi. 1997 yil 29 avgustda Respublikamizda 'Ta'lim to'g'risidagi qonun'⁵⁵ va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"⁵⁶ qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- ta'lim tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi, dunyoviyligi ;
- ta'limda umuminsoniy, milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarning ustivorligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar ta'lim olish imkoniyatlarining kengligi;
- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan holiligi.

1998 yil Avstraliyada kelgusi asr ta'limi istiqbollariga bag'ishlangan «Osiyo -Tinch okean mintaqasida XXI asrda ta'lim muammolari» deb nomlangan xalqaro anjumanda ta'limni rivojlantirishga qaratilgan maxsus davlat dasturi faqat ikki

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁵⁶ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

davlat - AQSH va O'zbekistondagina mavjudligi ta'kidlandi.⁵⁷ Anjuman ishtirokchilari yangi ta'lim tizimimizga katta ishonch bildirdilar.

1993 yildan Prezidentimiz farmoniga binoan talaba va aspirantlarga maxsus stipendiyalar belgilandi. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqiga ega bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi(1992 yil 8 dekabr). Konstitutsiya barcha fuqarolar qatori yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy va me'yoriy jihatlarini ham o'zida aks ettiradi. Jumladan, uning 41-moddasida: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir"⁵⁸, 45-moddasida: "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir"⁵⁹ deb belgilab qo'yilgani fikrimizning dalilidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishga jahon andazalari darajasida bilim olgan zakovatli, har tomonlama barkamol miliy kadrlar ulkan hissa qo'shishini hisobga olib davlatimizda ko'p sonli nodavlat-notijorat tashkilotlarni vujudga keltirdi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirliga tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi, ularning muammolarini o'rganuvchi 15 ga yaqin nodavlat-notijorat tashkilotlar va jamiyatlar ro'yxatdan o'tgan.

⁵⁷1998 yil Avstraliyada bo'lib o'tgan «Osiyo -Tinch okean mintaqasida XXI asrda ta'lim muammolari» xalqaro anjuman materiallari

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 41-modda 9-bet T.2012y

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 41-modda 10-bet T.2012y

**O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tgan yoshlar
tashkilotlari ro'yxati.**

№	Tashkilotlarning nomlanishi.	Ro'yxatdan o'tgan sanasi.	Tashkilot faoliyatining maqsadi va vazifalari.
1	O'zbekistonning “Yoshlik” sport jamiyati.	31.01.2002 yil	Umumtalim maktablarida sport va jismoniy tarbiyani targ'ibot - tashviqot qilish va amaliy yordam ko'rsatish.
2	“Nurchi” sport - sog'lomlashtirish jamiyati.	21.05.1997 yil	Yoshlarimiz orasida jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot-tashviqot qilish.
3	“Sen yolg'iz emassan” Respublika ijtimoiy harakati.	22.11.2002 yil	Mehribonlik o'ylarida ta'lim-tarbiya olayotgan yosh bolalarga moddiy- ma'naviy, psixalogik ko'mak berish.
4	O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondi.	02.01.2003 yil	Davlatimizning sport va jismoniy tarbiya sohasidagi olib borayotgan siyosatini hayotga tatbiq etish va uni targ'ibot qilish.
5	“O'zbekiston madaniyati va san'ati”fondi.	24.12.2004 yil	Bolalar va voyaga yetmagan o'quvchilar huquq-manfaatlarini himoya qilish. Xalqlar va davlatlar aloqasini

			mustahkamlash.
6	“Umid qanotlari” Respublika markazi.	05.08.2004 yil	O'zbekiston yoshlarining OITS va narkomaniyaga qarshi kurash maqsadida amalga oshirayotgan harakatlarini qo'llab-quvvatlash. Shu maqsadni ko'zlovchi seminar va konferensiyalar tashkil etish.
7	Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish Respublika markazi.	21.10.2004 yil	Jismoniy va aqliy rivojlanmagan bolalarga, ularning oilalariga ijtimoiy, tibbiy yordam berish.
8	Respublika oily va o'rta maxsus tizimi o'quvchi-talabalarining “Talaba” sport assotsiyasi.	25.12.2002 yil	Mavjud sport bazasi ahvolini yaxshilash, kollej o'quvchilari, oily o'quv yurtlari talabalari orasida sport, jismoniy tarbiya, turizmni hamda milliy o'yinlarimizni rivojlantirish.
9	O'zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati..	07.05.2001 yil	Yoshlarni birlashtirish, ularning huquqini himoya qilish, yoshlarning jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun ko'mak berish hamda yoshlar

			orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot-tashviqot qilish.
10	“Oila va bolalar” nodavlat – notijorat tashkiloti.	01.03.2000 yil	Davolash va tashxis markazlarini tashkil qilish orqali jinsiy kasallikka chalingan yoshlarni davolash hamda ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot-tashviqot qilish.
11	“Biznes – shkola” nodavlat – notijorat tashkilot.	27.01.2003 yil	Kichik va o'rta biznes hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yoshlar tomonidan ishlab chiqilgan takliflar, biznes rejalar hamda Davlat dasturlarini hayotga tatbiq etishda ko'maklashish.
12	“ Mehr nuri ” fondi.	2004 yil iyul	Ijtimoiy yo'naltirilgan himoya, homiylik yordami, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, tadbirorlik va fermerlikni qo'llab-quvvatlash.
13	“Umid” jamg'armasi.	1997 yil yanvar	Iqtidorli talabalarning chet elda ta'lim olishlarini uchun

Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan yuqoridagi tashkilotlardan ayrimlari o'z faoliyatini tugatgan yoki boshqa tuzilma tarkibiga qo'shilgan. Bundan tashqari, Respublikaning hududiy bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgan tashkilotlar ham samarali faoliyat ko'rsatishmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi quyidagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda:

- "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" Jamg'armasi;
- "Ayollar Kengashi" Jamoat birlashmasi;
- Elektron OAV Milliy Assotsiyatsasi;
- "Iste'dod" jamg'armasi;
- "Hayot" nodavlat notijorat tashkiloti;
- "Ziyonur" nodavlat notijorat tashkiloti;
- "Salomatlik plus ekologiya" nodavlat notijorat tashkiloti;

Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yosh va iste'dodli pedagoglarni quvvatlovchi "Iste'dod" jamg'armasi, O'zbekiston bolalar fondi, O'zbekiston yoshlari palatasi, "Farzandim - jigarbandim" ijtimoiy birlashmasi, Respublika imkoniyati cheklangan yoshlarni qo'llab - quvvatlovchi "Ulug'bek" jamg'armasi, "Istiqbol" ta'lim va axborot ittifoqi, Toshkent avtomobil – yo'llari institutini qo'llab-quvvatlovchi "Talaba" jamg'armasi va boshqa ko'pgina tashkilot va jamiyatlar faoliyat yuritmoqda.

Ammo, ushbu tashkilotlar orasida yoshlarimiz ko'ngliga kirib borgan, uning manfaatlarini himoya qiluvchi yoshlar harakati ya'ni "Kamolot" yoshlar harakatining tashkil topishi mustaqillik yillarida yoshlar hayotiga bog'liq bo'lgan eng ahamiyatli qolaversa muhim tarixiy voqeaga aylandi. Yoshlar tashkilotlari, jamiyatlari haqida so'z ketar ekan bugungi kunda "Kamolot" YOIHning ko'makdosh tashkilotlari orasida yoshlar manfaatlarini qo'llab-quvvatlovchi

nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati, ularning maqsad va vazifalari to'g'risida to'xtalib o'tsak.

“Umid” jamg'armasi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga jahon andozalari darajasida bilim olgan zakovatli, har tomonlama barkamol milliy kadrlar ulkan hissa qo'shishini nazarda tutib, vatanga fidokorona xizmat qiladigan, sadoqatli, uning buyuk va qudratli uchun qayg'uradigan, o'z iqtidori bilan ona yurtini ulug'lashga qodir, iste'dodli yigit-qizlardan xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlari uchun yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida “Umid” jamg'armasi tuzildi. Jamg'arma Prezidentimiz 1997 yil 7 yanvardagi Farmoniga asosan tashkil topdi.⁶⁰

Jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

-O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida iste'dodli yoshlarni tanlab olish, ularni saralash va o'qitish, tegishli reja va dasturlar ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimiga joriy etish, hamda tanlov asosida chet el oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborish;

-qobiliyatli yoshlarning nufuzli xalqaro olimpiada va tanlovlarda ishtirok etishini tashkil etish va ularni rag'batlantirish, shuningdek yetakchi chet el oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlari, ta'lim yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'natish;

⁶⁰ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi (To'ldirilgan ikkinchi nashri) –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000 yil. 90-bet.

-iqtidorli yoshlarning jahon andozalari talablari darajasidagi ilg'or bilimlar asosida tahsil olishlari, barkamol inson va yuksak ma'naviyatli, yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishlariga moddiy – ma'naviy homiylik qilish;

-chet el o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan hamda ta'lim olib kelgan iqtidorli yoshlar bilan doimiy aloqalar o'rnatish, ularni milliy tiklanish mafkurasiga asoslangan holda umumbashariy qadriyatlarni o'rganishga, O'zbekiston ilm – fanining shon – shuhratini, obro' – e'tiborini dunyoviy miqyoslarga olib chiqishga da'vat etish.

Prezidentimiz 1996 yil yakunlari hamda 1997 yildagi qilinadigan ishlarga bag'ishlangan majlisdagi “Islohotlar izchiligi – inson manfaatlari omili” nutqida “Umid” jamg'armasi haqida qo'yidagilarni ta'kidlab o'tdi: “Yana bir muhim, ustuvor masala, 1997 yilda biz yaxshi, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berishimiz kerak”⁶¹

Bugungi kun yoshlar bilan muntazam, qunt bilan ish olib boorish, iste'dodli bolalarni saralab, ularga chet elning yaxshi o'quv markazlarida professional bilim olishlari uchun shart – sharoitlar yaratishni taqozo etyapti. Bumaqsadni amalga oshirishda yaqinda tuzilgan “Umid” jamg'armasidan umidimiz katta. Bir so'z bilan aytganda, biz o'z iste'dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak.”⁶²

„Umid“ jamg'armasi va „Ustoz“ jamg'armalari 2003 yil 1 iyulda birlashtirilib, ular negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Iste'dod“ jamg'armasi tashkil topdi. „Iste'dod“ jamg'armasi orqali respublikamiz oliy o'quv yurtlari AQSH, Angliya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Finlyandiya, Italiya, Gretsiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Belgiya, Misr, Malayziya, Isroil kabi xorijiy davlatlarning oliy o'quv yurtlari bilan ta'lim, ilmiy, ilmiy-uslubiy sohalarda tajriba orttirish

⁶¹“Ma'rifat” gazetasi. 1997yil 1 mart.

⁶²“Ma'rifat” gazetasi. 1997 yil 15 mart.

uchun talabalar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar almashinuvi bo'yicha hamkorlikda ish olib bormoqda.⁶³

“Iste'dod” jamg'armasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish “Iste'dod” jamg'armasi 2003 yil 1 iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamg'armaning vazifalari:

- mamlakatimizning intellektual salohiyatini, fan, pedagogika va iqtisodiyotimiz rivojlanishi darajasiga ko'tarish, O'zbekistonda chuqur tarixiy ildizlarga ega va Respublikamiz taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ilm-fan yo'nalishlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda faol ishtirok etish;

- dunyoda e'tirof etilgan nufo'zli oily ta'lim va ilmiy markazlar bilan hamkorlik o'rnatish, o'zaro manfaatli ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni tashkil etish orqali istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar iste'dodining ochilishi va yuksalishiga ko'mak berish;

- mamlakat ta'lim va ilmiy muassalarida pedagogik va ilmiy faoliyat borasida muayyan yutuqlarga erishgan, ilmiy izlanishlarni boshlagan, yuksak ijodiy salohiyat va qobiliyat sohiblari bo'lgan istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning iste'dodini rivojlantirish;

- istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning Jamg'arma grantlari asosida taraqqiy topgan davlatlarning ilg'or ta'lim va ilmiy muassasalarida nazariya va amaliyotining zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha malaka oshirish hamda maqsadli tajriba orttirishiga, O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun ustuvor yo'nalishlar bo'yicha bilimni chuqurlashtirishiga, progressiv ilmiy izlanishlarda ishtirok etishlariga ko'maklashish;

“Iste'dod” jamg'armasining bo'limlar ro'yxati:

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Tarixiy xotira va inson omili - buyuk kelajagimizning garovidair” risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T. 2012 y

- O'qish va malaka oshirishni tashkil etish bo'limi;
- Monitoring bo'limi;
- Moliya va investisiyalar bo'limi;
- Masofali o'qitish markazi;
- Intellekt potensialini o'rganish markazi;

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 19 fevral kuni «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi to'g'risida»⁶⁴gi qarorni imzoladi. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida: Samarqand va Farg'onada hayvonot bog'i ochiladi, O'zbekiston o'quvchilari 25 million nusxa darslik bilan ta'minlanadi. Dastur 7 bo'lim va 125 banddan iborat bo'lib, unda bolalar tug'ilishi, ta'lim-tarbiyasi, oilada sog'lom muhitni, uning iqtisodiy va ma'naviy-ahloqiy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy soha rivojiga ajratilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirish bilan bog'liq barcha masalalar aks etgan. «Birinchi navbatda, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, yangi qoida va me'yorlarni ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan»⁶⁵ Davlat dasturiga ko'ra, sakkizta qonun loyihasini ishlab chiqish rejalashtirilgan. «Bolalarni jismoniy va ma'naviy rivojiga zararli ta'sir ko'rsatuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida», «Aholining sanitariya-epidemiologik barqarorligi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida», yangi tahrirdagi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida»gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir. Umuman, davlat dasturida ko'zda tutilgan barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun 4,5 trillion so'm va 302,9 million dollar mablag' sarf etiladi.⁶⁶

⁶⁴ O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 19 fevral kuni «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori

⁶⁵ O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 2014-yil 19 fevral kuni «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qaroridan

⁶⁶ Manba: Kun.uz

“Ta’lim to’g’risida”⁶⁷gi (1997 yil 29 avgust) Qonun(yangi tahriri) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi⁶⁸. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6 oktabrdagi “ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to’g’risida”⁶⁹gi Farmoni mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko’tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish borasida muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Ushbu Farmon asosida “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbqiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi etib belgilandi. Ana shu maqsadni amalga oshirish, yurtimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish uchun bizga yot va begona bo’lgan zararli g’oyalar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish, yoshlarning ongida mafkuraviy bo’shliq bo’lishiga yo’l qo’ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta’minlash uchun milliy istiqlool mafkurasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. 2012-2013 o’quv yilida mamlakatimizda 12 yillik majburiy bepul ta’limga o’tish to’liq ta’minlandi. 2013 yilning 1 yanvaridan boshlab yangi tizim oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim, doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja hamda ilmiy unvonlar berish tizimi joriy etildi. Yangi tizimning yana bir afzalligi shundaki, unda bakalavr ilmiy darajasiga ega bo’lgan kadrlarga ham doktorlik dissertatsiyasi himoya qilish imkoniyati beriladi. Bu ilmiy tadqiqotlar sifatining yuqori bo’lishi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ko’tarilishida muhim ahamiyatga ega. 2013 yil 1 yanvardan boshlab mamlakatimizda oliy o’quv yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimi joriy etildi. Milliy ta’lim tizimini isloh qilishning ijobiy natijalari yoshlarimizning xalqaro maydondagi yutuqlarida yorqin ifodasini topmoqda. Masalan, Astana shahrida o’tkazilgan kimyo fani bo’yicha Xalqaro olimpiadada O’zbekistonlik o’quvchilardan 1 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalini qo’lga kiritganlar. 2013 yilda O’zbekiston mezbon bo’lgan 47-xalqaro Mendeleyev

⁶⁷ O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁶⁸ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida O’zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

⁶⁹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1997 yil 6 oktabrdagi “ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to’g’risida”gi Farmoni

olimpiadasida dunyoning 17 ta davlatidan kelgan 117 nafar iqtidorlilar safidan o'rin olgan 20 nafar hamyurtimiz 2 ta oltin, 5 nafari kumush, 8 nafari bronza medallari bilan taqdirlandi.

Fransiyadagi "Inssad" xalqaro biznes maktabining 2012 yilgi "Innovatsiyalarning global indeksi" ma'ruzasida dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston 2-o'rinni egallagan. Mustaqillik va Vatan taraqqiyoti g'oyalariga sodiq bo'lgan yangi insonni tarbiyalash va voyaga yetkazish shu kunning muhim vazifasidir. Chunki mustaqil, ozod va obod o'lkamizning kelajagini ko'p jihatdan yuksak ma'naviyatli komil insonlar hal qiladi. Shunday ekan, yuksak ma'naviy fazilatlar, ezgu g'oyalarni yoshlar ongiga singdirmasdan, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmasdan turib barkamol insonlarni tarbiyalashdek yuksak vazifaning istiqbolini tasavvur etib bo'lmaydi. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, nafaqat chuqur va har tomonlama bilimga ega, shu bilan birga dunyoqarashi keng, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalangan yangi avlodni shakllantirishdan iborat. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish ishi O'zbekistonda davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi". Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan "Ta'lim to'g'risida"⁷⁰gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi⁷¹ qabul qilindi, yoshlarning xorijning yetakchi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishi hamda malakasini oshirishi uchun jamg'armalar tashkil etildi. Katta ijtimoiy ahamiyatga ega Kadrlar tayyorlash milliy dasturi strategik maqsadga erishish, ya'ni O'zbekistonda kuchli demokratik davlat barpo etish va uni yanada barqaror rivojlantirishning asoslaridan biriga aylandi. Shaxsni shakllantirish va uning manfaatlarini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarishni rivojlantirish ushbu dasturning bir-

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁷¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

biri bilan uzviy bog'liq tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu dasturda mujassam bo'lgan g'oyalar hozirgi zamon jamiyatida ta'limning o'rni va ahamiyati haqidagi tasavvurlarni butunlay o'zgartirib yubordi. Mazmun-mohiyati va ko'lami jihatidan noyob ushbu ijtimoiy loyihaning davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlanishi uni amalga oshirish davomida katta natijalarga erishish imkonini berdi. Dasturni ro'yobga chiqarishda ta'lim tizimini zamon talablari va jamiyatimiz ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda isloh qilish borasida ulkan amaliy tajriba to'plandi. Xorijiy davlatlarda ham ushbu tajribaga qiziqish katta. 1999 yilda YUNESKO tomonidan O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha ijobiy tajribani boshqa mamlakatlarda o'rganish va joriy etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosi ta'limning uzluksizligini ta'minlash hisoblanadi. Ta'lim olish maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanib, maktabda, keyinchalik ushbu milliy dasturni amalga oshirish doirasida tashkil etilgan yangi turdagi bilim dargohlari – kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda davom ettiriladi. Yigit-qizlar ko'pincha o'z bilimini chuqurlashtirish maqsadida mazkur o'quv muassasalarini tamomlagach, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirmoqda. Oliy ta'lim ikki bosqich – bakalavriat va magistraturadan iborat. Doktoranturani o'z ichiga olgan keyingi bosqich oliy o'quv yurtidan so'nggi ta'lim hisoblanadi. Kadrlar malakasini muntazam oshirish va qayta tayyorlash ham dasturning muhim tarkibiy qismidir. Shu tariqa, mamlakatimizda shaxs va kasbiy bilimni muntazam takomillashtirishga yordam beradigan uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi.⁷² O'zbekistonda mamlakatimiz va xorijda to'plangan eng yaxshi tajribalarni hisobga olgan holda, ta'limning barcha turlari uchun yangi davlat standartlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Barcha fan va mutaxassisliklar bo'yicha ushbu standartlarga javob beradigan yuzlab darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari tayyorlanib, chop etildi. O'zgarib borayotgan talablar asosida o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi shakllantirildi. O'quv yurtlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy o'quv

⁷² Usmonov. Q. va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. -T.; O'qituvchi, 1996 y.

va laboratoriya uskunalari bilan jihozlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'quvchilar elektron darsliklar yordamida bilim olmoqda, ular Internetdan foydalanish imkoniga ega, kutubxonalar elektron kataloglarga o'tkazilmoqda. Bularning barchasi o'qitish sifatini oshirishga yordam bermoqda, yoshlarning o'z ustida ishlashi, mustaqil va ijodiy fikrlashini rag'batlantirmoqda. 2013-yilda ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktablar, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berildi. 2013 yili 28 ta yangi kasb-hunar kolleji qurildi, 381 ta umumta'lim maktabi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi 45 ta ob'ekt, 131 ta kasb-hunar kolleji va litseylar rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Shuningdek, 55 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 112 ta bolalar sporti ob'ekti va 4 ta suzish havzasi foydalanishga topshirilib, ularning barchasi zarur uskuna va inventarlar bilan jihozlandi. 2013-yilda ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar haqida so'z borar ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodning xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan ishlarni alohida qayd etish lozim. Jahonda integratsiya jarayonlari kuchayib, kundalik hayotga kompyuter texnologiyalari va internet keng joriy etilayotgan bugungi sharoitda chet tillarni puxta bilmasdan va egallamasdan turib kelajakni qurib bo'lmasligini barcha yaxshi anglab olmoqda.⁷³ Shularni inobatga olib, 2013-2014 o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinfidan chet tillarni o'rgatishning uzluksiz tizimini joriy etildi. Barcha umumta'lim muassasalarida chet tillarni o'rgatish bo'yicha 17 mingdan ortiq o'quv xonalari tashkil etildi. 1-sinf o'quvchilari uchun chet tillar bo'yicha multimedia varianti ilova qilingan, 538 mingdan ziyod rangli darslik chop etildi. 2 ming nafarga yaqin chet tili o'qituvchisi tayyorlandi va ularning umumiy soni 26 ming kishiga yetdi.⁷⁴ Mamlakatimizning barcha

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotira va inson omili -buyuk kelajagimizning garovidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T., "O'qituvchi", 2012. -B 97

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotira va inson omili -buyuk kelajagimizning garovidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T., "O'qituvchi", 2012. -B 97

mintaqalarida chet tillarni bir xil sharoitda o'qitish, qishloq joylarga yuqori malakali ingliz tili o'qituvchilarini jalb etish maqsadida, tarif stavkalariga 30 foiz qo'shimcha haq belgilangan holda, ularni moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etildi. Televideniyada chet tillarni o'rgatish bo'yicha qiziqarli o'yinlar dasturiga ega bo'lgan maxsus bolalar ma'rifiy kanallari tashkil qilindi⁷⁵. Yoshlarga ta'lim berishning yangicha shakllari, birinchi navbatda, oliy maktab tizimi va mamlakatimizning haqli ravishda bosh oliy o'quv yurti hisoblanadigan O'zbekiston Milliy universitetida sinovdan o'tkazildi. Chunki Milliy universitet kasbiy yo'nalishlar bilan bog'liq fanlarni chuqur o'rganishga hamda talabalarda ilmning turli sohalari bo'yicha keng bilim doirasini shakllantirishga asoslangan fundamental ta'limning asriy an'alariga ega. Ta'lim sifatini oshirish Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va mamlakatimizning bosh universitetida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qitish jarayoni muntazam takomillashtirilmoqda, ilg'or pedagogika texnologiyalari joriy etilmoqda.

O'zbekiston oliy maktab tizimida kadrlar tayyorlashning muhim xususiyatlaridan biri o'qitishni ilmiy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda olib borish hisoblanadi. Bu borada iqtidorli talabalar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Ular ilmiy to'garaklar, talabalar ilmiy jamiyatida faol shug'ullanmoqda, talabalar konferensiyalari, seminarlarida ishtirok etmoqda, oliy o'quv yurtlari laboratoriyalari va turdosh ilmiy-tadqiqot institutlarida davlat budjeti tomonidan moliyalanadigan fundamental, amaliy hamda innovatsiya loyihalari doirasida mustaqil tadqiqotlar o'tkazilmoqda, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarining buyurtmalari bo'yicha shartnoma asosida xo'jalik ishlarini amalga oshirmoqda.

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг мамлакатимизни 2013-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси. 18.01.2014.

2013 yilning bahorida bo‘lib o‘tgan birinchi Respublika innovatsiya g‘oyalari va loyihalari yarmarkasi natijalari ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi yanada mustahkamlanib borayotganidan dalolat berdi. Uch kun davomida yarmarkada Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining oliy ta’lim muassasalari tomonidan oliy o‘quv yurtlarida amalga oshirilgan innovatsiya ishlanmalarini joriy etish bo‘yicha umumiy qiymati 4,5 milliard so‘mga teng 192 ta shartnoma hamda ahdlashuv protokollari tuzildi. Shu tariqa, ilm-fan bilan shug‘ullanish bugungi kunda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida talabalar tomonidan egallanayotgan eng yaxshi jahon standartlariga mos ta’lim sifatini oshirishga yordam bermoqda. Ta’lim tizimida yosh avlodni o‘qitish sifatini oshirish va tarbiyalashni takomillashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish tajribasi mamlakatimiz hamda boshqa davlatlardagi barcha oliy o‘quv yurtlari uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu tajriba keng tatbiq etilmoqda, ko‘plab xalqaro va respublika konferensiyalari, simpoziumlarida o‘rganilmoqda. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti” mavzuidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilari 2012-yil 16 fevral kuni Toshkentda⁷⁶gi umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lib, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaralari, ta’lim dargohlarida o‘quvchi va talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Xalqaro konferensiya ishtirokchilarining bir guruhi tashrif buyurgan Olmazor tumanidagi 243-umumta’lim maktabi Toshkentdagi eng namunali maktablardan biridir. 2004-2009 yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturiga muvofiq maktab “Mehr nuri” nodavlat notijorat jamoat xayriya jamg‘armasi ko‘magida kapital ta’mirlandi va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlari amalga oshirildi.⁷⁷

⁷⁶ 2012-yil 16 fevral kuni Toshkentda “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti” mavzuidagi xalqaro konferensiya materiali

⁷⁷ Manba: kun .uz sayti

O'zbekiston ta'lim tizimi tahsinga loyiq, – deydi Buyuk Britaniya ingliz tili o'qituvchilari assotsiatsiyasi prezidenti Lesli Kirkam. “– Mening mamlakatingizga uchinchi marta kelishim va har safar tashrifim davomida ta'lim tizimida ko'plab yangi va foydali o'zgarishlarning guvohi bo'laman. Men O'zbekiston davlat ta'lim standartlari jahon standartlariga to'liq mos keladi, degan fikrdaman”. Xalqaro konferensiya ishtirokchilari 12 yillik uzluksiz ta'lim tizimi hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan Toshkent aloqa kasb-hunar kollejida ham bo'lishdi.⁷⁸ Mazkur o'quv yurtida kommutatsiya tizimlari, aloqa liniyalari, raqamli uzatish tizimlari, radioaloqa, radioda ovoz yozish va televideniye, pochta aloqasi vositalariga xizmat ko'rsatish, shuningdek, menejment va buxgalterlik hisobi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. O'quvchilar o'qishni tamomlagach, o'z kasbini mukammal egallagan mutaxassislar sifatida radio, tele, pochta va uyali aloqa muassasalari hamda tashkilotlariga ishga qabul qilinishi mumkin. – O'zbekiston ta'lim tizimi haqida ko'p eshitganman, – deydi Avstriya parlamenti a'zosi, Avstriya millatlararo hamjihatlik jamiyati prezidenti Jozef Xoshtl. – Haqiqatan ham, mamlakatingizda istiqlool yillarida ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar tahsinga sazovor. Bu yerdagi barcha o'quv yurtlarida tillarni o'rganishga katta e'tibor berilayotgani bizni quvontirdi. Zero, bu hozirgi globallashuv va integratsiyalashuv davrida mamlakatingiz ilmiy salohiyati uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilayotganini ham alohida ta'kidlash lozim. O'zbekistonda ta'lim tizimi jahon standartlari darajasida ekanligini konferensiya ishtirokchilari ishonch hosil qildilar.

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston 75,38 ball bilan dunyoda ikkinchi o'rindadir. Ma'lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuq va marralar haqida so'z yuritilganda, boshqa muhim sohalar qatori ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, onalik va bolalikni himoya qilish borasida amalga oshirayotgan umummilliy dasturlarimiz, ularning ulkan amaliy natijalari

⁷⁸ Manba: kun.uz sayti 2012-yil 16 fevral kuni Toshkent

birinchi navbatda tilga olinadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojiga berayotgan e'tibori, shu yo'ldagi sa'y-harakatlari bilan o'lchanadi. Jahondagi eng nufuzli tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga ayni shu masalalarning ustuvor yo'nalishlar sifatida kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyotining birinchi kunlaridan boshlab inson, uning huquq va manfaatlarini oliy qadriyat sifatida ulug'lab, bu g'oyani davlatimiz Konstitutsiyasida huquqiy qoida shaklida mustahkamlab qo'ydi. Shu asosda o'tgan davrda g'oyat keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, inson manfaatlarini ta'minlash barcha o'zgarish va islohotlarimizning bosh maqsadiga aylandi. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimovning BMT Bosh assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisi minbaridan turib so'zlagan nutqi va boshqa chiqishlarida atroflicha fikr yuritilgani, bu borada yaqin va olis istiqbolga mo'ljallab qabul qilingan strategik dasturlarimizning mazmun-mohiyati keng bayon etilgani jamoatchiligimizga yaxshi ayon. Eng muhimi, ularning har biri yurtimizda yangi demokratik jamiyat qurish konsepsiyasining uzviy tarkibiy qismi sifatida buyuk kelajagimiz binosini barpo etishda g'oyat muhim rol o'ynamoqda. Bu dasturlar tobora amaliy hayotimizdagi real qadriyatga, yangicha hayot va dunyoqarash negiziga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi. Bugungi kunda bu yo'lda qat'iyat bilan olib borilayotgan ishlarning aniq natijalarini har bir yurtdoshimiz o'z hayotida his etayotgani, ularning ongu tafakkuri, ma'naviy olami ana shunday o'zgarishlar tufayli yuksalib borayotgani shunday deb ta'kidlashga asos beradi.

2011 yilning noyabr va 2012 yilning fevral oylarida mamlakatimiz poytaxtidagi Simpoziumlar saroyida o'tkazilgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" hamda "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror

taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti”⁷⁹ mavzusidagi xalqaro konferensiyalar haqida eslash o‘rinlidir. Xususan, yuqorida zikr etilgan ikkinchi xalqaro anjumanda dunyodagi 8 ta nufuzli xalqaro tashkilot va 48 davlatdan 270 nafar ishtirokchi qatnashdi.⁸⁰ Ularning barchasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida yurtimizda amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishib, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarida bo‘lib, O‘zbekistonda ta’lim sohasida shakllangan samarali modelni yuksak baholadilar, bu borada to‘plangan tajribalarni boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida tavsiya etish mumkin, degan xulosaga keldilar. Ta’kidlash kerakki, bunday e’tiroflar geografiyasi keyingi paytda tobora kengayib, ular aniq ilmiy-amaliy tadqiqotlar, xalqaro tahliliy hujjatlarda ham o‘z aksini topmoqda. Buning tasdig‘ini xalqaro media olamida mashhur bo‘lgan CNN kompaniyasining AQSh, O‘zbekiston va jahonning boshqa davlatlarida ta’limning holati to‘g‘risida yaqinda e’lon qilingan qiyosiy axboroti misolida yaqqol ko‘rish mumkin.⁸¹ Shunisi e’tiborliki, bu axborot Fransiyaning nufuzli “Insead” xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e’lon qilingan “2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi” deb nomlagan tahliliy ma’ruzaga asoslanadi. Aytish kerakki, ushbu tadqiqot dunyo mamlakatlarining innovatsion rivojlanish borasidagi 80 ta ko‘rsatkichini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot 2012-yilda 141 ta mamlakatni qamrab oldi. Bu mamlakatlar jahon miqyosida yalpi ichki mahsulotning 99,4 foizini ishlab chiqarishi, sayyoramiz aholisining 94,9 foizi aynan shu davlatlarda istiqomat qilishini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur tadqiqotning ko‘lami, salmog‘i va geografiyasini o‘zimizga

⁷⁹ 2011 yilning noyabr va 2012 yilning fevral oylarida mamlakatimiz poytaxtidagi Simpoziumlar saroyida o‘tkazilgan “O‘zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” hamda “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari.

⁸⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Tarixiy xotira va inson omili -buyuk kelajagimizning garovidir” risolasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. -T., “O‘qituvchi”, 2012. –B 97

⁸¹ Bu axborot Fransiyaning nufuzli “Insead” xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e’lon qilingan “2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi” deb nomlagan tahliliy ma’ruzaga asoslanadi.

yaqqol tasavvur qilishimiz mumkin. Ma'ruza mualliflarining fikriga ko'ra, dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishi innovatsion salohiyat va qulay shart-sharoitlarning mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. Bunday holatni baholashda har qaysi mamlakatning innovatsiyalar bo'yicha indeksi alohida o'rin tutadi. Mazkur indeks esa quyida bayon etilayotgan ikki guruh ko'rsatkichlar bo'yicha yig'ilgan umumiy baholar asosida hisoblanadi. Birinchi guruh – innovatsiyalarni amalga oshirish uchun mavjud resurs va sharoitlar (institutlar; inson kapitali va tadqiqotlar; infratuzilma; ichki bozor va biznesning rivojlanishi). Ikkinchi guruh – innovatsiyalarni amalga oshirishning amaliy natijalari (texnologiyalar va iqtisodiyot haqidagi bilimlarni rivojlantirish; kreativ faoliyat natijalari). Yakuniy indeks xarajatlar va erishilgan samara o'rtasidagi nisbatni namoyon etadi va bu o'z navbatida tadqiqotda qamrab olingan har qaysi mamlakatdagi innovatsiyalarni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarni holis baholash imkonini beradi. Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston ushbu reytinglar ro'yxatida 75,38 ball bilan dunyoda ikkinchi o'rinni egallagan. Birinchi o'rinni esa 75,70 ball bilan Irlandiya band etgan.⁸² Daniya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Belgiya singari bir guruh rivojlangan Yevropa va boshqa qit'a mamlakatlari ushbu ro'yxatning keyingi o'rinlaridan joy olgan. Katta moliyaviy resurslarga ega bo'lgan Saudiya Arabistoni 65,49 ball bilan 15-o'rinni egallagan bo'lsa, dunyoning eng qudratli davlatlari bo'lmish AQSh 31-o'rinni (61,34 ball), Xitoy esa 67-o'rinni (52,23 ball) band etgan. Belarus 60,55 ball bilan 36-o'rinni, Rossiya 55,18 ball bilan 55-o'rinni egallagan. Sobiq sovet hududidagi boshqa mamlakatlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ular reytingda quyidagicha joylashgan: Qozog'iston 69-o'rin, Qirg'iziston 72-o'rin, Armaniston 85-o'rin, Gruziya 87-o'rin, Ozarboyjon 89-o'rin, Tojikiston 107-o'rin.⁸³

⁸² Bu axborot Fransiyaning nufuzli "Insead" xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e'lon qilingan "2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi" deb nomlangan tahliliy ma'ruzaga asoslanadi.

⁸³ Bu axborot Fransiyaning nufuzli "Insead" xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e'lon qilingan "2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi" deb nomlangan tahliliy ma'ruzaga asoslanadi.

Tadqiqotga binoan, ta'lim tizimi rivojlanishining qator ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston dunyodagi ko'plab davlatlardan ilgarilab ketgan. Xususan, davlatning ta'lim tizimi rivoji, maktablarni kapital qurish va yangilash uchun yo'naltirayotgan sarf-xarajatlari, o'quvchilarning umumiy soniga nisbatan o'qituvchilarning soni necha foizni tashkil etishi, aniq fanlar va muhandislik ishi sohasidagi bitiruvchilar soni, GMAT, ya'ni o'quvchilarning biznes maktablarida muvaffaqiyatli ta'lim olish qobiliyatini aniqlash uchun standartlashgan test asosidagi o'quvchilarning o'rtacha bahosi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekistonning natijalari boshqa mamlakatlardan yuqori ekani tahliliy misollar orqali ayon bo'ladi. Zikr etilgan tadqiqotda O'zbekistonning bu borada erishgan yutuqlarining asosiy mezon va omillari haqida atroflicha fikr yuritiladi. Ayniqsa, inson kapitali va tadqiqotlar uchun investitsiyalar, ta'lim rivojiga qaratilgan davlat xarajatlarining darajasi va umuman, ta'lim tizimining holati O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va innovatsion salohiyatining eng kuchli tomonlaridan biri ekani alohida ta'kidlanadi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarini esga olish o'rinlidir: "Biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va xalq uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar"⁸⁴. Aytish kerakki, bir paytlar umumbashariy rivojlanishdan chindan ham chetda qolib ketgan xalqimiz o'tmishning achchiq tajribasidan to'g'ri saboq chiqarib, mustaqillik yillarida ilm-ma'rifatga, intellektual taraqqiyotga intilish, yoshlarimizni aynan shu ruhda tarbiyalash masalasini o'zi uchun eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olgani va bu borada ulkan amaliy samaralarga erishayotgani tufayli bugungi kunda O'zbekiston jahon taraqqiyotining oldingi saflariga chiqib bormoqda. Buni yuqorida zikr etilgan reyting natijalari ham yaqqol isbotlab turibdi.

⁸⁴ Каримов И.А. Соғлом халқ, соғлом миллатгина буюк ишларга қодир бўлади. Халқ сўзи газетаси, 2004-йил 8-декабр

2.3. O'zbekistonning ta'lim sohasida tanlagan yo'li xorijliklar e'tifida

Toshkent shahrida 2012 yil 16-17 fevral kunlari “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzuida xalqaro konferensiya⁸⁵ bo‘lib o‘tadi. Mazkur xalqaro anjumanda o‘nlab mamlakatlardan yuzlab mutaxassislar va ekspertlar ishtirok etdi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi – O‘zA muxbirlari ularning ayrimlari bilan suhbatlashdi va ularning O‘zbekiston ta’lim tizimiga bergan e’tiroflarini keltirish lozim.

Parviz Morvij, Nyu-York davlat universiteti professori (AQSH): – Mustaqillik yillarida O‘zbekiston dunyo hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Bugun uning jahondagi obro‘-e’tibori tobora yuksalmoqda. Bu, ayniqsa, mamlakatingizda demokratiya va bozor iqtisodiyotiga oid islohotlarni amalga oshirish natijasida qo‘lga kiritilayotgan ulkan yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishida, davlatingizning mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari berayotgan samarlarda o‘z ifodasini topmoqda. Men mutaxassis sifatida mamlakatingizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatib boraman. O‘zbekiston Respublikasida Prezident Islom Karimov rahbarligida demokratiya asoslarini mustahkamlashga, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga, xalq farovonligini muttasil oshirishga doimiy e’tibor qaratilayotganini alohida ta’kidlashni istardim. O‘zbekistonda yoshlarga, ayniqsa, ularning ta’lim olishiga ko‘rsatilayotgan ulkan e’tibor meni g‘oyat quvontiradi. AQSHda aksariyat talabalar o‘zlari tahsil olayotgan ta’lim dargohiga kam qatnaydi. Qolgan vaqt uylarida internet orqali darslarda ishtirok etadi. Bunday holga men mutlaqo qarshiman. To‘g‘ri, masofadan o‘qitish tizimi ayrim toifadagi yoshlar uchun qulay. Ammo bunday ta’lim tizimiga muhtoj bo‘lmagan talabalarni masofadan o‘qitish noto‘g‘ri yo‘l, deb o‘ylayman. Har bir talaba yoki o‘quvchi darslarda o‘zi ishtirok etishi, o‘qituvchi bilan bevosita

⁸⁵ Toshkent shahrida 2012 yil 16-17 fevral kunlari “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzuida xalqaro konferensiya malumoti

muloqotda bo‘lmog‘i lozim. Ana shundagina u o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishadi. Shuni unutmaslik kerakki, har bir mamlakatning kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqning ertangi kuni qanday bo‘lishi bugungi yoshlarning qanday ta‘lim va tarbiya olishiga bog‘liq. O‘zbekistonda ta‘lim sohasini bosqichma-bosqich, aniq maqsadga yo‘naltirgan holda isloh qilish bo‘yicha uzoqni ko‘zlagan dasturlar izchil amalga oshirilmoqda. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”⁸⁶gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi⁸⁷ mamlakatingizni ravnaq toptirishga, xalqingiz farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Yetuk mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ushbu hujjatlarning hayotga izchil tatbiq etilishi yoshlarning puxta bilim olishi, iqtidorini to‘la namoyon etishi, qobiliyatini yuzaga chiqarishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim omil bo‘layotir. Bu borada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatingizda ko‘plab nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilgani buning dalilidir.

Gabriyele Mentges xonim, Dortmund texnika universiteti professori (Germaniya):

– O‘zbekistonda fan-ta‘lim, madaniyat, san‘at, ma‘naviyat va ma‘rifat sohalarida erishilayotgan yutuqlardan o‘rnak olsa arziydi. Mamlakatingiz bilan “An‘analar modernizatsiyasi: O‘zbekiston to‘qimachiligi merosi madaniy va iqtisodiy manba sifatida” loyihasi doirasida bir necha yildan buyon samarali hamkorlik qilib kelyapmiz. Bu borada Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik-texnika instituti, Andijon mashinasozlik instituti hamda O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti bilan o‘rnatilgan yaqin aloqalarimiz yaxshi samaralar berayotir. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash masalasiga qaratilayotgan katta e‘tibor barcha sohalar, jumladan, to‘qimachilik

⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasining Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁸⁷ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

uchun ham yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim omil bo'lmoqda. Mamlakatingiz ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, talabalarning sifatli bilim olishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar yuksak samaralar berayotir. Aytish joizki, O'zbekiston milliy liboslarining tarixi, an'analari yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan. Mazkur loyiha O'zbekistonlik mutaxassislarning Germaniya, Germaniyalik soha vakillarining esa O'zbekiston san'at va madaniyat yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari faoliyati bilan yanada yaqinroq tanishishi, sohada fikr va tajriba almashish imkonini bermoqda. O'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash niyatidamiz.

Valeriy Nikiforov, Boltiq xalqaro akademiyasi boshqaruvi raisi, Boltiq psixologiya va menejment instituti senatining raisi (Latviya): – O'zbekiston Milliy universitetining 90 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar majmui Prezident Islom Karimovning 2008 yil 9 apreldagi qarori bilan tasdiqlangan. Bu hujjat “Yoshlar yili”⁸⁸ Davlat dasturi vazifalari hisobga olingan holda ishlab chiqilgan bo'lib, birinchi navbatda, yoshlarning mamlakatimizda, jumladan, ilm-fan va ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etishini ko'zda tutadi. Avgust oyida o'tadigan “O'zbekistonda oliy ta'lim va ilm-fan tizimini rivojlantirishda Milliy universitetning ro'li” mavzuidagi xalqaro ilmiy konferensiya va mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari talabalarining “Yoshlar – bizning bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi” shiori ostida o'tadigan festivali asosiy voqealardandir. Bundan tashqari, “Yoshlik” shaharchasidagi Ma'naviyat va ma'rifat markazida, shuningdek, barcha viloyatlardagi oliy o'quv yurtlarida “O'zbekiston Milliy universiteti – ilm-fan va ta'lim manbai” deb nomlangan ma'ruzalar o'qiladi. Shuningdek, “Ta'lim jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolari” mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya ham o'tkaziladi. Universitetni bitirgan turli avlod vakillarining uchrashuvlari, ko'plab madaniy va sport tadbirlari bo'lib o'tadi. Shu bilan birga, yubileyga tayyorgarlik ko'rish doirasida universitet hududida o'quv korpuslari, talabalar

⁸⁸ Prezident Islom Karimovning 2008 yil 9 apreldagi qarori “Yoshlar yili” Davlat dasturi

uylari va boshqa ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash hamda obodonlashtirish ishlari davom ettiriladi. O'zbekiston Milliy universitetining 90 yilligini keng nishonlash yoshlarimizning yangi bilimlarni egallashi muhimligi bilan bir qatorda Vatan oldida o'z burchini teran anglaydigan fuqaro shaxsini shakllantirish va ma'naviy rivojlantirish zarurligini yanada chuqur tushunishiga yordam beradi. Yubileyga bag'ishlangan tadbirlarning o'tkazilishi mamlakatimizda yosh avlod to'g'risida ko'rsatilayotgan katta g'amxo'rlik, O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligining yana bir yorqin dalili bo'ladi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining keng ko'lamli va serqirra faoliyati, katta xalqaro nufuzi mamlakatimizda yurtboshimiz rahnamoligida yangi jamiyat qurish borasida izchil amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligining yorqin namunasidir. Bu borada ishlab chiqilgan noyob tizim buyuk ajdolarimizning boy ilmiy, ma'naviy va madaniy merosidan oqilona foydalanish, bugungi hamda istiqboldagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ikki muhim omilni kadrlar tayyorlash tizimida uyg'unlashtirish mamlakatimizda mustaqillik yillarida boshlangan buyuk ishlarni davom ettiradigan, buning uchun barcha zarur bilim, kuch hamda imkoniyatga ega yangi avlodni tarbiyalash yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Biz O'zbekistondagi tegishli vazirlik va idoralar, oliy o'quv yurtlari bilan ta'lim sohasining bank-moliya yo'nalishida bir necha yildan buyon samarali hamkorlik qilib kelyapmiz. Yurtingizda ta'lim sohasida o'tkaziladigan ko'rgazmalarda muntazam ishtirok etamiz. Ta'kidlash joizki, mamlakatingizda yoshlar ta'limi va tarbiyasiga berilayotgan e'tibor va o'z o'rnida O'zbekiston yoshlarining bu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgani tahsinga sazovor. O'zbekistonlik talabalarning ilmiy salohiyati juda yuqori ekanini alohida qayd etmoqchiman. Jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. Har qanday mamlakatning taraqqiyotini ta'minlash, avvalo, yetuk

malakaga ega kadrlarga bog'liq. O'zbekistonda bu vazifa muvaffaqiyatli hal etilmoqda. Mamlakatingizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, qisqa fursatda yaratilgan, bugungi zamon talablariga javob beradigan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan tamomila yangi ta'lim tizimi yuksak e'tiborga loyiq. *Xartmann Libetrut, Amaliy fanlar universiteti professori (Germaniya):* – O'zbekistonning to'g'ri tanlagan taraqqiyot yo'li, ayniqsa, ta'lim sohasida tobora oshayotgan salohiyati xorijda ham katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Boisi, ko'plab mamlakatlarda ta'limni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Yurtingizda yosh avlodning puxta bilim olishi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi yurtingizda iste'dodli yoshlarning o'z qobiliyatini to'la yuzaga chiqarishiga xizmat qilmoqda. Tashrif asnosida O'zbekistondagi maktab, kollej va oliy o'quv yurtlari faoliyati bilan yaqindan tanishamiz. Yoshlar uchun barpo etilgan o'quv maskanlarini o'z ko'zimiz bilan ko'rish imkoniga ega bo'lamiz. Bizning universitet Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti bilan hamkorlik qilib keladi. Bundan o'n ikki yil avval O'zbekistonga kelgan edim. Bu davr mobaynida mamlakatingiz tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketibdi. Yangi barpo etilgan muhtasham binolarni ko'rib lol qoldim. Konferensiya turli mamlakatlardan kelgan yirik olimlar hamda soha mutaxassislari bilan o'zaro fikr almashish imkonini beradi.⁸⁹

Jay Dev Agarval, Hindiston moliya instituti boshqaruvchilar kengashi raisi (Hindiston): – “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzuidagi xalqaro konferensiya ko'plab sohalar qatori ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini taraqqiy ettirish borasida O'zbekiston erishgan muvaffaqiyatlarni o'rganish, chet ellik soha mutaxassislari bilan fikr va tajriba almashish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda Prezident Islom Karimov

⁸⁹ Manba: uza.uz sanasi: 15 Fevral 2012 12:17

rahnamoligida yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, ularga puxta bilim berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan etib belgilangani yuksak samaralar berayotir. Davlatingiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etilayotgan “Ta’lim to‘g‘risida”⁹⁰gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi⁹¹ berayotgan samarlarni o‘rganish va qo‘llash boshqa mamlakatlar uchun ham ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. 2010 yili Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Boshqaruvchilar kengashining 43-yillik majlisida qatnashgan edim. O‘zbekistonda bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar samarasida mamlakatingizning tashqi iqtisodiy munosabatlari tobora mustahkamlanib, xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori muttasil yuksalmoqda. O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasidan o‘rnak olsa arzigulik jihatlar g‘oyat ko‘p. Toshkent moliya instituti bilan bir necha yildan buyon samarali hamkorlik qilib kelyapmiz. Mazkur sohada aloqalarimiz jadal rivojlanayotgani bizni g‘oyat quvontiradi. O‘zbekistonlik talabalarning turli fanlarni o‘rganishga katta qiziqishi, o‘z iste’dodini amalda yuksak darajada namoyon etishi bizda doim havas uyg‘otadi. Yuksak intellektual salohiyatga ega, intiluvchan va izlanuvchan, bilimga chanqoq O‘zbekiston yoshlari bilan muloqotda bo‘lib, mamlakatingiz kelajagi buyuk ekaniga yana bir bor amin bo‘ldik.

Maykl Edelshteyn, Nyu-Jersi shtatidagi Ramapo kolleji direktorining o‘rinbosari (AQSH): – Men atrof-muhit va ekologiya bo‘yicha mutaxassisman. Mamlakatingizga o‘tgan yili ham kelib, Mo‘ynoq tumanidagi vaziyat bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgandim. Aytish joizki, Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, O‘zbekiston mintaqada ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatingizda Orolbo‘yi ekologiyasini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, mintaqada sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish yo‘lida olib borilgan ishlar o‘z samarasini berayotganining guvohi bo‘ldik. Sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kasb mahorati ham yuksak. Bularning barchasi, albatta, mamlakatingizda ta’lim

⁹⁰ O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁹¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

tizimiga qaratilayotgan ulkan e'tibor samaralaridandir. Mamlakatingizdagi bir qator oliy ta'lim muassasalarida bo'lib, talabalar bilan suhbatlashdim. O'zbekiston yoshlarining shijoati, yuksak odobi, bilim olishga chanqoqligi, samimiyligi menda katta havas uyg'otdi. O'zbekistonning go'zal tabiati, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlaridagi tarixiy obidalar, zamonaviy binolar har qanday kishini hayratga soladi. Mazkur xalqaro anjuman kunlari O'zbekistonda fan-ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar bilan yanada yaqinroq tanishayotganimdan, boy madaniyatingizdan bahramand bo'layotganimdan xursandman. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti"⁹² mavzuidagi xalqaro konferensiya O'zbekistonda yuksak samaralar berayotgan ta'lim dasturi bilan yaqindan tanishish, turli mamlakatlar olim va mutaxassislari bilan o'zaro fikr va tajriba almashish imkonini berayotganidan mamnunman.⁹³

Azmat Hayot Xon, Peshavor universiteti rektori (Pokiston):– Mamlakatingiz rahbari Islom Karimovning ta'lim sohasi rivoji, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga qaratayotgan ulkan e'tiborini mazkur xalqaro konferensiya misolida ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, har qanday davlatning mavqei undagi ta'lim tizimining qay darajada taraqqiy etayotgani hamda uning sifati xalqaro standartlarga qanchalik muvofiqligiga ham bog'liq. O'zbekistonda bu borada amalga oshirilgan ishlar berayotgan yuksak samaralarni, to'plangan boy tajribani o'rganish va tatbiq etish boshqa mamlakatlar uchun ham juda foydali bo'ladi. Mamlakatingizda joriy etilgan 12 yillik majburiy-bepul, uzluksiz ta'lim kasb-hunarga yo'naltirilganligi va o'quvchilarning qiziqishi asosida amalga oshirilayotgani o'z samaralarini berayotir. Mamlakatingizda barpo etilayotgan zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan va muhtasham binolarga ega ta'lim muassasalari soni tobora ko'paymoqda. O'zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikka,

⁹² Toshkent shahrida 2012 yil 16-17 fevral kunlari "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti" mavzuida xalqaro konferensiya

⁹³ Manba: www.o'zbekiston.ovozi.uz

ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarga havas qilsa arziydi. *Yu Mi Xa xonim, Sangshim tibbiyot-ta'lim jamg'armasi prezidenti (Janubiy Koreya)*: – Mazkur xalqaro konferensiya mavzuining dolzarbligi bilan dunyoning ko'plab mamlakatlarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Anjumanda ishtirok etib, o'zim uchun ko'plab zarur va foydali ma'lumotlar olishimga ishonaman. Tibbiyotda ta'lim sifati va darajasi eng yuqori pog'onada bo'lishi darkor. Buning uchun talabdan ko'p mehnat, sabr va kuchli bilim talab etiladi. Boisi, bo'lajak shifokorlar inson hayoti uchun mas'ul shaxsdir. Jamg'armamiz Toshkent pediatriya tibbiyot instituti bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda. O'zaro hamkorlik loyihasiga ko'ra, o'zbekistonlik yosh shifokorlar Janubiy Koreyada malaka oshirish va u yerdagi shifoxonalarda amaliyot o'tash imkoniga ega bo'ladilar. O'zbekiston tibbiyot sohasida keng qamrovli tub islohotlarni amalga oshirib, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Mamlakatingizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholi tibbiy madaniyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani tahsinga sazovordir. 2011 yilning noyabr oyida tashkil etilgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola"⁹⁴ mavzuidagi xalqaro simpoziumning o'tkazilgani yurtiingizda tibbiyotga qaratilayotgan yuksak e'tiborga yorqin misoldir. Mamlakatingizning Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi mukammalligi bilan ajralib turadi. Poytaxtingizdagi ko'plab litsey va kollejlarda faoliyati bilan tanishar ekanman, ta'lim sohasiga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va yuksak e'tibor samaralariga guvoh bo'ldim. Yana shunga ishonch hosil qildimki, O'zbekiston yoshlarining intellektual salohiyati juda kuchli. Bu ham yurtiingizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasidir. Tahsil olish uchun barcha zarur shart-sharoitga ega intiluvchan va izlanuvchan O'zbekistonlik yoshlarga havas qilsa arziydi.

⁹⁴ 2011 yilning noyabr oyida tashkil etilgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" mavzuidagi xalqaro simpozium

Edgar Kloze, Brandenburg Texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash instituti prezidenti, professor (Germaniya): – O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon o'tgan qisqa vaqt ichida ta'lim jabhasida ham salmoqli natijalarni qo'lga kiritmoqda. Buni biz o'zbekistonlik yoshlarning yuksak intellektual salohiyati misolida ko'rdik. Qayd etish joizki, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Zotan, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni mustahkamlab bo'lmaydi. Biz Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent vrachlar malakasini oshirish va Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelimiz. So'nggi besh yil ichida institutimizda o'zbekistonlik bir qator talabalar malaka oshirdi. Ular ayrim qo'shma loyihalar ustida ish olib bordilar. Natijada ikki mamlakat uchun ham foydali bo'lgan turli yangi innovatsion g'oyalar shakllandi va amalga oshirildi. Aytish joizki, o'zbek talabalarining bilim olishga va til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi juda baland.

Savsan Noveir xonim, Versal shahridagi oliy arxitektura maktabi professori (Fransiya): – Uch yildirki, biz Toshkent arxitektura-qurilish instituti bilan hamkorlik qilib kelayotirmiz. Faol hamkorligimiz natijasi o'laroq, bir qator o'zbekistonlik yoshlar Fransiyada tahsil olmoqdalar. Ular qisqa fursatda Fransiyaning oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim tizimi talablarini va fanlarni osonlik bilan o'zlashtirmoqda. Bu ularning bilim va intellektual darajasi juda yuqori ekanidan dalolatdir. O'zbekistonga ilk bor kelishim. Bu go'zal zaminda hukm surayotgan osoyishta hayot, farovonlik, tinchlik va barqarorlikka havasim keldi. Milliy va zamonaviy uslubni uyg'unlashtirgan mahobatli binolar, muhtasham inshootlarni ko'rib, xalqingizning me'morlik san'ati va bunyodkorlik salohiyatidan lol qoldim.⁹⁵

⁹⁵ Manba: Uza.uz sanasi 2014 y. 12 yanvar

Bugungi kunda yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun olib borilayotgan g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) talaba yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularda mustaqillik tafakkurini, milly va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, yuksak axloq, huquqiy bilimlar, ma'naviy yetuklikni chuqur egallab, qonunlarimiz ustuvorligini tan oladigan, mehnatsevalik kabi fazilatlarni shakllantirish;

2) talaba yoshlarga ta'limning ijtimoiy-siyosiy afzalliklarini keng targ'ib qilish;

3) mustaqillikning bebaho ne'mat ekanini yoshlar ongiga chuqur singdirish, o'zida milly va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar davlatimizning siyosiy, madaniy birligini ta'minlaydigan asosiy omil ekanini chuqur tushuntirish;

4) talaba yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda milly g'oya, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milly madaniyat, tarixiy, falsafiy-axloqiy meros, shaxs erkinligi va rivojining davlat tomonidan himoya qilinishining afzalliklari.

O'tgan 1991-2013 yillarda respublikamizda yoshlarga oid 100 ga yaqin qonun hujjatlari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Shuni ta'kidlash joizki, bugun yurtimizda ta'lim jarayonini isloh etishda oliy o'quv yurtlar muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda.⁹⁶

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida yurtimizda yangi avlod kadrlarini tayyorlash, iste'dodli yoshlar bilan ishlash masalalari yangicha g'oyaviy-siyosiy asosda, aniq samarali tizim bo'yicha yo'lga qo'yildi. Bunda, birinchidan, davlat va jamiyat qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy kabi sohalarda zamon talablariga javob bertadigan yangi avlod kadrlarini tayyorlashga alohida e'tibor berilib, bu boradagi islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ikkinchidan, yangi

⁹⁶ "Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш-мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шарти" мавзусидаги халқаро конференция материаллари. - Т.: "Ўзбекистон", 2012. 6-7-бетлар.

avlod kadrlari yangicha asosda, milly g'oyamiz tamoyillariga tayangan holda tayyorlanmoqda. Uchinchi, bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi negizida yurtimizda samarali milliy ta'lim modeli shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. To'rtinchi, tarmoq vazirliklariga qarashli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yangi avlod kadrlarini tayyorlash tizimi isloh qilinib, rivojlanib bormoqda. Beshinchidan, Davlat boshqaruvi akademiyasi, Tibbiyot akademiyasi, Qurolli kuchlar akademiyasi kabi zamonaviy ta'lim muassasalarida yangi avlod kadrlari bilan birgalikda, rahbar xodimlar, ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ham keng yo'lga qo'yildi.

III BOB. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tarixi va faoiyati

3.1 «Kamolot» YoIH faoliyat tizimi va uning maqsad va vazifalari

Yoshlar tashkilotlardan biri 1996 yil 17 aprelda yosh ijodkorlarga, olimlarga va tadqiqotchilarga ko'maklashuvchi, ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarni moddiy rag'batlantiruvchi, umuman yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi “Kamolot” jamg'armasi ta'sis etildi. “O'zbekiston yoshlarining “Kamolot” jamg'armasi yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, chuqur bilim, kasb egallashi, o'zlarida yuksak ma'naviyat, Vatanparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlarini xosil qilishi, ularning istiqlool ishining davomchilari bo'lib yetishishlarida ko'p qirrali yordam ko'rsatishni o'zining dasturiy vazifasi qilib belgilangan edi. Ammo ushbu jamg'arma yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdek sharaflari vazifasini to'liq namoyon etolmadi. Shu tarzda o'z vazifa va maqsadlarini aniq belgilab, O'zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati 2001 yil 25 aprel kuni o'zining Ta'sis Qurultoyi qarori bilan tashkil topdi. Harakatning huquqiy asosi 1991 yilning 20 noyabrida Prezidentimiz boshchiligida qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”⁹⁷gi qonun hisoblanadi. Yoshlar harakatining faoliyati birinchi kundanoq Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan qo'llab – quvvatlanib, ular “Kamolot” yoshlarning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin”, deya tilak bildirgan edilar. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati bugungi kunda Respublika miqyosida yirik jamoat tashkiloti sifatida shakllanib, o'zining atrofida millionlab sog'lom fikrli yoshlarni birlashtirdi va ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati mamlakatimiz yoshlarini ixtiyoriylik, oshkoralik, huquq va majburiyatlar tengligi tamoyili asosida birlashtiradigan nodavlat notijorat tashkilotidir. Harakat o'z safiga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 5,5 mln O'zbekiston yoshlarini birlashtiradi.

⁹⁷“O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida” 20.11.1991 y. N 429-XII O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Axborotnomasi N 2, 80-modda, 1992 yil

Bundan tashqari harakatning “Kamalak” bolalar tashkiloti millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, o’z ixtiyori bilan birlashgan 7 yoshdan 14 yoshgacha bo’lgan bolalarni birlashtiradi. 2014 yil yanvar oyi ma’lumotiga ko’ra “Kamalak” bolalar tashkilotining umumiy a’zolari soni 2,2 mln.ga yetgan.⁹⁸ Harakat a’zolari xalq xo’jaligining turli sohalarida mehnat qilish bilan birga, o’zlari ta’lim olayotgan o’quv muassalari va tashkilotlariga o’z o’qishlari va mehnatlari bilan hissa qo’shmoqdalar. Harakat faoliyatining dastlabki davrida tashkilotni eski yoshlar tashkilotlaridan keskin farq qiladigan, zamonaviy tashkilotga aylantirish, ya’ni jamiyatdagi barcha sohalar qatori yoshlar tashkilotini ham tashkiliy jihatdan isloh qilish, yoshlar tashkilotining yangi bir tizimini shakllantirish vazifasi turar edi. Shu munosabat bilan o’zining barcha quyi tizimlariga ega bo’lgan respublika miqyosidagi yangi jamoat tashkiloti tizimlari faoliyatini ma’lum bir tartibga solish, belgilangan yo’nalishda harakatga keltirish uchun zarur bo’ladigan katta hajmdagi hujjatlar turkumini yaratish zarurati paydo bo’ldi. Harakat tizimlari faoliyatini amaldagi qonunchilik va Nizom talablari doirasida to’g’ri yo’lga qo’yishga qaratilgan barcha uslubiy hujjatlar o’tgan muddat ichida ishlab chiqilib, joylarga yetkazilib berildi. Markaziy Kengashning davriy Axborotnomasini chop etish yo’lga qo’yildi. Sobiq yoshlar tashkilotidan vorislik asosida harakatning muassisligiga o’tgan «Yoshlar muammolari instituti»ning faoliyati qayta ko’rib chiqilib, uning o’rniga muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti - «Yetakchi» Yoshlar o’quv markazi tashkil etildi. Markaz faoliyatining asosiy maqsadi sifatida yoshlar yetakchilarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, zamonaviy yosh rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ilmiy-uslubiy yordamlar ko’rsatish, yoshlarga oid ilmiy tadqiqotlar olib boruvchilarga ko’maklashish, yoshlarga zamonaviy qo’shimcha kasb-hunar o’rgatish masalalari belgilandi. Hozirda Markazning faoliyati to’liq yo’lga qo’yilgan bo’lib, Markaz tomonidan kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, harakatning quyi tizimlari va yoshlar yetakchilarining yangicha ish modellarini yaratish borasida ishlar olib bormoqda. Markazning 2 yillik faoliyati davomida

⁹⁸ Manba: www.kamolot.uz internet sayti

«Boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini faollashtirish va ularning yoshlarga ta'sir kuchini oshirish», «Harakatning tuman (shahar) bo'limlari ishini to'g'ri tashkil etish va boshlang'ich tashkilotlar orqali yoshlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini oshirish» Loyihalari doirasida 1 mingga yaqin xodimlar va faollar turli hajmdagi o'quv dasturlari bo'yicha o'qitildi. Shuningdek, joylarda tayyorlangan trener-volonterlarning kuchi bilan 20 mingdan ortiq yetakchi yoshlar o'qitildi. Harakatning quyi tizimlarida ishni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan mahsus uslubiy qo'llanma yaratildi, 7,5 ming nusxada nashrdan chiqarildi va joylarga bepul tarqatildi. Qo'llanmada «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkilotining o'zini o'zi boshqarish tamoyillari asosidagi zamonaviy ish modelini yaratib berishga harakat qilindi.⁹⁹

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati – O'zbekiston yoshlarining ixtiyoriylik asosida tashkil etiladigan, o'zini – o'zi boshqaradigan nodavlat – notijorat tashkilotdir. «Kamolot» YoIH tashkiliy jihatdan jamoat tashkiloti bo'lib, a'zolikka asoslangan, oddiy tilda aytganda ko'pchilikning tashkilotidir¹⁰⁰. Harakatning har bir tuzilmasi yoki organi o'z faoliyatida a'zolarning manfaatlarini ifoda etishi va har bir a'zoning xohish – istagini inobatga olishi lozim. Nizom talablariga asosan harakat, uning har qanday tuzilmasi halotiga oid qarorlar bevosita a'zolarning umumiy yig'ilishi yoki ular tomonidan saylangan vakillik (kollegial) organlari yig'ilishlari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinishi shart. Harakatning negizi – yoshlarning o'qish va ish yoki xizmat joylarida ularning xohish – irodasiga asosan tuziladigan boshlang'ich tashkilotlardir. Harakat a'zolari o'z faoliyatiga oid qarorlarini qabul qilinishida umumiy yig'ilishida ovoz berish orqali ishtirok etadilar. Boshlang'ich tashkilotga a'zolar tomonidan saylab qo'yilgan Yetakchi rahbarlik qiladi¹⁰¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 10 oktyabrdagi PQ - 486 – sonli qarori «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat

⁹⁹ Manba: www.kamolot.uz internet sayti

¹⁰⁰Manba: www.kamolot.uz internet sayti

¹⁰¹ Manba: www.kamolot.uz internet sayti

samaradorligini yanada oshirish to'g'risida”¹⁰²gi qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 6 dekabrda 07/1-741 – raqamli «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati samaradorligini oshirish va uning moliyaviy ahvolini yaxshilash chora - tadbirlar rejasi amalga kiritildi. 2006 yil oktabr oyida bo'lib o'tgan Harakatning II – Qurultoyida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining yangi tahrirdagi Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Dissertatsiyaning ushbu rejasi, ya'ni harakatning maqsad va vazifasini uning Dastur va Nizomidan foydalangan holda tahlil etamiz.

O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati (bundan buyon matnda «Harakat» deb yuritiladi) mamlakatimiz yoshlarini ixtiyoriylik, oshkoralik, huquq va majburiyatlar tengligi tamoyili asosida birlashtiradigan nodavlat notijorat tashkilotidir. Harakat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi¹⁰³ va boshqa qonun hujjatlari hamda ushbu Ustav¹⁰⁴ga muvofiq amalga oshiradi. Harakatning to'liq nomi: o'zbek tilida - O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati deb yuritiladi. Harakat O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida Davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab yuridik shaxs maqomiga, alohida mol-mulkka, o'z muhri, shtamplari, blanklari, boshqa ramz va belgilariga ega bo'ladi. Harakat mustaqil balans yuritadi, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob varaqlarini ochishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi, sudlarda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Harakatning saylab qo'yilgan markaziy rahbar organi – O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Markaziy Kengashi (bundan buyon matnda «Kamolot»YoIH MK) Harakat nomidan yuridik shaxs huquqlarini amalga

¹⁰² "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 10.10.2006-y N PQ-486

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr

¹⁰⁴ kamolot.uz » O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining ustavi

oshiradi¹⁰⁵. Yuqorida belgilangan huquqlar amaldagi qonun hujjatlariga va mazkur Ustav¹⁰⁶ga binoan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hududiy organlarida ro'yxatga olingan Harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari (bundan buyon matnda Harakatning «Hududiy bo'limlari» deb yuritiladi), shuningdek Harakatning tuman va shahar bo'limlari (bundan buyon matnda Harakatning «Mahalliy bo'limlari» deb yuritiladi) ga ham joriy etiladi. Harakat o'z Ustavi doirasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tashkilot (korxona, muassasa)larini tuzishi mumkin. Harakat xalqaro jamoat tashkilotlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan shartnoma hamda bitimlar tuzish huquqiga egadir. Harakatning saylab qo'yiladigan rahbar organlari- «Kamolot»YoIH MK, Harakatning hududiy va mahalliy bo'limlari Kengashi o'z nomidan shartnomalar, bitimlar tuzishi, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudlar davogar va javobgar bo'lishi mumkin. Harakat a'zolari Harakatning majburiyatlari yuzasidan, Harakat o'z a'zolarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi. Harakat O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida ish olib boradi. Ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyatlar bilan tegishli ruhsatnoma (litsenziya) olingandan so'ng shug'ullanadi. Mamlakat tashqarisida Harakat nomidan ish ko'rish huquqi faqat «Kamolot»YoIH Markaziy Kengashiga berilgan¹⁰⁷. «Kamolot»YoIH MK ning yuridik manzili- O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 11-uy.

2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis qurultoyi ¹⁰⁸bo'lib o'tdi. Ta'sis qurultoyida harakatning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Bugungi kunda harakatning 14 ta viloyat, 199 ta tuman (shahar) bo'limlari Kengashlari, 17 mingdan ortiq boshlang'ich tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda, 7 mln. 200 ming nafardan ortiq 14 yoshdan 28 (Yangi

¹⁰⁵ kamolot.uz » O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining ustavi

¹⁰⁶ kamolot.uz » O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining ustavi

¹⁰⁷ Manba: www.kamolot.uz internet sayti

¹⁰⁸ 2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis qurultoyi materiallari

nizomiga asosan 30 yoshgacha¹⁰⁹) yoshgacha bo'lgan yoshlarning 5,5 mln nafardan ortiqi yoki 74 foizi harakatga a'zo bo'lib kirgan. Harakat tizimlarida 980 nafar yoshlar xizmat qilmoqda, 3070 yirik boshlang'ich tashkilotlarning 3729 nafar yetakchilariga harakat tomonidan qo'shimcha ish haqi sifatida pul mablag'i to'lanmoqda ya'ni jami 4702 nafar faollar to'liq yoki qisman ish haqi olib ishlamoqdalar.¹¹⁰ Hozirgi kunga kelib harakatning barcha tizimlari to'liq shakllantirildi, ularda ish sharoitlari yaratildi. Viloyat, tuman (shahar) bo'limlari kamida beshtadan kompyuter texnikasi bilan ta'minlandi. Harakatning tuman (shahar), viloyat, Respublika tizimlari faoliyatida a'zolarning ishtirokini va qabul qilinayotgan qarorlarning ko'pchilik tomonidan (kollegial) qabul qilinishini ta'minlash maqsadida barcha tizimlarda Nizom qoidalariga asosan Kengash, Ijroiya qo'mita kabi organlar tashkil etilgan. Hisobot davrida Markaziy Kengashning 17 marta bo'lib o'tgan yig'ilshlarida 75 ta, Markaziy Kengash Ijroiya qo'mitasining 64 marta bo'lib o'tgan yig'ilshlarida 611 ta harakat tizimlari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan masalalar ko'rilib chiqilgan va tegishli qarorlar qabul qilingan. Markaziy Kengashning yig'ilshlari bir yilda o'rtacha 7 tani, Markaziy Kengash Ijroiya qo'mitasining yig'ilshlari bir yilda o'rtacha 12 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich Nizom va reglament talablariga javob beradi. Hisobot davrida Nizomga zid qarorlar qabul qilish holatlari aniqlanmagan. Markaziy Kengash va uning Ijroiya qo'mitasi faoliyati Nizom talablari doirasida tashkil etilib, ularning vakolat va vazifalari aniq belgilangan va haqiqiy ishchi organlar sifatida shakllantirilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy faoliyatiga bo'lgan ehtiyojlari iqtisodiy va boshqa moddiy ehtiyojlardan ko'ra ustunroq turadi, chunki ularni amalga oshirish yo'li bilan yoshlar ijtimoiy hayotga tayyorgarlik ko'radi.¹¹¹ Bugungi kunda ushbu ehtiyojlar yoshlarning asosiy manfaatini tashkil

¹⁰⁹ O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining yangi nizomi 10.10.2006-y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 10.10.2006-y. N PQ-486 "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida

¹¹⁰ Manba: www.kamolot.uz internet sayti

¹¹¹ Bozorov A., Usmanov H., Yoshlar yetakchilari uchun qo'llanma (1-kitob qo'yi bo'g'in yetakchilari uchun) –T.: "Alisher Navoiy", 2006 yil. 96-bet.

qilmoqda. Yoshlarimizning o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarishi uchun harakat qilishi ularni jamiyatning islohot kuchiga aylanishiga olib keladi.

Bu ehtiyojlar quyidagilardan iborat:

-o'zini anglash, o'ziga ishonch va qadriyatlarga asoslangan shaxsiy xavfsizlikka ehtiyoj;

-hayotdagi o'zgarishlarga bardosh beruvchi izchillik va moslashuvchanlik qobiliyatlariga ehtiyoj;

-ijtimoiy jarayonlarga ta'sir eta olish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ehtiyoj;

-yolg'izlanish hissini bartaraf etish uchun boshqalar tomonidan tan olinishi va ma'lum bir jamoaga mansublik ehtiyoji;

-kerakligini his etish uchun jamoaning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shish ehtiyoji;

-hamjihatlikda guruh bo'lib faoliyat yuritishning ahamiyatligini his etish ehtiyoji;

O'zbekiston yoshlarining ushbu ehtiyoj va manfaatlarini hisobga olgan holda

Harakat o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

Harakatning asosiy maqsadi- yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O'zbekiston jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash, yigit-qizlarning ma'naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdan iborat¹¹².

Harakatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

¹¹² Manba: www.kamolot.uz internet sayti

-mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini belgilashda va amalga oshirishda, fuqarolik jamiyatini barpo etishda qatnashish;

-yoshlarning g'ayrat-shijoati, bilimi, iqtidori va salohiyatiga tayangan holda har bir yigit va qizning Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga xizmat qiladigan intilish, izlanish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" tamoyilini ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etishiga erishish;

-yosh avlodni milliy g'oyalarimizga sadoqat, ona diyorga mehr-muhabbat, mamlakatimizning milliy manfaatlarini muhofaza etishdek ulug' va olijanob maqsadlar, e'tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga mo'ljallangan tashkiliy, tarbiyaviy tadbirlarning uzoq muddatli strategiyasini belgilash va amalga oshirish;

-yoshlarning dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatini shakllantirish, faol fuqarolik va fidoyi Vatanparvarlik pozitsiyasini kamol toptirish;

-barcha ta'lim-tarbiya muassasalarida, aholi turar joylari, ishlab chiqarish sohalarida ma'naviy-ruhiy muhitning ahvolini, yoshlarning kayfiyatini, maqsad va muddaolarini hisobga olgan holda ijobiy an'ana va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, mavjud muammolarni, ularning ijtimoiy-siyosiy muhitga, yoshlarning ongi va dunyoqarashiga ta'sirini tahlil etish, nuqsonlarni bartaraf etishning samarali choralarini ko'rish;

-ma'naviy-mafkuraviy targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg'unligini, muntazamligini, samaradorlikka asoslanishini ta'minlash, ya'ni, ma'ruza, suhbat, bahs-munozaralar, seminarlar va konferensiyalar, ommaviy madaniy va sport tadbirlari, ommaviy axborot vositalari orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning, qabul qilinayotgan Farmonlar, Q'arorlar va Qonunlarning

mohiyatini yoshlarga tezkorlik bilan yetkazish va kundalik faoliyat dasturiga aylantirish;

-har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini, yoshlar qatlamlarining talab va ehtiyojlarini, milliy tarkibini hisobga olgan holda ular o'rtasida olib boriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarning dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-o'zbek xalqining bebaho ma'naviy merosidan yoshlarimizning muntazam va to'laqonli bahramand bo'lishiga, ularning mana shunday ma'naviy muhitda kamol topishiga erishish;

-jamiyatda diniy mutaassiblik va aqidaparastlikning barcha ko'rinishlariga, yurt tinchligi va osoyishtaligiga rahna soladigan, Vatandoshlarimizning imon-e'tiqodi va ishonchiga putur yetkazadigan har qanday g'oya va nazariyalarga qarshi kurashish;

-turli to'garaklar, ijtimoiy yordam markazlari, klublar orqali yoshlarni kasbga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, bozor iqtisodiyotining tamoyillarini o'rganishlari va o'z sohasining yetuk egalari bo'lib yetishishlariga ko'maklashish;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron bolalar maktab-internatlari tarbiyalanuvchilarini, bolalikdan nogiron o'smirlar va yoshlarni otaliqqa olish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, hunar o'rgatish, ish bilan ta'minlashga, o'zlarini jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida his etishlariga ko'maklashish;

-yoshlarning jahon fani va madaniyati, zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirishi orqali milliy fan va madaniyatni zamonaviy taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarishga yordamlashish;

-yoshlarga O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatda erishayotgan yutuqlari ahamiyatini anglatish orqali ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalash;

-yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga hurmat hissini tarbiyalash, ayni paytda o'zining fuqarolik huquqi va burchinin aglagan holda yashashi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga ko'maklashish;

-ijtimoiy adolat mezonlarining har qanday shaklda buzilishiga, hayotimizda uchraydigan illatlar-poraxo'rlik, oshna-og'aynigarchilik, mahalliychilik, urug'chilik, guruhbozlik, mansabparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, axloqiy nopoklikka, qonunbuzarlikning barcha ko'rinishlariga, xorijdan kirib kelayotgan milliy ma'naviyatimizga yot bo'lgan zararli udumlarga, information xurujlarga qarshi yoshlarning keskin va murosasiz munosabatini shakllantirish;

-yoshlar va bolalar jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlarining yoshlar va bolalarni aqliy, ijodiy va jismoniy jihatdan kamol toptirishga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

-yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy muammolarini hal etishga qaratilgan dasturlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasidagi yoshlar va bolalar jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlarining shu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

-davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek xalqaro va xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar va yosh oilalarga turli yo'nalishda ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatadigan, ruhiy, tibbiy, huquqiy va boshqa sohalarda maslahat beradigan, kasb-hunar tanlashda va ishga joylashishda, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishda yordam beradigan va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga xizmat qiladigan tarmoqlarni kengaytirish;

-yoshlarga jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratish, harbiy xizmatga tayyorlash yo'nalishlarida ishni tashkil etishning amaliy tizimlarini yaratish;

- ekologik tarbiyani yoshlar tarbiyasi tizimining uzviy va uyg'un tarkibiy qismiga aylantirish;

- ta'lim, fan, texnika, axborot texnologiyalari, madaniyat, san'at, sport, tadbirkorlik sohalarida ko'zga ko'rinarli yutuqqa erishgan iste'dodli va iqtidorli yoshlarni rag'batlantirib borish¹¹³.

Harakatning huquqlari quyidagilardan iborat¹¹⁴:

– jamiyat hayotining turli masalalari bo'yicha tashabbus ko'rsatish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga takliflar kiritish;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yoshlar va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha qarorlarini ishlab chiqishda, qonunchilikda o'rnatilgan tartibda ishtirok etish;

– o'z faoliyatiga doir ma'lumotlarni tarqatish;

– belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish, noshirlik va matbaa faoliyatlari bilan shug'ulanish;

- ustavda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish maqsadida tadbirkorlik

- korxonalarini tuzish;

– o'z ramzini ta'sis etish;

¹¹³ Manba: www.kamolot.uz internet sayti O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining ustavi

¹¹⁴2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta'sis qurultoyida qabul qilingan O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi

– o‘z faoliyati masalalari bo‘yicha yig‘ilishlar, majlislar, tadbirlar, anjumanlar, seminarlar va davra suhbatlarini o‘tkazish;

– qonun hujjatlariga binoan respublika hududida o‘zining hududiy bo‘limlarini ochish.

Harakat qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Harakatning majburiyatlari quyidagilardan iborat¹¹⁵:

– qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish;

– o‘z mol-mulki va pul mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiqligini ta’minlash;

– nodavlat notijorat tashkilotini ro‘yxatga oluvchi organga o‘zi o‘tkazayotgan tadbirlarda qatnashish imkonini berish;

– ro‘yxatga oluvchi, soliq va statistika organlariga o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni belgilangan tartibda taqdim etish.

Harakat qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega.

Harakatga a‘zolik:¹¹⁶

Harakatga yakka tartibda va jamoaviy tarzda a‘zo bo‘lish mumkin.

Harakatning va (yoki) uning muayyan tadbirlari maqsadini qo‘llab-quvvatlash istagini bildirgan, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari Harakatning yakka tartibdagi a‘zosi bo‘lishi mumkin.¹¹⁷

¹¹⁵ 2001 yil 25 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta’sis qurultoyida qabul qilingan O‘zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O‘zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi

¹¹⁶ 2001 yil 25 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta’sis qurultoyida qabul qilingan O‘zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O‘zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi

¹¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining yangi nizomi 10.10.2006-y.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 10.10.2006-y. N PQ-486 "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo‘llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida

Yakka tartibdagi a'zo Harakatning rahbar organiga saylangan taqdirda, ushbu Ustavning 4.2-bandida ko'zda tutilgan yoshga oid cheklov qo'llanilmaydi.¹¹⁸ Tashkilotga yakka tartibdagi a'zolikka qabul qilish va chiqish Harakat boshlang'ich tashkilotining Umumiy yig'ilishi, boshlang'ich tashkilot Kengashining yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi. A'zolikka qabul qilinuvchi tegishli mazmundagi arizani taqdim etadi. Boshlang'ich tashkilotning a'zolikka qabul qilish to'g'risidagi qarori yakuniy hisoblanadi va uning Harakatning yuqori organlari tomonidan tasdiqlanishi talab qilinmaydi. Harakatning faoliyatida jamoaviy a'zolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mehnat jamoalari, ustav maqsadlari, vazifalari va dasturiy hujjatlari Harakatning ustav maqsadlari, vazifalari va dasturiy hujjatlariga zid bo'lmagan fuqarolar birlashmalari ishtirok etishi mumkin.

Jamoaviy a'zolar Harakat a'ziligiga Harakatning mahalliy, hududiy Kengashlari tomonidan barcha ishtirokchilar tomonidan imzolangan Umumiy yig'ilish qarori asosida qabul qilinadi.

Harakatga yakka tartibdagi a'zolik quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- Harakat a'zosi arizasiga ko'ra;
- Harakat a'zoliqi yoshi to'lgach (Harakatning saylanadigan organlariga saylangan shaxslar bundan istisno);
- Harakat a'zosi tomonidan ushbu Ustavga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilganda;
- Harakatning faoliyati tugatilganda.

¹¹⁸ 2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta'sis qurultoyida qabul qilingan O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi

Harakat safidan chiqarish to'g'risidagi qaror boshlang'ich tashkilotning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.¹¹⁹

Harakatning jamoaviy a'zolari o'z tashkiloti rahbar organining qarorini Harakatning mahalliy, hududiy Kengashiga topshirish orqali tugallanishi mumkin.

Harakat a'zolari quyidagi huquqlarga ega:¹²⁰

- umumiy yig'ilishlar, konferensiyalar, Qurultoy, Harakatning saylanadigan organlari yig'ilishlari va Harakatning bosma davriy nashrlarida masalalarni muhokama qilish chog'ida o'z fikrini erkin ifoda etish;

- shaxsan yoki o'z vakili orqali Harakatning saylanadigan organlari qarorlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- Harakatning saylanadigan rahbar organlari va nazorat-taftish organlariga saylash va saylanish;

- Harakat organlari faoliyati to'g'risida ma'lumotlar olish, o'zlariga taalluqli bo'lgan masalalarni muhokama qilishda Harakat organlari faoliyatida ishtirok etish va shaxsiy fikrini bildirish;

- Harakat faoliyatida Ustav va Dastur doirasida ishtirok etish, Harakatning har qanday rahbar organiga ariza va takliflar bilan murojaat etish.

Harakat a'zolarining asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:¹²¹

- Harakatning ustav maqsadlarini amalga oshirishda qatnashish;

- yoshlar o'rtasida va umuman, jamiyatda Harakatning ta'siri va nufuzini oshirish;

¹¹⁹ 2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta'sis qurultoyida qabul qilingan O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi

¹²⁰ 2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta'sis qurultoyida qabul qilingan O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi

¹²¹ 2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta'sis qurultoyida qabul qilingan O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi

– Harakat organlari, boshlang'ich tashkilotlarning umumiy yig'ilishlari qarorlarini bajarish;

–Harakatning boshlang'ich tashkiloti faoliyatida faol qatnashish.

Harakat a'zolarining huquq va burchlari:¹²²

Harakatning barcha a'zolari quyidagi teng huquqlarga egadirlar:

-umumiy yig'ilishlar, Konferensiyalar, Qurultoy, Harakatning saylab quyiladigan rahbar organlari majlislari va Harakatning matbuot nashrlarida har qanday masalalarni muhokama qilishda o'z fikrini erkin bildirish;

-o'zi yoki o'zi saylagan vakil orqali Harakatning saylab quyiladigan organlari qarorlarini ishlab chiqishda qatnashish;

-Harakatning himoyasi va qo'llab-quvvatlashidan foydalanish;

-Harakatning saylab quyiladigan rahbar va nazorat-taftish organlariga nomzod ko'rsatish, saylash va saylanish;

-Harakat organlari faoliyati to'g'risida axborot olish, o'ziga taalluqli masalalar muhokamasida ishtirok etish va o'z fikrini bildirish;

-Harakatning har qanday organi va a'zosini tanqid qilish;

-Harakatning Ustavi va Dasturi doirasidagi faoliyatida ishtirok etish, har qanday organiga ariza va takliflar bilan murojaat qilish;

-Harakatning Ustavi va dasturiy vazifalariga zid bo'lmagan hollarda siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va boshqa ijtimoiy harakatlar bilan hamkorlik qilish.

Harakat a'zolarining burchlari quyidagilardan iborat:

-Harakatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etish;

-Harakatning yoshlar o'rtasida va jamiyatda ta'sir kuchi hamda obro'sini

¹²² 2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta'sis qurultoyida qabul qilingan O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi

oshirishga o'z hissasini qo'shish;

-Harakatning organlari, boshlang'ich tashkiloti yig'ilishlari qarorlarini bajarish;

-Harakatning boshlang'ich tashkiloti ishida faol qatnashish.

Harakatning jamoat tarzidagi a'zolari yakka tartibdagi a'zolar uchun belgilangan barcha huquq va burchlarga ega bo'ladilar.

"Kamalak" respublika bolalar tashkiloti¹²³

O'n yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarni milliy g'oyaga sodiqlik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan yosh avlod huquq va manfaatlarini himoya qilish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida Harakat qoshida "Kamalak" bolalar tashkiloti faoliyat yuritadi.

"Kamalak" bolalar tashkilotining Ustavi, byudjeti, tuzilmasi va yillik ish rejalari "Kamolot" YoIH Markaziy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Respublika "Kamalak" bolalar tashkiloti rahbari "Kamolot" YoIH Markaziy Kengashi qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda maqomiga ko'ra Markaziy Kengash raisi o'rinbosariga tenglashtiriladi.

"Kamalak" bolalar tashkiloti faoliyati "Kamolot" YoIH mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Respublika "Kamalak" bolalar tashkiloti rahbari olti oyda kamida bir marta "Kamolot" YoIH Markaziy Kengashiga hisobot beradi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashida Harakatning 2014 yil yakuniga bag'ishlangan sarhisob yig'ilishi bo'lib o'tdi. Undagi dolzarb malumotlarni dissertatsiyamga kirishni joiz deb topdim. Unda Harakat a'zolari, Markaziy Kengash raisi va o'rinbosarlari, hududiy kengashlar raislari ishtirokida

¹²³ 2001 yil 25 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining ta'sis qurultoyida qabul qilingan O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Dasturi va Ustavi kamolot.uz O'zbekiston "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakatining Ustavi VII bob. "kamalak" respublika bolalar tashkiloti

«Sogʻlom bola yili»¹²⁴ Davlat dasturi hamda «Oʻzbekiston Respublikasida 2014 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar dasturi»¹²⁵da belgilangan vazifalar ijrosi, budget va 2015 yilga moʻljallangan ish rejasi kabi masalalar koʻrib chiqildi. Yigʻilishni «Kamolot» YOIH Markaziy Kengashi raisi Bahodir Gʻaniev ochib berdi.

Oʻtgan yili Harakatning oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari oʻquvchilarining huquqiy bilimlarini yanada yuksaltirishga qaratilgan «Siz qonunni bilasizmi?» koʻrik-tanlovi yangi nizom asosida tashkil etilib, unda 55 ming nafardan ziyod oʻquvchi qatnashdi. Biroq 2006 yilda mazkur tanlovga 75 mingdan ortiq yigit-qiz jalb etilganini inobatga olsak, oʻtgan yilda tashkilotchilik bilan bogʻliq kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgani oydinlashadi. Masalan, Harakatning tuman va shahar kengashlari tomonidan tanlovning taʼlim muassasasi bosqichlari umuman tashkil etilmagan.¹²⁶ Oliy taʼlim muassasalari talabalari oʻrtasida oʻtkazilgan «Tafakkur sinovlari» tanlovida esa yoshlar qiziqishi 2013 yilga nisbatan oʻn foiz ortgan. Uning saralash va hududiy bosqichlari 69 ta oliy taʼlim muassasasida tashkil etilib, unda 7800 nafar talaba ishtirok etdi. Harakatning tarbiya va sport sogʻlomlashtirish oromgohlari loyihasi orqali ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turgan voyaga etmaganlar xulqi ijobiy tomonga oʻzgargan holatda tavsiyanoma orqali profilaktik hisobdan chiqariladi. 2014 yilda mazkur oromgohlarga 1645 nafar yosh jalb etildi. Ammo bu boʻyicha Toshkent shahri, Sirdaryo, Andijon, Samarqand, Fargʻona viloyatlarida muayyan kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgani aniqlangan¹²⁷.

Oʻtgan yili yoshlarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida oʻtkazilgan uchrashuvlarga 250 mingga yaqin yosh jalb etildi. Rejada har oyda bir marotaba hududlarda «Hokim va yoshlar»

¹²⁴ Oʻzbekiston Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 19 fevral kuni «Sogʻlom bola yili» Davlat dasturi toʻgʻrisida»gi qarori

¹²⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi Oʻzbekiston Respublikasida 2014 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar PQ-2124-son Qarori

¹²⁶ Manba: www.kamolot.uz internet sayti Oʻzbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati

¹²⁷ Kamolot” YoIH ning 2011-2014 yillardagi faoliyati toʻgʻrisidagi hisobotidan

mavzuida turkum uchrashuvlarni o'tkazish belgilangan bo'lsada, uning ijrosi Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Toshkent, Farg'ona viloyatlari kengashlarida o'z holiga tashlab qo'yilgan. SHuningdek, mazkur tavsiyalarga asosan, har bir uchrashuv yakuni yuzasidan yoshlar tomonidan bildirilgan muammo va takliflar asosida chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda ijrosi yuzasidan tegishli tashkilotlarga ma'lumotlar taqdim etilgan kitoblar jamlangan mo'jaz kutubxonalar tashkil etildi. Biroq ba'zi hududiy kengashlar xodimlarining masuliyatsizligi oqibatida Qarshi, Nukus, Jizzax shaharlari hamda Dang'ara, Kosonsoy, Olmazor, Qiziltepa, SHovot, Urgut, Bulung'ur, Norin, CHinoz tumanlarida yoshlar festivallari doirasidagi loyihalar yetarli saviyada tashkil etilmadi.

Harakat yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida «Shunqorlar» va «Yosh chegarachilar» harbiy musobaqalarini o'tkazib kelmoqda. O'tgan yili Respublikamizning chegaraoldi tuman va shaharlarida tashkil etilgan «Yosh chegarachilar» harbiy vatanparvarlik musobaqalarida 368 ta jamoa tarkibida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 3700 nafar o'quvchisi qatnashdi. «Shunqorlar» musobaqasida esa 1150 dan ortiq jamoa ishtirok etdi. 2014 yilda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati ilk bor «Kino va yoshlar» respublika forumini tashkil etdi¹²⁸. Unda soha vakillari hamda Harakat etakchilaridan iborat yetmish nafarga yaqin ekspertlar guruhi shakllantirilib, joylarda oltita sektsiyada tadbirlar tashkil etildi. Loyiha doirasida o'zbek milliy kino san'atiga doir masalalarni yoshlar orasida keng muhokama qilish maqsadida Harakatning internet tarmog'idagi saytida «Kino va yoshlar» nomli maxsus sahifa ochildi. Ushbu sahifa orqali jamoatchilik orasida kino san'atining turli yo'nalishlari bo'yicha so'rovlar o'tkazilib, unda 20 mingga yaqin respondent ishtirok etdi. Forum yakunida kino san'atini yanada rivojlantirish, yosh kino ijodkorlarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan ellikka yaqin taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Yoshlar tashkiloti mustaqilligimizning 23 yilligi munosabati bilan «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida «Istiqlol farzandlari» yoshlar festivalini o'tkazdi.

¹²⁸ Kamolot" YoIH ning 2011-2014 yillardagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

Unda Respublikamizning barcha hududlaridan Davlat mukofotlari, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, «O‘zbekiston belgisi» ko‘krak nishoni, «Kamolot» stipendiya tanlovi ko‘ngildagidek o‘tkazilgan. Tanlovga turizm, ekoturizm, milliy qadriyat va urf-odatlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni targ‘ib etishga qaratilgan 200 dan ortiq ijodiy ish taqdim etilgan. Aksariyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Xorazm viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. «Turkiston» gazetasi Harakatning Markaziy Kengashi hamkorligida tashkil etgan «Turkiston» savol beradi» media loyihasi jamoatchilik, xususan, yoshlar auditoriyasini yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati haqida keng xabardor etishga qaratildi. Ushbu loyiha orqali Harakatning xududiy kengashlari raislari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot tashkil etildi. Intervyular jarayonida gazeta tahririyati hamda yoshlardan kelib tushgan uch mingga yaqin savollarga javob berildi. Bugungi kunda Harakat muassisligida 2 ta hamda hammuassisligida 7 ta nashr samarali faoliyat olib bormoqda. Biroq ushbu nashrlarga obunani tashkil etish hamon achinarli ahvolda. Jumladan, Toshkent shahrida «Turkiston» gazetasiga rejadagi 519 ta nusxa o‘rniga boryo‘g‘i 27 ta obuna qilingan bo‘lsa, Jizzaxda bu ko‘rsatgich 358 tadan 26 tani, Buxoroda — 1514 tadan 377 tani, Samarqandda — 275 tadan 124 tani tashkil etdi. Qolgan hududlarda belgilangan rejaning 50-60 foizigina bajarilgan xolos. «Молодёж Узбекистана» gazetasiga ham obuna rejasini bajarish holati sust. Birgina Jizzax viloyatida bu gazetaga atigi 2 ta obuna bo‘lingani nihoyatda achinarlidir. Toshkent shahrida ham ahvol shunga yaqin. Rejadagi 305t a o‘rniga 18 ta, Andijonda 361 ta o‘rniga 140 ta obuna qilingan. Qolgan hududlar mazkur nashrga obuna rejasini 40-50 foizga bajargan xolos¹²⁹.

Endi quyidagi raqamlarga e’tibor berishingizni so‘rayman. «Qoraqalpoq yoshlari» gazetasining adadi 4838 nusxa, «Navoiy yoshlari» gazetasi 3450, «Buxoro yoshlari» gazetasi 5772, Jizzaxdagi «Kamolot» ko‘zgusi» gazetasi 2210, Sirdaryodagi «Davr yoshlari» gazetasi 8600, Surxondaryodagi «Surxon yoshlari» gazetasi 2000, Namangandagi «Kamolot» gazetasi 4300 bo‘lgani holda bu

^{129 129} Kamolot” YoIH ning 2011-2014 yillardagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobotidan

boradagi ishlar Toshkent, Farg‘ona viloyatlari kengashlarida o‘z holiga tashlab qo‘yilgan. SHuningdek, mazkur tavsiyalarga asosan, har bir uchrashuv yakuni yuzasidan yoshlar tomonidan bildirilgan muammo va takliflar asosida chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda ijrosi yuzasidan tegishli tashkilotlarga ma’lumotlar kiritib borish vazifasi belgilangan edi. Afsuski, shu kunga qadar hech bir hududiy kengash tomonidan ushbu masala yuzasidan birorta amaliy ish qilinmagan. O‘tgan davr mobaynida yoshlar sud organlari tizimi va faoliyati bilan ham yaqindan tanishtirib borildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo‘jalik sudlarida yigirmaga yaqin uchrashuvlar tashkil etilib, ularda ikki mingga yaqin yigit-qiz ishtirok etdi. Oliy Majlis palatalari deputat va senatorlari ishtirokida o‘tkazilgan «Deputat va yoshlar», «Senator va yoshlar» mavzularidagi uchrashuvlarda yigirma ming nafardan ortiq yosh qatnashdi. Harakatning eng yirik loyihalaridan biriga aylangan «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligining huquqiy kafolati» mavzuidagi targ‘ibot tadbirlari doirasida yurtimizning barcha hududlarida targ‘ibot tadbirlari tashkil etilib, ularda ellik mingdan ortiq yosh ishtirok etdi. Targ‘ibot oyligi doirasida «Vatan kelajagi sening qo‘lingda!» shiori ostida «Yoshlar va saylov — 2014» loyihasi hamda rasmlar tanlovi tashkil etildi. SHuningdek, ta’lim muassasalarida yoshlarni saylov qonunchiligi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida «Bugungi o‘quvchi — ertaga saylovchi», «Sening ovozing hal qiluvchi kuchga ega» kabi mavzularda axborot soatlari, «Men saylovga tayyorman!» mavzuida devoriy gazetalar hamda «Yosh saylovchilar kunlari» axborot aktsiyalari o‘tkazildi. Bundan tashqari, kamolot.uz sayti orqali «Men saylovga tayyorman!» onlayn tanlovi tashkil etildi. Konstitutsiya hamda saylov qonunchiligiga doir savollardan iborat ushbu tanlovda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan 120 ming nafardan ortiq yoshlar ishtirok etdi¹³⁰.

Harakatning ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi eng yirik loyihasi «Biz buyuk yurt farzandlarimiz!» shiori ostidagi yoshlar festivalidir. Mustaqilligimizning 23 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan festivallarda ijtimoiy-siyosiy va huquqiy,

¹³⁰ ¹³⁰ Kamolot” YoIH ning 2011-2014 yillardagi faoliyati to’g’risidagi hisobotidan

ma'-naviy-ma'rifiy, sport-sog'lomlashtirish yo'nalishlarida o'n to'rtta loyiha tashkil qilinib, ularga bir million nafardan ziyod o'g'il-qiz qamrab olindi. Festivallarda «Kamolot kutubxonasi» loyihasi doirasida Harakatning eng namunali mahalliy kengashlari qoshida yoshlarning takiflari o'rganilda va yosh ijodkorlarning ilk kitoblari bepul nashrdan chiqarildi. «Kamolot» yoshlar oromgohida yosh jurnalistlarning yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda to'plangan ilg'or tajribani ommalashtirish, yoshlar uchun mo'ljallangan media loyihalar ishlab chiqish maqsadida respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan sakson nafar jurnalist va Harakat tizimidagi matbuot xizmati xodimlari ishtirokida mediatrening tashkil etildi. Uning yakunida ishtirokchilar Harakatning OAV bilan ishlash, tashkilot faoliyatining ochiq va oshkoraligini ta'minlash, mamlakatning yoshlarga oid milliy axborot siyosatini yanada rivojlantirishga qaratilgan qirqa yaqin takliflarni ishlab chiqdi. Qator vazirlik va tashkilotlar hamkorligida ikkinchi marotaba tashkil etilgan «MIT» — milliy internet tanlovida 1300dan ortiq veb-dizayner, jurnalistlar, fotomuxbirlar va boshqa havaskor ijodkorlar ishtirok etdi.¹³¹ Tanlovga takdim etilgan ijodiy ishlarning qariyb 200 tasini veb-sayt tashkil qiladi. E'tiborli jihati shuki, ularning 80 foizi talabalar tomonidan yaratilgan bo'lib, shundan yarmidan ko'pi saytlardir. Tanlov nizomiga ko'ra, ishtirokchilarning anketalari Harakatning hududiy kengashlari tomonidan qabul qilinishi belgilangan. Ammo, targ'ibot tadbirlari etarli darajada tashkil etilmagani bois, aksariyat anketalar to'g'ridan-to'g'ri Markaziy Kengashga topshirildi. Qarshi, Nukus, Samarqand, Farg'o-na va Urganch TATU filiallari joylashgan bo'lishiga karamay, ushbu hududlarda yashovchi tengdoshlarimizning tanlovdagi ishtiroki sustligi kuzatildi. Sirdaryo, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari yoshlari esa anketalarni xatto qayerga topshirish haqida ham ma'lumotga ega bo'lmagan.¹³²

Qayd etilishicha, ayni paytda «Kamalak» bolalar tashkiloti o'z atrofiga 10-14 yoshli ikki million nafardan ortiq o'g'il-qizlarni birlashtirgan. Maktablarda 68

¹³¹ Manba: www.kamolot.uz internet sayti O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati

¹³² Manba: www.kamolot.uz internet sayti O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati

mingga yaqin «Kamalak» sardori faoliyat yurityapti. Bolalar tashkiloti o'tgan yilda 20400 yaqin tadbir tashkil etdi. «Kamalak yulduzlari» va «Kamalak bilimdonlari» tanlovlari, «Kamalakdan yangi yil», «Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar», «Yozni «Kamalak bilan» loyihalari, «Sen bilan birga Kamolot» sari» aksiyasi tashkilotning eng yirik loyihalari hisoblanadi. Bu kabi tadbirlarning barchasiga 1,3 millionga yaqin bola qamrab olingan. Bu raqam 2013 yilga nisbatan 49,1 foiz o'sgan.¹³³ Bolalar tashkiloti tomonidan yozgi ta'til davomida oromgohlarga jalb etilmagan mahalla yoshlari va kam ta'minlangan oila farzandlarining maroqli dam olishi uchun «Yozni Kamalak bilan», «Yozni Kamolot bilan» loyihalari doirasida to'garaklar, ko'chma teatr va boshqa turli madaniy tadbirlar uyushtirildi. SHu orqali 302 ming nafardan ortiq bolaning mazmunli dam olishiga ko'maklashildi. Yozgi ta'til davomida 953ta oromgohda Sardorlar kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi¹³⁴. Bundan tashqari, «Kamolot» yoshlar oromgohida 150 nafar «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivali g'olibi, «Kamalak» bolalar tashkilotining sardorlari, kam ta'minlangan oila farzandlari ham dam oldi. Iqtidorli yoshlarning ijodiy faolligini qo'llab quvvatlash borasida ham samarali ishlar olib borildi. Davlatimiz rahbarining 2005 yil 31 oktabrdagi qaroriga muvofiq o'tgan yilning o'zida muddatli harbiy xizmatni o'tab, oliy ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan 12,5 ming nafarga yaqin talaba yigit Harakat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlandi. Ammo moddiy qo'llab-quvvatlanishga da'vogar faol talabalar ro'yhatini shakllantirish va tegishli tartibda Markaziy Kengashga takdim etishda Toshkent shahri, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari kengashlari tomonidan sustkashlikka yo'l qo'ydi.¹³⁵

2014 yilda «Yurt kelajagi» iqtidorli yoshlar respublika tanlovining quyi bosqichlarida oltmish ming nafardan ortiq tengdoshimiz ishtirok etdi. Andijon, Buxoro, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida tanlov targ'iboti munosib darajada tashkil etilgani bois yoshlarning loyihadagi faolligi ancha oshdi. Biroq

¹³³ Kamolot" YoIH ning 2011-2014 yillardagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹³⁴ Kamolot" YoIH ning 2011-2014 yillardagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹³⁵ Manba: www.kamolot.uz internet sayti O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va Farg‘ona viloyatida tanlov targ‘iboti etarli olib borilmaganini ham aytib o‘tish kerak.

2014 yilda oliy ta‘lim muassasalari talabalarining iqtidori, ilmiy salohiyati va Harakat faoliyatidagi faolligini rag‘batlantirishga qaratilgan «Kamolot» stipendiyasi» loyihasi yanada takomillashtirildi. Xususan, har bir ta‘lim muassasasidan faqat bir nafar talabaga stipendiya sovrindori bo‘lish imkoniyati berildi. SHu asosda tanlov ishtirokchilari soni avvalgi yilga qaraganda yuz nafarga ko‘paydi, g‘oliblar esa 55 nafarni tashkil etdi. Bu masalaga Harakatning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va Buxoro, Qashqadaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari kengashlari etarli e‘tibor qaratmagani bois 18 ta oliy ta‘lim muassasasidan stipendiyaga munosib nomzodlar aniqlanmadi.¹³⁶

2014 yildan boshlab Harakatning xududiy kengashlari qoshida «Munozara» to‘garaklari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mazkur to‘garaklarning oltmish nafar kordinator va trenerlari uchun o‘quv seminar tashkil etilib, malakasi oshirildi. Ayni paytda to‘garaklarga ikki ming nafardan ortiq yigit-qiz jalb etilgan. Yoshlarning iqtidorini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida 2015 yilda ham qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. SHuningdek, yoshlarning talab va istaklaridan kelib chiqib voleybol bo‘yicha qizlar o‘rtasida «Kamolot oltin to‘pi» musobaqasi, oliy ta‘lim muassasalari hamda korxona, tashkilot va muassasalaridagi xotin-qizlar o‘rtasida engil atletika bo‘yicha «Bahor malikalari» musobaqalarini tashkil etish belgilab olindi. Harakat tomonidan salomatlik va ekologiyaga doir bir qator loyihalar amalga oshirilib, 800 ming nafardan ortiq yosh qamrab olindi. Bu boradagi ishlarning asosiy qismini «tengdosh-tengdoshga» usuli asosida olib borilgan targ‘ibot tadbirlari, xususan, mini sessiyalar, seminarlar tashkil etadi. Jumladan, BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Yoshlar orasida OIV/OITS, giyohvandlik va turli xil yo‘llar orqali yuqadigan kasalliklarning oldini olish», «Yoshlar chekishga qarshi!», «Toza qo‘llar», «Yoshlar EKO hayotni tanlaydi» loyihalari hamda «Har bir yoshga bir nihol»,

¹³⁶ Kamolot” YoIH ning 2011-2014 yillardagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobotidan

«Yashil patrul» aktsiyalari o'tkazildi. Yuqoridagi tadbirlar orqali mavzuga doir tarqatma materiallarni ta'lim muassasalari va mahallalar hududlariga joylashtirishga alohida e'tibor qaratildi. «Ekologik madaniyat» oyligi doirasida yurtimiz yoshlari ko'kalamzorlashtirish ishlariga jalb etilib, 70 mingdan ziyod mevali, 290 mingdan ziyod manzarali daraxt va 200 mingdan ziyod gul ko'chatlari ekishda faollik ko'rsatdi.

Yoshlar tashkiloti faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda kadrlar muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, Harakat tizimidagi barcha hududiy kengashlarda qirq to'rtta vakant o'rin borligi aniqlandi. Har yili Harakat tizimidagi kadrlar malakasini oshirib borish uchun muntazam o'quv-seminarlar tashkil etib kelinmoqda. 2014 yilda to'qqizta ana shunday o'quvlar tashkil etilib, unda 445 nafar rahbar va mas'ul xodim malakasini oshirdi. O'tgan yili ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida «Kamolot» YOIH tizimidagi xodimlar uchun to'rt oylik boshqaruv kadrlarni qayta tayyorlash kurslari tashkil etildi. SHu orqali yilda ikki mavsumda Harakat tizimidagi xodimlarning malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yildi.

Harakat tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan futbol bo'yicha «Kamolot» kubogi», qizlar o'rtasida stol tennisi bo'yicha «Kamolot» malikasi», badiiy gimnastika bo'yicha «Kamolot» g'unchalari», shaxmat bo'yicha «Kamolot» shaxmat taxtasi» hamda «Kamolot» yoshlar velomarafonining respublika bosqichlari yildan-yilga yuqori saviyada tashkil etilayotganini alohida ta'kidlash o'rinli. Bu borada muayyan tizim yaratilgan. Afsuski, sport musobaqalarning quyi bosqichlarini o'tkazishda Harakatning hududiy kengashlari tomonidan hamon qator kamchiliklarga yo'l qo'yib kelinmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi futbol bo'yicha «Kamolot» kubogi» musobaqasida Andijon, Namangan, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrining ayrim jamoalari tomonidan loyiha nizomiga zid ravishda bellashuvga professional futbolchilar jalb etilgan.¹³⁷ Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'rtasida o'tkazilayotgan

¹³⁷ Kamolot" YoIH ning 2011-2014 yillardagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

musobaqaning quyi bosqichlarida esa Qashqadaryo (88ta), Fargʻona (105ta) viloyatlaridagi aksariyat taʼlim muassasalari ishtirok etmagan. SHuningdek, korxona, tashkilot va muassasalar oʻrtasida oʻtkazilgan minifutbol boʻyicha «Kamolot» kubogi» musobaqasining quyi bosqichlarida boshlangʻich tashkilotlar ishtirokini taʼminlashda Harakatning Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari kengashlari tomonidan sustkashlikka yoʻl qoʻyilgan. Yanada achinarlisi, «Kamolot» yoshlar velomarafonining mahalliy bosqichlari Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrining ayrim tuman va shaharlarida umuman oʻtkazilmagan. Forumlarda bildirilgan takliflar asosida Harakatning oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalaridagi boshlangʻich tashkilot etakchilari va sardorlariga ustama ish haqi toʻlash tartibi takomillashtirildi. Unga koʻra, joriy yildan boshlab oliy taʼlim muassasasidagi boshlangʻich tashkilot etakchilari eng kam ish haqining uch baravari, fakultet sardorlari bir baravari, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalaridagi boshlangʻich tashkilot etakchilari ikki baravari miqdorida ustama ish haqi olishi belgilandi. Ushbu masala Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarining ayrim tuman va shaharlarida oʻrganilganda, ustama ish haqi etakchilarga asossiz toʻlanayotgani aniqlangan¹³⁸. Harakatning 2014 yil uchun belgilangan ish rejasi va dasturiy so-halar asosida bir qator ishlar amalga oshirilib, 2013 yilning ushbu davriga nisbatan yuqori koʻrsatkichlarga erishildi. Jumladan, Harakat tizimida faoliyat koʻrsatayotgan masʼul xodimlar tarkibi taxlil qilib chiqilganda, oliy maʼlumotga ega boʻlgan xodimlar 2014 yilda 62,4 foizga (toʻrt nafarga) yetganligini koʻrishimiz mumkin, oʻrta maxsus maʼlumotga ega boʻlganlar esa 37,5 foizga (olti nafarga kam) etgani oʻrta maʼlumotli xodimlar soni tizimda qolmagani aniqlandi. Kun tartibiga qoʻyilgan masalalar koʻrib chiqilgach, Harakatning 2015 yilga moʻljallangan ish rejasi tanishtirilib, muhokama etildi. Bildirilgan fikr-mulohazalar inobatga olinib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

¹³⁸ Kamolot” YoIH Respublika Kengashining 2011-2014 yillardagi faoliyati toʻgʻrisidagi hisobotidan

3.2 Xorazmda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati

2001 yil may oyida tashkil etilgan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyati Kengashi, bugun mana o'n to'rt yildirki jamiyat hayotida munosib o'rin egallash, mamlakatni isloh qilish va yangilash jarayonlarida belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida hal qiluvchi kush va tayanchga aylanishga qodir barkamol avlodni, mustaqil fikrlovchi, shaxsiy hayotiy pozitsiyasiga va o'z nuqtai nazariga ega yoshlarni shakllantirish; yosh avlodning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga ko'maklashish; yigit va qizlarning kasbiy mahoratini yuksaltirish va ularning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yaratishda munosib ishtiroki bilan amaliy faoliyat olib bormoqda.

Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida yoshlarga oid Davlat siyosatining huquqiy asoslari:

- “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”¹³⁹gi qonun;
- “Ta'lim to'g'risida”¹⁴⁰gi qonun;
- “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”¹⁴¹;
- Vazirlar Mahkamasining 2012 yildagi 37-sonli hamda 2013 yildagi 57-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”¹⁴²gi bayonlari bilan tasdiqlangan dasturlaridir.

¹³⁹ “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi qonun 20.08.1991-y O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Axborotnomasi N 2, 80-modda, 1992 yi

¹⁴⁰ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

¹⁴¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

Mana shu yillar davomida harakatning 5 ta Konferensiyasi o'tkazilib, ularda Konferensiyalar oralig'idagi faoliyati tahlil qilindi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati viloyatimiz yoshlarining, qolaversa, ko'plab davlat va nodavlat tashkilotlarining e'tirofiga sazovor bo'lishga erisha oldi.

Bugungi kunda Xorazm viloyati aholisi 1677309 (2011 yil-1561588 va 2012 yil-1643701)ning qariyb 43 foizini 10 yoshdan 30 yoshgacha (721245) bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

Hozirda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining viloyat, shahar va tuman Kengashlarida 77 nafar hodimlar mehnat qiladi, ularning 85 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

Harakatning viloyatdagi 793 ta (2011 yil-768 va 2012 yil-790) boshlang'ich tashkilotlari 186814 nafar (2011 yil-176045 nafar va 2012 yil-181324) a'zolarni o'z safida birlashtirgan.¹⁴³

Hususan: Maktablarda 524 ta, akademik litseyida 6 ta, kasb-hunar kollejida 85 ta, oliy ta'lim muassasalarida 3 ta, qishloq xo'jaligi sohasida 11 ta, harbiy vatanparvarlik sohasida 14 ta hamda korxona, tashkilot va muassasalarida 150 ta boshlang'ich tashkilotlari mavjud.

Shuningdek, harakatning 60 ta yirik boshlang'ich tashkilotlari etakchilariga qo'shimcha ish haqi sifatida pul mablag'lari "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining Xorazm viloyati Kengashi tomonidan to'lanmoqda.

Har bir yurtning shonu- shavkati, kuch qudrati, shu yurt farzandlarining salohiyatiga bog'liq. Bugun harakat tarkibida uning homiyligi asosida faoliyat ko'rsatayotgan "Kamalak" Bolalar tashkiloti safida 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 160 ming nafardan ortiq yoshlar birlashgan.

"Kamalak" Bolalar tashkiloti tizimida Sardorlar Kengashining faoliyati yo'lga qo'yilishi bilan viloyatning 30 mingga yaqin iste'dodli, izlanuvchan, tashabbuskor yoshlari uning saflariga birlashdilar.

¹⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2014 yil 6 fevral, PQ-2124-son

¹⁴³ "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

Harakat faoliyatiga yaqindan ko'maklashish, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida 2007 yilda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyatining Vasiylik Kengashi tuzilgan edi. O'tgan davr mobaynida hududiy Vasiylik Kengashining 140 (2011 yil-20, 2012 yil-53 va 2013 yil-67) marotaba yig'ilishlari o'tkazilib, ularda yoshlarning muammolari aks etgan masalalar muhokama etilib tegishli qarorlar qabul qilindi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 4 martdagi "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"¹⁴⁴gi 57-son yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan Dasturga asosan, viloyatimizda ko'plab tanlovlar, sport musobaqalari, aksiyalar va loyihalar samarali tashkil etildi.

Misol uchun, mazkur Dasturning 34-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iste'dodli va ijtimoiy faol talaba yoshlar uchun "Talabalar bahori -2013" festivali Xorazm viloyatida yuqori saviyada tashkil etildi. Festival doirasida ko'plab tadbirlar tashkil etilib, 3 mingdan ziyod yoshlar qamrab olindi.

Shu bilan birga 2013 yil 7 sentyabr kuni "Yoshlar ko'li" dam olish maskanining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda respublikamizning barcha hududlaridagi faol va iqtidorli yoshlar - davlat mukofotlari, Prezident va nomdor Davlat stipendiyalari sovrindorlari, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati yetakchilaridan iborat targ'ibot gurulari ishtirok etdi.

Ochilish marosimida xalq sayli tashkil qilinib, milliy va sport o'yinlari, milliy hunarmandchilik buyumlari, yosh tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, yosh musavvirlar san'at asarlari ko'rgazmalari, ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Saylga taniqli honandalar ishtirokidagi gala-konsert o'zgacha shukuh bag'ishladi. Tadbirlarda 2500 dan ziyod yoshlar qamrab olindi. Shunisi quvonarliki, viloyat hokimining 2013 yil 30 dekabrda 308-sonli qarori¹⁴⁵ binoan "Yoshlar ko'li" dam olish maskani "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashi balansiga berildi.

¹⁴⁴ Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 4 martdagi "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida 57-son yig'ilish bayoni materiallari

¹⁴⁵ Xorazm viloyat hokimining 2013 yil 30 dekabrda 308-sonli qarori

Albatta bu yo'lda Vasiylik Kengashining e'tibori, g'amxo'rliqi va ko'makdoshligi safimizning boshida turishi bizga katta kuch-qudrat bag'ishlaydi.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyati Kengashining bevosita tashkilotchiligida yoshlarning turli muammolarini echish, ularning manfaatlarini himoya qilish, iste'dodlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan viloyat miqyosida ko'rik-tanlovlar, seminarlar va sport musobaqalari tashkil etilib muvaffaqiyat bilan o'tkazib kelinmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida faol ishtirokini ta'minlash sohasi

Yoshlarga davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosiy islohotlarning mazmun mohiyatini tushuntirish, ularda siyosiy dunyoqarashni shakllantirish, huquqiy bilimlarini oshirishni Dasturiy vazifalari deb bilgan harakatning Xorazm viloyati Kengashi hamda viloyatimizdagi huquq-tartibot idoralari bilan birgalikda “Siz qonunni bilasizmi?”, “Huquq bilimdonlari” ko'rik-tanlovlari, “O'z huquqingizni bilasizmi?”, “Qonun ustivorligi - jamiyat rivoji”, “O'z huquqingdan unumli foydalan”, “Inson huquqlari-eng oliy qadriyat”, “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - jamiyat faravonligi va taraqqiyotining huquqiy kafolati” kabi loyihalarni amalga oshirmoqda.

Ushbu loyihalar yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlash, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida zarur bilim va ko'nikmalarni orttirishiga hizmat qiladi.

Soha bo'yicha “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyati tomonidan o'tgan yilllar ya'ni 2011-2013 yillar davomida jami 1518 ta (2011 yil - 359ta, 2012 yil - 514 va 2013 yil - 645) tadbirlar tashkil etilgan. Tashkil etilgan tadbirlarga viloyatimizning 235799 nafar (2011 yil - 58930 nafar, 2012 yil - 75688 nafar va 2013 yil - 101181) yoshlari jalb qilindi.¹⁴⁶

¹⁴⁶ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

Chekka qishloq va mahallalarda istiqomat qilayotgan yoshlarimizga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarining mazmun mohiyatini tushuntirishga qaratilgan 540 ta davra suhbatlari, ularning tub mohiyati, uning ma'naviy hayotimizda tutgan o'rnini tushuntirishga qaratilgan 460 ta bahs munozaralar, ochiq muloqotlar va davra suhbatlari tashkil etildi.¹⁴⁷

Ushbu tadbirlar orqali harakatning Horazm viloyati Kengashi tavsiyasiga asosan 2011 yil davomida 44 nafar, 2012 yil davomida 42 nafar hamda 2013 yil davomida 55 nafar yoshlar IIB profilaktik hisobidan chiqarildi.

“Siz qonunni bilasizmi?” ko'rik-tanlovida har yili o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining 19 ming nafardan ortiq talabalari ishtirok etib kelmoqdalar. Jumladan, 2013 yilda o'tkazilgan ushbu ko'rik-tanlovning Respublika bosqichida Bog'ot maishiy hizmat va ahborot tehnalogiyalar kasb-hunar kollejining “qalqon” jamoasi fahrli 3-o'rinni egalladi.

Ma'naviy-ma'rifiy sohada

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi tadbirlar “Ajdodlar merosi - kelajak poydevori”, “Milliy o'yinlar” festivali, “Mahallam tarixini o'rganaman”, “Tarihiy qadamjolarga sayohat”, “Eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi”, “Uch avlod uchrashuvi”, “Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar” kabi loyihalar doirasida amalga oshirilmoqda.

Soha bo'yicha “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyati tomonidan o'tgan yil ya'ni 2011-2013 yillar davomida jami 2308 ta (2011 yil - 635ta, 2012 yil - 830 va 2013 yil - 843) tadbirlar tashkil etilgan. Tashkil etilgan tadbirlarga

¹⁴⁷ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

viloyatimizning 530874 nafar (2011 yil - 130862 nafar, 2012 yil - 199276 nafar va 2013 yil - 200736) yoshlari jalb qilindi.¹⁴⁸

“Ajdodlar merosi-kelajak poydevori” ko'rik-tanlovida har yili umumta'lim maktablarining 11000 nafardan ortiq o'quvchilari ishtirok etib kelmoqdalar.

O'tgan davr mobaynida “Shunqorlar” harbiy-sport musobaqasi ham o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu musobaqalarga 11 ta jamoaning 550 nafar talaba yoshlari 15 shart bo'yicha o'zaro bellashdilar. Musobaqaning Respublika bosqichida 2012 yil Olimpiya zahirolari kollejining “Pahlavonlar” jamoasi qatnashib fahrli 3-o'rinni egallashdi.

Har yilgi an'anaga muvofiq “Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqasi o'tkazilmoqda. Ushbu musobaqaning viloyat bosqichida 11 ta jamoaning 500 nafar talaba yoshlari 14 shart bo'yicha o'zaro bellashdilar. Musobaqaning Respublika bosqichida 2013 yilda Yangibozor tumani Iqtisodiyot kollejining “Lochin” jamoasi qatnashib fahrli 3-o'rinni egallab qaytishgan.

Yosh avlod qalbi va ongiga Ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zining katta hissasini qo'shib kelayotgan “Eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi” ko'rik-tanlovida 250 nafardan ortiq yosh targ'ibotchilar ishtirok etdilar. 2012 yil ishtirok etgan yoshlardan “Xorazm haqiqati” va “Horezmskaya pravda” gazetalari birlashgan tahririyati mas'ul hodimi Karriev Shonazar tanlovning Respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi munosabati bilan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan 2011-2013 yillar davomida o'tkazilgan “Biz buyuk yurt farzandlarmiz” shiori ostidagi yoshlar festivallari doirasida “Ommaviy tahdidlar va yoshlar ma'naviyati”, “Deputat va yoshlar”, “Prezident asarlari bilimdoni”, “Hokim va yoshlar”, “Istiqlol iste'dodlari”, “Siz sevgan qahramonlar” va “Zamonamiz qahramonlari”, “Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!”, “Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin” targ'ibot loyihalari hamda “Vijdonli sotuvchi” aksiyasi, “Bo'sh ish o'rinlar” va “Kitob savdosi” kabi

¹⁴⁸ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

1200 dan yarmarka va tadbirlar tashkil etilib, ularga 160 mingga yaqin yoshlar jalb qilindi.¹⁴⁹

Festivallar doirasida 2011-2013 yillar mobaynida tashkil etilgan viloyatimizning mahalliy va hududiy hokimlari bilan 487 ta (2011 yil - 113 ta, 2012 yil - 226 ta va 2013 yil - 148 ta) “Hokim va yoshlar” loyihasi tashkil etildi. Tashkil etilgan ushbu loyiha doirasida davlatimiz tomonidan yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlarni keng targ'ib etish, yoshlarning islohotlar jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, ularning muammolarini aniqlash va bartaraf etish hamda orzu-intilishlari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Uchrashuvlar doirasida viloyatimizning turli sohalaridagi 6500 nafardan ortiq yoshlari ishtirok qilishdi.

Harakatning viloyat Kengashi tomonidan viloyat televideniyesi va radiosi hamda xususiy telekanallar orqali ma'naviy va mafkuraviy ishlar targ'ibotini keng yo'lga qo'yish maqsadida “Kamolot” olamida”, “Kamolot malikasi”, va “Eng dolzarb mavzularda suhbatlashamiz” mavzularida tele-dasturlari tashkil etildi.

Soha bo'yicha “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyati tomonidan o'tgan yilllar ya'ni 2011-2013 yillar davomida jami 1021 ta (2011 yil - 198ta, 2012 yil - 336 va 2013 yil - 487) tadbirlar tashkil etilgan. Tashkil etilgan tadbirlarga viloyatimizning 175614 nafar (2011 yil - 35636 nafar, 2012 yil - 60106 nafar va 2013 yil - 79872) yoshlari jalb qilindi¹⁵⁰.

Yoz mavsumida yoshlarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish, ularni ijtimoiy himoyalash maqsadida oliy o'quv yurtlari talabalari hamda mahalla yoshlaridan iborat “Bunyodkor” yoshlar mehnat harakati tashkil etib kelinmoqda. 2011-2013 yillar davomida mazkur harakat atrofida 8975 nafar (2011 yil - 2508 nafar, 2012 yil - 3558 nafar va 2013 yil - 2909) talaba va yoshlar shahar va tumanlarda qurilib ishga tushirilayotgan zamonaviy qurilish ob'ektlari, g'isht zavodlari va qishloq ho'jaligi sohalarida mehnat qildilar.

¹⁴⁹ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹⁵⁰ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

Markazlarda tashkil etilgan 15 ta to'garak faoliyatida 4890 nafar (2011 yil - 1625 nafar, 2012 yil - 1613 nafar va 2013 yil - 1652) yoshlar kasb sir-asrorlarini o'rganib hayotga yo'llanma oldilar.

Shu o'rinda har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan “Eng namunali yoshlar ijtimoiy xizmatlari markazlari” Respublika tanlovida harakatning Shovot tumani Kengashi fahrli 3-o'rinni egalladi.

2011-2013 yillar davomida halq ta'limi, o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda umumta'lim maktablari bitiruvchilarining kasb-hunar muassasalari va akademik litseylarga to'liq qamrab olish maqsadida o'tkazilgan “Mutahassislik - sening kelajaging” ko'rgazmasida viloyatdagi 86 ta o'rta mahsus kasb-hunar kollejlari va 5 ta akademik litseylari o'zlarida tashkil etilgan 110 ta yo'nalishlari bo'yicha ko'rgazmalarini namoyish etdilar. Viloyat bo'yicha mazkur ko'rgazmalarda 532 ta, umumta'lim maktablari bitiruvchilarining 91170 nafardan ortiq (2011 yil - 30060 nafar, 2012 yil - 30090 nafar va 2013 yil - 30140) o'quvchilari qamrab olindi.

“Yosh tadbirkor - elga madadkor”, “Yosh tadbirkor - kelajakka poydevor” tanlovlari orqali 210 nafar yosh tadbirkorlarga 63 mln. so'm miqdorida imtiyozli kredit olishlarida amaliy yordam ko'rsatildi. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashi qoshida “Yosh tadbirkor konsultatsiv markaz”i tomonidan 1200 nafar (2011 yil - 359 nafar, 2012 yil - 362 nafar va 2013 yil - 479) yosh tadbirkorlarga biznes reja tuzishda amaliy yordam ko'rsatildi va hamkor banklardan imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha tavsiyanomalar berildi.

Shundan 32 nafariga jami 160 mln. so'm miqdorda imtiyozli kreditlar ajratilib, ular tomonidan 100 ta yangi bo'sh ish o'rinlari yaratildi. Shuningdek, o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari orasida kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida “Mening biznes loiham” hamda “Diplom bilan biznesga” tanlovlari o'tkazildi. Mazkur tanlovlar orqali 845 nafar ortiq kollej o'quvchilari hamda uyushmagan yoshlarni tadbirkorlik, Davlat

ro'yhatidan o'tish va biznes loyihalarni ishlab chiqish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirildi.¹⁵¹

Viloyatimizdagi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda o'tgan yillar mobaynida 16-30 yoshgacha bo'lgan yoshlardan 159 nafari (2011 yil - 40 nafar, 2012 yil - 50 nafar va 2013 yil - 69)ga 5161,8 mln (2011 yil - 262,4, 2012 yil - 2045,6 va 2013 yil - 3116,2) so'mlik ipoteka hamda 1600 nafari (2011 yil - 33 nafar, 2012 yil - 1118 nafar va 2013 yil - 449)ga 11946,3 mln (2011 yil - 1805, 2012 yil - 7205,9 va 2013 yil - 2935,4) so'mlik iste'mol kreditlari ajratilgan. Undan tashqari, viloyatimizda joylashgan oliy ta'lim muassasalarining 708 nafar shartnoma asosida tahsil olayotgan yoshlariga 2128,2 mln so'mlik ta'lim kreditlari berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 31 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ 213-sonli qarori¹⁵² asosida, harbiy qism tavsiyanomasiga asosan, Xorazm viloyatidagi oliy o'quv yurtlariga imtiyozli, to'lov-kontrakti asosida qabul qilingan yoshlarga, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi tomonidan 2006 yildan buyon to'lov kontraktining 35 foizi moddiy yordam tariqasida o'tkazib berilmoqda.

Iste'dodli yoshlarning ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlash sohasi

Yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash sohasida harakat tomonidan “Yurt kelajagi”, “Kamalak yulduzlari”, “Yosh loyihachi me'mor”, “Kamolot” sizga qanot”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Kamolotdan yangi tuhfa” loyihalari amalga oshirilmoqda.

Jumladan: soha bo'yicha “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyati tomonidan o'tgan 2011-2013 yillar davomida jami 932 ta (2011 yil - 213 ta, 2012 yil - 278 ta va 2013 yil - 441 ta) tadbirlari tashkil etilgan. Tashkil etilgan

¹⁵¹ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹⁵² 2005 yil 31 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ 213-sonli qarori

tadbirlarga viloyatimizning 215080 nafar (2011 yil - 35073 nafar, 2012 yil - 69488 nafar va 2013 yil - 110519 nafar) yoshlari jalb qilindi.

Bolalarning ijodiy iqtidori va qobiliyatini barvaqt aniqlash uchun sharoit yaratish va qo'llab-quvvatlash maqsadida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazib kelinayotgan “Yurt kelajagi” ko'rik-tanlovi, “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivali bugun yoshlarimizning tom ma'nodagi sevimli ko'rik-tanlovlariga aylanib ulgurdi. Buni biz mana shu o'tgan yillar davomida yoshlarimizning qiziqishlari va ishtiroklaridan ham bilishimiz mumkin. 2011-2013 yillar davomida mazkur tanlovlarda 12000 nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdilar. O'tgan yillar mobaynida “Kamalak yulduzlar” festivalining Respublika bosqichida 21 nafar (2011 yil - 5 nafar, 2012 yil - 8 nafar ta va 2013 yil - 8 nafar) hamda “Yurt kelajagi” ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida 20 nafar (2011 yil - 4 nafar, 2012 yil - 6 nafar va 2013 yil - 10 nafar) yoshlarimiz g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Harakatning tavsiyasi asosida turli yo'nalishlarda o'z ijodi bilan namuna ko'rsatgan 85 nafar qizlarimiz “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti, milliy va estrada janrida ijod qilayotgan 15 nafar san'atkor yoshlarimiz “Nihol” nomidagi Davlat mukofoti tanlovlarida ishtirok etdilar. 2011 yil SHahlo Solaeva, 2012 yil Matkarimova Dilrabo hamda 2013 yil Rohatova Sabohatlar “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofotini o'z ko'ksilariga taqishdi. 2011-2013 yillar mobaynida Xorazm viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari ishtirokida “Quvnoqlar va zukkolar” ko'rik-tanlovi muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda. O'tgan yillar mobaynida ushbu ko'rik-tanlovning saralash bosqichlarida jami 85 ta o'rta-mahsus, kasb-hunar kollejlari, 6 ta akademik litseylari hamda 3 ta oliy ta'lim muassasalari qatnashdilar. Mazkur ko'rik-tanlovlarda 2500 nafar talabalar ishtirok etdilar, 15000 nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi.

Shu o'rinda Xorazm viloyatida oliy ta'lim muassasalari talaba yoshlari ishtirokida o'tkazilgan “Talabalar bahori” festivali doirasida o'tkazilgan “Quvnoqlar va

zukkolar” ko'rik-tanlovida Urganch davlat universitetining “Yoshullilar” jamoasi tanlov kubogini qo'lga kiritdi.¹⁵³

O'tgan yillar mobaynida umumta'lim, o'rta mahsus, kasb - hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasalari hamda korxona va tashkilotlardagi harakatning 793 ta boshlang'ich tashkilotlari etakchilari ishtirokida “Eng namunali boshlang'ich tashkilot” ko'rik - tanlovlari tashkil etildi.

Shu o'rinda Urganch davlat universiteti “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti Respublikamizda mavjud 71 ta oliy ta'lim muassasalari o'rtasida “Eng namunali boshlang'ich tashkilot” tanlovida 1-o'rinni egalladi va shu qatori ta'lim muassasasi boshlang'ich tashkilot etakchisi Abdrimov Bekzod “Eng yosh ma'naviyat targ'ibotchisi” nominatsiyasi bilan taqdirlandi.¹⁵⁴

Sport va o'sib kelayotgan avlodning jismoniy tarbiyasini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasi

Sport va jismoniy tarbiya, yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasida “Kamolot-tur” milliy yoshlar velomarafoni, qizlar o'rtasida stol tennis bo'yicha “Kamolot” malikasi”, badminton bo'yicha “Kamolot” kubogi”, “Kamolot” shahmat tahtasi” musobaqalari, “Shunqorlar” harbiy sport musobaqasi, sportning karate va milliy kurash turlari bo'yicha “Kamolot niholi” musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda.¹⁵⁵

Jumladan: Soha bo'yicha “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyati tomonidan o'tgan yillar ya'ni 2011-2013 yillar davomida jami 1385 ta (2011 yil - 328ta, 2012 yil - 460ta va 2013 yil - 597ta) tadbirlari tashkil etilgan. Tashkil etilgan tadbirlarga viloyatimizning 227070 nafar (2011 yil - 52992 nafar, 2012 yil - 64794 nafar va 2013 yil - 109284) yoshlari jalb qilindi.

Harakatning Markaziy Kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan “Yoshlar o'rtasida OIV/OITS, giyohvandlik va jinsiy yo'l orqali yuqadigan kasalliklarini oldini olish”

¹⁵³ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹⁵⁴ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹⁵⁵ Xorazm viloyat Kengashining 2011-2014 yillardagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

hamda “Yoshlar chekishga qarshi” loyihalari tashkil etildi. Loyihalar tomonidan tashkil etilgan mini sessiyalarga 2500 nafardan ortiq yoshlar jalb qilindi.

Viloyat Xotin-qizlar qo'mitasi, viloyat Sog'iqlik saqlash boshqarmasi, viloyat Salomatlik institutining bo'limlari hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, sog'lom avlodni voyaga etkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish borasida mahallalarda va ta'lim muassasalarida “Sog'lom ona – sog'lom bola”, “Sog'lom oiladan sog'lom farzand tug'iladi”, "Sog'lom turmush tarzi-kelajak poydevori" mavzularida 145 uchrashuv va davra suhbatlari, “Yoshlar sog'lom turmush tarzini tanlaydi” shiori ostida 50 dan ortiq insholar va rasmlar tanlovlari tashkil etildi.

Harakatning viloyat Kengashi tashabbusi bilan an'anaviy tarzda Urganch shahrida sportning Oyama Kiokushinkay-kan karate, milliy kurash, taekvando turlari bo'yicha o'tkazilgan “Kamolot” nihollari” sport musobaqalariga 25 000 nafar yoshlar qamrab olindi.

8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'quvchi-qizlar o'rtasida sportning stol tennisi turi bo'yicha “Kamolot malikasi” musobaqasi o'tkazildi. Musobaqaning mahalliy bosqichlaridan jami 55000 nafar qiz bolalar hamda viloyat bosqichida jami 250 nafar qiz bolalar qatnashishdi.¹⁵⁶

Yoshlarni sport musobaqalariga ommaviy ravishda jalb qilish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, o'zaro madaniy-sport aloqalarini yo'lga qo'yish, sportning velosport turini ommaviylashtirish maqsadida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan havaskor velosportchilar o'rtasida o'tkazilib kelinayotgan “Kamolot-TUR” milliy velomarofon musobaqasida o'tgan yillar mobaynida viloyatimizning barcha shahar va tumanlaridan 750 nafarga ortiq maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari yoshlari hamda korxona tashkilotlarning hodimlari, mahallalardagi uyushmagan yoshlar ishtirok etishdi.

¹⁵⁶“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek; “Hech bir narsa mamlakatni sportchalik dunyoga tezda tanita olmaydi”. Vohamiz yoshlari ham sport sohasida yuksak natijalarga erishib jahon, osiyo va xalqaro musobaqalarda qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, sportning dzyudo turi bo'yicha Xitoyda o'tkazilgan Osiyo birinchiligida Nurmetova Tursunposhsha 3-o'rinni va Bangkokda o'tkazilgan osiyo chempionatida Matniyazova Gulnoza 1-o'rinni, chim ustida xokkey bo'yicha Malayziyada o'tkazilgan xalqaro turnirda Yo'ldasheva Dinora 3-o'rinni, engil atletika bo'yicha MDH davlatlari olimpiya zaxiralari kollejlari xalqaro matchida Ernafasova Feruza, Davletyarova Laylo, Pulatova Shohista va Xudayberganova Nodiralar 1-o'rinni, gandbol bo'yicha xalqaro trafeya kubogi bo'yicha Islomov Rajabboy, Husinov Hushnudlar 1-o'rinni, Italiyaning Florensiya shahrida o'tkazilgan osiyo birinchiligida Mahmudov Umrbek, Botirov Rustam va Hodjiev Farruhlar 3-o'rinni, boks bo'yicha Rossiyaning Ufa shahrida o'tkazilgan xalqaro turnirda Ismoilov Abdurasul 1-o'rinni, sambo bo'yicha osiyo chempionatida Ataboev Ibodulla 2-o'rinni egallashdi. Viloyat yoshlarini jahon arenalarida mamlakatimiz bayrog'ini yuqori ko'tarib, sovrindor bo'lishlarida harakat tashabbusi bilan o'tkazilib kelinayotgan sport musobaqalarining ham o'rni beqiyos albatta.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyati va mahalliy Kengashlari faoliyatida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar

1. Harakatning hududiy va mahalliy Kengashlari binolari bilan bog'liq masalalar bo'yicha (hududdagi va har bir mahalliy Kengashlar joylashuvi bilan bog'liq muammolari, jumladan, xonalar etarligi, ta'mir talabliligi ijara haqi to'lanishi yuzasidan, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar)¹⁵⁷:

- Harakatning Gurlan, Xiva, Yangibozor, Urganch shahar va viloyat Kengashidan boshqa barcha tuman Kengashlari binolari hokimliklar binosida joylashganligi;
- Harakatning Yangibozor va Urganch tumani Kengashlarida xona etishmasligi;

¹⁵⁷ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

2. Harakatning hududiy va mahalliy Kengashlari qoshida tashkil etilgan YOIHMLar hamda mavjud “Yoshlar markaz”larining faoliyati va moddiy texnik bazasi bilan bog’liq masalalar (binolar holati, to’garaklar faoliyatini samarali tashkil qilishga yaratilgan sharoitlar to’g’risida va boshqa muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar)¹⁵⁸:

- Harakatning Urganch tuman Kengashi qoshidagi YOIHM da xona etishmasligi. Urganch shahar Kengashi qoshidagi YOIHM alohida binoda joylashganligi, shuningdek viloyat Madaniyat va sport boshqarmasi binosida joylashgan bo’lib yoshlarni erkin kirib chiqishlari uchun muammolar bo’layotganligi.

3. Boshlang’ich tashkilot faoliyatini samarali tashkil qilish bilan bog’liq, masalalar, ular orasidagi kadrlarning qo’nimsizligi, ularning moddiy texnik bazasi va boshqalar bo’yicha taklif¹⁵⁹:

- Boshlang’ich tashkilot etakchisi shtatlar jadvaliga kiritilmayotganligi va moddiy rag’batlantirilmayotganligi.

Amalga oshirilayotgan ishlarimizda viloyatimizda faoliyat yuritayotgan davlat va jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamg’armalar, fermerlarning hamkorligi va ko’magi samarali bo’lmoqda. Bu esa viloyat yoshlarining kelgusi hayoti va faoliyati uchun yangidan yangi yutuqlar sari ildam qadam tashlashlarida turtki bo’lsa ajab emas.

Har qanday taraqqiyotning asosi komil insonlarni tarbiyalashda ko’rinadi. Yoshlarimiz bugun ozod va erkin tafakkur qiluvchi, o’z yurtining g’oyalari uchun kurashuvchi, halol mehnat etuvchi, yuksak malakali, savodli va ziyoli bo’lish fazilatlarini qaror toptirsalargina bu yo’ldagi saiy - harakatlarimiz ko’proq samara beradi¹⁶⁰.

¹⁵⁸ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011 hamda 2014 yildagi faoliyati to’g’risidagi hisobotidan

¹⁵⁹ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011 hamda 2014 yildagi faoliyati to’g’risidagi hisobotidan

¹⁶⁰ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011 hamda 2014 yildagi faoliyati to’g’risidagi hisobotidan

Muhtaram Prezidentimiz “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatiga katta umid bog’lab, “Kamolot” “...davlat va yoshlar o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajarishi lozim” degan edilar. Demak bu borada bildirilgan yuksak mas'uliyat va ishonchni to'laqonli oqlash, uning faoliyatini haqiqiy harakatga aylantirish uchun barchamiz jips harakat qilib, uni yana bir pag'ona yuqoriga ko'tarishimiz lozim. O'ylaymanki, bu yo'nalishdagi say-harakatlarda yoshlarimiz “Kamolot” atrofiga birlashib, o'z kuch-g'ayratini ayamaydilar deb umid bildiraman.

3.3. “Kamolot” YoIH UrDU boshlang'ich tashkiloti faoliyati

Har bir jamiyat va xalqning tayanchi - o'sib kelayotgan yosh avlodidir. Mamlakat ravnaqi ko'p jihatdan yoshlarning intellekti, bilimi, intilishlari va ishtiyoqiga bog'liq. O'zbekiston mustaqillikka erishgan birinchi kunlardanoq o'quvchi-yoshlarni munosib tarbiyalash, ularning jismoniy, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy, estetik va tashkilotchilik tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi va “O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”¹⁶¹ qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi, “Ta'lim to'g'risida”¹⁶², “Kadrlar tayyorlash milliy dastur”¹⁶³ larining qabul qilinishi va shu asosda izchillik bilan amalga oshirilayotgan yoshlarga doir davlat siyosatining samarasini bugungi kun yoshlari misolida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati ham yurtimiz aholisining asosiy qismini tashkil qiladigan yoshlarni qo'llab quvvatlaydigan, ularning manfaatlarini himoya qiladigan yoshlar tashkiloti sifatida namoyon bo'lmoqda.

¹⁶¹ “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi qonun 20.08.1991-y O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Axborotnomasi N 2, 80-modda, 1992 yil. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2014 yil 6 fevral, PQ-2124-son

¹⁶² O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

¹⁶³ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

Bugungi kunda yoshlarimizga yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar va rivojlanishlar jadal suratlarda amalga oshayotgan bir paytda jamiyatda mavjud yoshlar muammosi, xususan, ularning qiziqish va manfaatlarini himoya qilish, huquq va burchlarini amalga oshirish, imkoniyat va izlanishlarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq jihatlar ham muhim masalalardan hisoblanadi.

Ana shu masala va echilishi lozim bo'lgan vazifalarni aniq va to'laqonli bajarilishida esa albatta, jamiyat tayanchi deya e'tirof etiladigan yoshlar o'z bilim va tashabbuslari bilan himoya qiladilar. Bunda esa yoshlarni birlashtiruvchi va ularni qo'llab-quvvatlovchi, rivojlantiruvchi va taraqqiy etishida kamarbasta bo'lgan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining ahamiyati ayniqsa e'tirofga loyiq.

“Kamolot” Yoshlar Ijtimoiy harakati Urganch davlat universiteti boshlang'ich tashkiloti 6500 dan ortiq talaba, 120 magistr, 210 nafar ishchi-hizmatchilar, hamda 180 nafar professor-o'qituvchini o'zida birlashtirgan katta kuchga aylangan.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati UrDU boshlang'ich tashkilotining harakat Dasturi, Nizomi va targ'ibot materiallari, ko'rgazmali vositalari universitet binosi hududdagi targ'ibot burchaklariga “Kamolot”ni targ'ib qiluvchi e'lonlar joylashtirilgan. Bu esa ayni paytda yoshlarni jamiyatdagi yangilik va rivojlanishlardan o'z vaqtida xabardor bo'lishlarini taminlaydi.¹⁶⁴

Urganch davlat universiteti “Kamolot” YOIH boshlag'ich tashkiloti o'zining rasmiy veb-sayti (www.urdukamolot.uz) va boshlang'ich tashkilot ta'sisligi ostida “Urganch Universiteti” gazetasiga ega. www.urdukamolot.uz sayti “Urganch Universiteti” gazetasi “Kamolot” YOIH boshlag'ich tashkilotining o'z oldiga qo'ygan rejalari va maqsadlarini amalga oshirishlarida eng muhim vosita bo'lib kelmoqda. Chunki ushbu gazetaning har bir sahifasida yoshlarni ma'naviy ma'rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, chetdan kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat” illatlariga qarshi kurash borasidagi ko'plab maqolalar va ijodga yangi qadam qo'yayotgan yoshlarning iste'dodlarini aniqlash va ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. “Urganch Universiteti” gazetasi ilmiy

¹⁶⁴ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang'ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

faoliyatga qiziqish bildirgan va maqola yozish ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi.¹⁶⁵

“Kamolot” YOIH UrDU boshlang'ich tashkiloti a'zolari “Kamolot” YOIH Markaziy kengashi hamda Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi tomonidan ta'sis qilingan stipendiyalar nomzodlari bo'lib kelmoqdalar. Joriy yilda universitetimizda 1 nafar talaba “Prezident stipendiyasi” nomzodi, 2 nafar talaba “Alisher Navoiy nomidagi” hamda 1 nafar talaba “Mirzo Ulug'bek” nomidagi Davlat stipendiyalari sovrindori bo'lishdi. Mazkur stipendiyalardan tashqari boshlang'ich tashkilot tomonidan tasis etilgan “Kamolot”, “Otanazar Madrahimov”, “Rajab Jumaniyozov”¹⁶⁶ nomli stipendiyalarga har yili 3 nafar talabalar o'z bilim va iqtidorlari bilan sazovor bo'lib kelmoqdalar.¹⁶⁷ Boshlang'ich tashkilot stipendiyalari diplomlari har yili 17 noyabr “Xalqaro talabalar kuni” o'tkaziladigan tadbirda o'z egalariga topshiriladi. Ushbu stipendiyalarning topshirilishi yoshlar izlanish va intilishlarini, qo'lga kiritgan yutuq va natijalarini o'z vaqtida aniqlab, rag'batlantirish va shu orqali yoshlarni yanada faol va jamiyatning ilg'or farzandi sifatida yanada tashabbuskor bo'lishlariga undaydilar.

Boshlang'ich tashkilot qoshida “UrDU PRESSA” informatsion guruhi tashkil etilgan bo'lib, viloyat, shahar, universitetda amalga oshiradigan tadbirlar haqida ma'lumotlar tayyorlab, ularni foto va videolarini www.urdukamolot.uz <<http://www.urdukamolot.uz>>, www.urdu.uz <<http://www.urdu.uz>> hamda <<https://www.facebook.com/>, www.youtube.com <<http://www.youtube.com>> manzillariga joylashtirilib internetda milliy mahsulotlarni ko'paytirishga harakat qilinmoqda. Jumladan UrDU boshlang'ich tashkiloti 3 ta yirik Respublika miqyosidagi tadbirlarni amalga oshirishda mezbonlik qildi. Xorazm viloyatida Respublika miyosida o'tkazilgan “Talabalar Bahori-2013” va “Biz buyuk yurt farzandlarimiz” shiori ostidagi yoshlar ko'lining ochilishi tadbirlari, “XXI- asr

¹⁶⁵ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang'ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹⁶⁶ Manba: urdukamolot.uz internet sayti “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang'ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹⁶⁷ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang'ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

intellektual yoshlar asri” shiori ostidagi yosh olimlar va iqtidorli talabalarning hududiy ilmiy-amaliy anjumanlariga mezbonlik qildi. “UrDU PRESSA” guruhi tomonidan tayyorlangan mahsus disklar barcha tadbirlarda tayyorlanadi va mehmonlarga topshiriladi. Guruh tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning 1 nusxasi boshlang’ich tashkilot arxivida saqlanadi. Mazkur festival va konferensiyalarni internet va mahalliy televideniyalarda yoritib borishda “UrDU PRESSA” guruhi yordamida amalga oshiriladi. Bu kabi yirik loyihalarni targ’ibot va tashviqot qilish albatta mehnat migrasiyasiga tortilgan va chet ellarda o’qish va malaka oshirishda yurgan yoshlarimiz, hamda chet ellik tengqurlarimizga O’zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor va munosabatni ko’rsatib qo’yish va shu orqali ularda Vatanimiz kelajagi ishonchli qo’llarda ekanligini ishontirishdir.¹⁶⁸

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bugungi kunda Respublika miqyosidagi yirik tashkilot sifatida shakllanib, o’zining atrofida millionlab sog’lom fikrli yoshlarni birlashtirdi va ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etmokda. Harakatning bevosita tashkilotchiligida yoshlarning turli muammolarini echish, ularning manfaatlarini himoya qilish, qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan o’nlab ko’rik tanlovlar, konferensiyalar, seminarlar va sport musobaqalari tashkil etilib, muvaffakiyat bilan o’tkazilib kelinmoqda. Jumladan, Universitet “Kamolot” YOIH BTda 2013-2014 yillardagi quyidagi yutuq va natijalarni sanab o’tamiz:¹⁶⁹

1. 2013 yil 28 aprel kuni Toshkent shahrida “Zakovat” VIII festivalida UrDU ning “Kamolot” jamoasi viloyatlari kesimidagi oliy ta’lim muassasalari o’rtasida II o’rinni egalladi.

2. 2013 yil may oyida Buxoro viloyatida oliy ta’lim muassasalari o’rtasida o’tkazilgan “Tafakkur sinovlari” respublika tanlovining hududiy saralash bosqichida Universitetning “Al-Xorazmiy vorislari” jamoasi I o’rinni egalladi.

3. 2013 yil 27-31 may kunlari Xorazm viloyatida o’tkazilgan “Talabalar bahori - 2013” respublika festivali doirasida tashkil etilgan “Zakovat” intellektual o’yinida universitetning “Kamolot” jamoasi I o’rinni egalladi.

¹⁶⁸ “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang’ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to’g’risidagi hisobotidan

¹⁶⁹Manba: urdukamolot.uz internet sayti

4. 2013 yil 27-31 may kunlari Xorazm viloyatida o'tkazilgan "Talabalar bahori - 2013" respublika festivali doirasida tashkil etilgan "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik tanlovida universitetning "Yoshullilar" jamoasi I o'rinni egalladi.

5. 2013 yil 27-31 may kunlari Xorazm viloyatida o'tkazilgan "Talabalar bahori - 2013" respublika festivalining yakuniy natijalari bo'yicha Universitet jamoasi faol ishtirok etgani uchun I darajali diplom bilan taqdirlandi.

6. 2013 yil 5-10 noyabr kunlari Toshkent shahrida "Kamolot" YOIH oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich tashkilotlari o'rtasida o'tkazilgan "Eng namunali boshlang'ich tashkilot etakchisi" tanlovida UrDU boshlang'ich tashkiloti etakchisi B.Abdirimov I o'rinni qo'lga kiritdi.

7. 2013 yil 23noyabr kuni Toshkent shahrida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkazilgan "Tafakkur sinovlari" respublika tanlovining final bosqichida Universitetning "Al-Xorazmiy vorislari jamoasi Respublikaning eng faol jamoasi sifatida taqdirlandi.

8. 2013 yil 23 noyabr kuni Toshkent shahrida "Eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" ko'rik tanlovida "Kamolot" YOIH UrDU boshlang'ich tashkiloti etakchisi B.Abdirimov I o'rin deb topildi.¹⁷⁰

"Kamolot" YOIH Markaziy Kengashi va QVZ federasiyasi tomonidan tashkil etilib kelingan "QVZ" ko'rik tanlovida UrDU "Yoshullilar" jamoasi muhlislarda iliq ta'surotlar qoldirdi. 2013 yilda o'tkazilgan "QVZ" ko'rik tanlovining "Yoshullilar" jamoasi ishtirok etgan barcha o'yinlarda (5 ta) ko'rik talovda eng yuqori ballarni qo'lga kiritdi.

2013 yilda boshlang'ich tashkilot tomonidan Xorazm viloyati hokimligining mahsus bayonnomasi asosida 2 yirik tur loyiha amalga oshirildi. Talabalarning tariximizni o'rganish orqali ajdodlarimizga hurmat bilan qarash, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, yoshlarga tarixiy obida va zamonaviy shaharsozlik an'alarini ko'rsatish, qadim o'tmish va bugungi kundagi Vatanimiz qudratini ko'rsatish maqsadida May oyida "Mustaqillik yoshlarimiz" shiori ostida kam

¹⁷⁰ "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang'ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

ta'minlangan 50 nafardan iborat talabalarni Buxoro - Samarkand - Toshkent yo'nalishi bo'yicha sayohat tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi PQ-1920 sonli qarori¹⁷¹ bilan qabul qilingan "Obod turmush yili" Davlat dasturining 44 bandi ijrosini ta'minlash maqsadida "Kamolot" YOIH Xorazm viloyati Kengashi hamda UrDU hamkorligida universitet talabalaridan iborat guruhlarining "Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston" shiori ostida Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlariga sayohat dasturini amalga oshirildi. Ushbu loyihada 240 nafar talaba ishtirok etdi. Ushbu turistik sayohatning amalga oshirilishida "Kamolot" YOIH Markaziy Kengashi ko'magi va BuxDU, SamDU boshlang'ich tashkilotlarining yordami bilan amalga oshirildi.¹⁷²

Talabalar nafaqat universitetda, balki Urganch shahrini obodonlashtirishda faol ishtirok etadilar. Bunyodkor mehnat harakati faoliyati ham samarali yo'lga qo'yilgan bo'lib ular "Quruvchi", "Agro-otryad", "Targ'ibotchi" guruhlariga berkitilgan holda faoliyat ko'rsatadilar hamda ularning markaziy televideniyalarning informatsion dasturlarida yoritilib kelinmoqda.

O'tgan o'quv yili mobaynida 342 nafar harbiy xizmatni o'tab shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan talabaga BT tavsiyasiga ko'ra Markaziy Kengash tomonidan kontrakt summalarining 35% miqdoridagi mablaq ajratildi.¹⁷³ Mazkur talabalar universitetda va viloyatimizda hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda ijtimoiy yo'nalishdagi tadbirlar tashkil etildi. Yuqoridagi talabalardan "Mobil", "Posbon" guruhleri shakllantirilgan bo'lib, BT tomonidan tashkil etilgan tadbirlarni tashkil etish va tartibni saqlashga yordam beradi.¹⁷⁴

Ushbu say-harakatlarning barchasi zahirida albatta, yurt ravnaqi, mamlakat tinchligi va farovonligini, jamiyatimizning yanada gullab-yashnashi, O'zbekiston yoshlarining jahon yoshlari bilan bimalol bellasha oladigan, turli soha, turli

¹⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi PQ-1920 sonli qarori

¹⁷² "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang'ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹⁷³ "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang'ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan

¹⁷⁴ Manba: urdukamolot.uz internet sayti

yo'nalishlarda o'z bilimi, iqtidori, tashabbuslari, yuqori salohiyati va teran fikrlari bilan o'zga yurt yoshlariga o'rnak bo'lishga, mamlakatimizni yanada rivojlantirishga “Kamolot” YOIH chinakam qanot va tayanch vazifasini o'tamoqda. Zero, buyuklarning avlodlari-buyuklikka intilar.

Xulosa

Jamiyat hech qachon faqatgina o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylaydigan va ko'zlaydigan odamlar toifasidangina iborat bo'lib qolmaydi. Chunki azaldan odamlar umumiy manfaatlarni teran anglash natijasida jamoat bo'lib uyushadi va shu tariqa birgalikda shakllantirgan ijtimoiy talab hamda me'yorlarga asosan faoliyat ko'rsatadi. Ushbu haqiqatni anglash, ayniqsa, hozirgi o'tish davrida nihoyatda muhimdir. Shu bois jamiyat a'zolarini, ayniqsa yoshlarni yagona umumiy maqsad va manfaatlar asosida birlashtirish – milliy g'oya hamda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Milliy g'oyamizni yoshlar ongiga teran singdirib borgan sari, ularning barchasi umumiy maqsad yo'lida o'zaro hamkor va hamjihat bo'lib harakat qiladigan maslakdoshlarga qo'yingki kuchga aylanadi. Harakat avvalo yoshlarda o'z o'zini boshqarish hissini shakllantiradi.

Ma'lumki o'zini – o'zi boshqarish – bu jamoaning mustaqil faoliyat ko'rsata olishidir. Boshlang'ch tashkilotning o'zini – o'zi boshqarishi – bu a'zolarining bevosita ishtirokidagi jamoaviy boshqarishidir. Bunda jamoa a'zolari faqatgina ijrochi bo'lib qomasdan, balki boshqarish jarayonida ham birday ishtirok etadi. Harakat a'zolari o'z faoliyatlari maqsadlarini va bu maqsadga erishish uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni mustaqil belgilaydilar. Natijada boshqaruvchi bilan ijrochi o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosiblik yo'qoladi.

Sir emaski, bugungi kunda yoshlarimizning ijtimoiy muammolari xilma – xil. Ularni hal etish uchun jamiyatimiz bor kuchini safarbar etgan. Ko'pgina ijtimoiy institutlar o'z oldiga yoshlarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali jamiyat uchun foydali shaxslar qilib tayyorlash vazifasini qo'ygan. O'z - o'zidan “Kamolot” ham bundan mustasno emas.

“Kamolot” YoIHning dasturida hamda milliy g'oya bosh tamoyillarida belgilangan asosiy maqsadlardan biri – yoshlarni birlashtirish orqali ularda o'z orzu – umidlari ro'yobga chiqarish hamda ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqishida to'siq

bo'layotgan muammolarni shaxsiy ishtiroki orqali jamoa bilan birgalikda yechish ko'nikmalarini xosil qilishdan iborat. Zamonamiz yoshlarining muammolari nimalardan iborat, deganda, eng avvalo, ijtimoiy muammolarni ko'z oldimizga keltiramiz. Bugungi kunda, muammo–boshlang'ich tashkilotning yoshlar orasida ta'siri kengayishiga to'sqinlik qilayotgan holatdir.

Yolg'iz yetakchi yoki faqat Kengash a'zolari bilan birgalikda barcha muammolarning yechimini toppish qiyinchilik tug'diradi, albatta. “Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar”, degan xalq maqolidan Harakatning har bir a'zosi tegishli xulosa chiqarishlaridan faqat yetakchi, balki o'quv muassasi ma'muriyati hatto fan o'qituvchilari ham alohida e'tibor qaratishlari kerak. Muammoning mohiyati, uni yechish yo'llarini faqat yetakchi yoki fan o'qituvchisi emas, balki yoshlarning takliflari orqali toppish maqsadga muvofiqdir, ya'ni muayyan muammoni yechish bo'yicha g'oyani yoshlarning takliflari asosida shakllantirish lozim. Ushbu g'oyada muammoning kelib chiqishi sabablari, oqibatlari va yechish yo'llari mujassamlashgan bo'ladi. Taklif etilgan g'oyalar muammoning o'zini va yechimini yoshlar ko'zi bilan ko'rishga yordam beradi. Bu esa muammon har tomonlama o'rganish va yechish imkoniyatini yaratadi. G'oyalarni qabul qilish bilan yetakchi hamda fan o'qituvchisi yoshlarning tashabbusini qo'llab-quvvatlagan bo'ladilar, ushbu muammoning hal etilishida istirok etgan bo'lishadi va buning natijasida ularning ishonchini yanada qozonishadi. “Milliy istiqlol g'oyasi” fani hamda “Kamolot” YoIHning tadbirlari yordamida yoshlarda o'ziga ishonch va muammoni hal etish uchun ishtiyoq o'yg'otish kerak. Ya'ni yoshlarda bunyodkor g'oyalarni shakllantirish uchun, Harakat yetakchilari va fan o'qituvchilarining malakalari, bilimlari yordamida yoshlarga yo'l ko'rsatish kerak.

Buning uchun esa, avvalo, fan o'qituvchilarining hamda yetakchilarning o'zlarida sof va bunyodkor g'oyalarni shakllantirish kerak. Chunki muammolar yechimining dastlabki ifodasi- bu g'oyadir. Bunda muammoning mohiyati (kelib chiqish sabablari, oqibatlari va taklif qilinayotgan yechimlari) erkin bayon etiladi.

Yoshlarga beriladigan g'oyalar ularning yoshiga qarab sodda, qisqa va aniq bo'lishi lozim.

Ushbu g'oyalar qo'yidagi mezonlar talabiga javob berishi kerak:

- muaamoning dolzarbligi;
- muammoning ahamiyatliligi;
- o'ziga xosligi (yangiligi);
- qo'shgan hissassi;
- hayotiyligi;
- ma'lumotlar manbasi (adabiyotlar, Internet, OAV)

Milliy g'oyani yoshlarning ongiga singdirishda «Kamolot» YoIH tomonidan hozirda amalga oshirilayotgan qo'yidagi faoliyat turlarini yanada kuchaytirish kerak deb o'ylayman. Buning uchun:

Avvalo, boshlang'ich tashkilotlarda amalga oshirilayotgan loyihalarni yanada jonlantirish kerak va bir necha yangi loyihalarni ishlab chiqishi kerak. Xususan;

“O'quvchilar ongiga milliy g'oyani singdirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish Loyihasi”;

“Yoshlar o'rtasida giyohvandlik, OITSning oldini olishga qaratilgan aksiyalar, uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish Loyihasi”;

“Yoshlarning din to'g'risidagi bilimlarini oshirish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), ayirmachilik (separatizm) kabi illatlarning maqsadlari va oqibatlarini tushuntirishga bag'ishlangan uchrashuvlar, davra suhbatlarini o'tkazish Loyihasi”;

“Tarbiyasi og'irroq yoshlar (a'zolar)ni o'rnak tariqasida jazoni o'tash joylariga (ayniqsa, bolalar koloniyasiga), sud prosesslariga ekskursiyalarga olib boorish Loyihasi”;

“Yoshlar (a’zolar)ni o’rnak tariqasida harbiy qism va muassasalarga (ayniqsa, turli harbiy marosimlar o’tkazilish kunlarida) ekskursiyaga olib borish Loyihasi”;

“Turli sohalarda muayyan yutuqlarga erishgan, davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan yoshlar bilan yoshlarning uchrashuvlarini tashkil etish Loyihasi”;

“Yoshlar (a’zolar) o’rtasida intellektual o’yinlar (“Zakovat”, “O’yla, izla, top”, “Imkon”, “Iqtidor” va h.k.) tashkil etish Loyihasi”;

“Yoshlar o’rtasida ularning huquqiy bilimlarini osirish maqsadida “Sen o’z huquqingni bilasanmi?”, “Inson va qonun” yoki “Siz qonunni bilasizmi?” viktorinalarni o’tkazish Loyihasi”;

“Turli xil harbiy-sport musobaqalarini tashkil etish Loyihasi”, “Yoshlardan iborat “Mehr-shavqat”, “Xizmat beminnat” kabi guruhlarini tuzish, yoshlarning muayyanguruhlarini mahallalardagi yolg’iz qariyalar, nogironlar, boquvchisini yo’qotganlar va boshqa shu toifadagi shaxslarga biriktirish va ularga turli yordamlar ko’rsatish aksiyasini uyushtirish Loyihasi”;

“Yoshlar (a’zolar) bilan birgalikda kam ta’minlangan oila farzandlari, yetim, nogiron bolalarni izlab topish, ular uchun darsliklar va kitoblar, o’quv qurollari, kiyim-kechak, sport anjomlari yig’ish va taqdim etish aksiyalarini uyushtirish Loyihasi”;

“Yoshlar (a’zolar) bilan birgalikda tozalikni va tabiatni asrash maqsadida xazon yig’ish va ko’chat ekish kabi foydali ishlarni amalga oshirish aksiyasini uyushtirish Loyihasi”;

“Yoshlar (a’zolar) bilan birgalikda Voyaga yetmaganlar nozir litirish orqali ular bilan ishlash nozir ligi (VEN) hisobida turgan o’smirlarni otaliqqa olish, ularga tajribali faollarni biriktirish orqali ular bilan ishlash noananaviy Loyihasi”.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko’rsatishicha, o’quv muassasalarida faoliyat ko’rsatayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar o’qituvchilari amaliyotida “izohli-tasvirli

yondashuv” – an’anaviy metodika hali – hanuz ustuvorlik kasb etmoqda, asosiy o’quv vaqtini egallamoqda.¹⁷⁵

«Kamolot» YoIH 2001-2015 yillar davomida amalga oshirgan ishlari hisobotiga murojaat etsak, yoshlarning din to’g’risidagi bilimlarini oshirish, dinga nisbatan to’g’ri munosabatni shakllantirish masalasida harakat, din ulamolari, dinshunos olimlarni taklif etgan holda Respublika hukumatining 2003 yil 22 avgustdagi 364-sonli “Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko’mak va imtiyozlar berish to’g’risida¹⁷⁶”gi Qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan 450 dan ortiq uchrashuvlar, davra suhbatlari, amaliy muloqotlar o’tkazilgan. “XXI asr yoshlari va asl musulmonning zamonaviy qiyofasi” dasturi doirasida islom dinining tub mohiyati, uning ma’naviy hayotimizda tutgan o’rnini tushuntirish, buyuk ajdodlarimizning bu borada qoldirgan ulkan merosini yoshlar o’rtasida targ’ib qilish maqsadida Toshkent Islom Universitetining 150ga yaqin talabalari har yili harakat tizimlariga o’quv amaliyotini o’tash uchun jalb etilib, ular tomonidan joylarda “Din va uning tarixi”, “Dinning jamiyatdagi o’rni”, “Din va qonunchilik”, “Din va yoshlar” mavzularida bahs-munozaralar, ochiq muloqotlar va davra suhbatlari tashkil etilgan.¹⁷⁷

Vatanparvar yoshlarni shakllantirish g’oyasini yoshlar orasida targ’ibot-tashviqot qilish maqsadida Harakatning barcha viloyat, tuman (shahar) bo’limlari Kengashlari raislari harbiy chaqiruv komissiyalari tarkibiga kiritilgan bo’lib, yiliga ikki marta komissiyalar ishida bevosita ishtirok etmoqdalar, chaqiriluvchilarning turli muammolarini yechishda yaqindan yordam bermoqdalar. Harbiy xizmatga kuzatish ishlarini chaqiriluvchilar uchun bir umrga esda qolarli bo’lishi uchun tantanali tashkil etishga harakat qilmoqdalar.

¹⁷⁵ Milliy g’oya: targ’ibot texnologiyalari va atamalar lug’ati. T.: “Akademiya” nashriyoti. 2007. 3-bet.

¹⁷⁶ 2003 yil 22 avgustdagi 364-sonli “Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko’mak va imtiyozlar berish to’g’risida”gi Qarori

¹⁷⁷ O’zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati. Harakatning 2001-2006 yillar davomida amalga oshirilgan ishlar to’g’risidagi hisoboti. T.: 2006 yil.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda O'zbekistonda Kamoot YoIH omma ongiga barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasini singdirishning samarali yo'llaridan biri "tarix" fanini o'qitish ekanligi hammaga ma'lum bo'ldi. Ammo, ushbu fan o'quv muassasida ro'y berishi tabiiy ya'ni fan o'quvchi-talabalarga 40 soat davomida o'rgatib boriladi. Ammo buning boshqa o'ylantiradigan nozik tomonlari mavjud. Ular:

Birinchidan, yoshlarimizning talaba-o'quvchi bo'lmagan boshqa qatlami nazardan chetda qolmoqda. Harakatning ahamiyatli jihatida Boshlang'ich tashkilotlar nafaqaat o'quv muassasasida balki, ishlab chiqarish korxonalarida va harbiy qismlarda ham faoliyat ko'rsatmoqda hamda o'z faoliyati davomida o'quvchi-talaba bo'lmagan boshqa qatlamlarga milliy g'oyani singdirmoqda;

Ikkinchidan, fanni o'qitishda o'quv muassasasida odatdagi 40 soat dars milliy g'oyaning tub mohiyatini to'liq tushuntirib yetish uchun o'quvchi yoshga kamlik qiladi. Shu sababli, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta'lim muassasalarida ham Vatan tarixini o'rganish, yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirishning asosiy vositalaridan biridir. Qolaversa "Kamolot" YoIHning tadbirlari orqali milliy g'oyaning maqsad-vazifalarini yoshlarga doimiy yetkazib borishi ham maqsadga muvofiqdir;

Uchinchidan, Kamolotning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini ro'yobga chiqarishda yoshlarimizni odatda faqatgina nazariy bilimlarini oshirmoqda, berilayotgan bilim yoshlarni ongiga singdirilmoqda, ammo milliy g'oyani harakat faoliyati yordamida hayotga joriy etish uchun uning bosh tamoyillarini yoshlarning nafaqaat ongiga singdirish balki, uni yoshlar qalbiga singdirish kerak;

To'rtinchidan, o'qituvchi bergan bilimlarini, o'quvchilarning faqatgina so'zida emas, balki, amalda ko'rishi yoki ushbu bilimlarning hayotga, jamoaga, o'zining o'quv muassasasiga qo'llanilishini ham nazorat qilishi kerak. O'quvchi shundagina ushbu holatda, ushbu bilimlarni "Kamolot" YoIHga a'zo bo'lgan holda, o'z tengdoshlari bilan hamjihatlikda amalga oshirishga harakat qiladi.

Harakat a'zolari qanchalik hamjihat bo'lsalar, ularga milliy g'oya bosh tamoyillari, maqsad va vazifalarini singdirish shuncha oson kechadi.

Beshinchidan, albatta "Kamolot" yoshlarning barcha muammolarini hal etishga qodir emas, bu uning asosiy vazifasi ham emas. "Kamolot" YoIHning asosiy vazifasi yoshlarga o'z muammolarini tengdoshlari bilan hamjihatlikda yechish uchun qonuniy, to'g'ri va oson yo'lni topishida yodam ko'rsatishdn iboratdir. "Kamolot" yoshlarning o'z manfaatlarini jamoa bo'lib himoya qiladigan tashkilotidir. Har qanday jamoa o'z – o'zidan unga yuklatilgan vazifalarni uddalab ketavermaydi, uni boshqarish zarur. Boshqarish uchun Harakatning hamda ta'lim tizimidagi o'ziga xos mexanizmlardan foydalanish lozim.

Oltinchidan, Harakatning ahamiyatli jihati u jamiyatimiz yoshlari o'rtasida hamjihatlikni saqlaydi. Hamjihatlik esa davlatimiz va jamiyatimiz tinchligi, osoyishtaligi, farovonligi garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Prezident asarlari

- 1.1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.-T.: O'zbekiston, 1996 yil.
- 1.2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild.-T.: O'zbekiston, 1996 yil.
- 1.3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild.-T.: O'zbekiston, 1996 yil.
- 1.4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild.-T.: O'zbekiston, 1996 yil.
- 1.5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild.-T.: O'zbekiston, 1997 yil.
- 1.6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yolida. 6-jild.-T.: O'zbekiston, 1998 yil.
- 1.7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild.-T.: O'zbekiston, 1998 yil.
- 1.8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild.-T.: O'zbekiston, 2000 yil.
- 1.9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild.-T.: O'zbekiston, 2001 yil.
- 1.10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild.-T.: O'zbekiston, 2002 yil.
- 1.11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild.-T.: O'zbekiston, 2003 yil.
- 1.12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o'z kuch – qudratimiz, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild.-T.: O'zbekiston, 2004 yil.
- 1.13. Karimov I.A. Sog'lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. –T.: "O'zbekiston", 2000 yil.
- 1.14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008 yil.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari

2.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston.2003 yil.

2.2.“O'zbekistonRespublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi Qonun. 1991 yil.

2.3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida” gi qarori. // “Xalq so'zi”, 2006 yil 26 avgust.

2.4.“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri)-T.: Adolat. 1998 yil.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida” gi qarori. // “Xalq so'zi”, 2006 yil 10 oktabr.

Foydalanilgan maxsus adabiyotlar

3.1.O'zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining (yangi tahrirdagi) Nizomi.-T.:2006 yil 29 noyabr.

3.2.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.:O'zbekiston. 2001yil.

3.3.Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tavsifi. Abdulaziz Mansur. T.: Toshkent Islom Universiteti nashriyoti. 2004 yil.

3.4.Bozorov A., Usmanov H.,Yoshlar yetakchilari uchun qo'llanma (1-kitob qo'yi bo'g'in yetakchilari uchun) –T.: “Alisher Navoiy”, 2006 yil. 96-bet.

3.5.Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. T.: “Akademiya”nashriyoti. 2007 yil.

3.6.Abilov. O'. “Milliy g'oya, ma'naviy omillar”.-T.: Ma'naviyat. 1999 yil.

3.7.Alimova D. “Insoniyat tarixi – g'oyalar tarixidir”.-T.: Yangi asr avlodi. 2001 yil.

3.8.Buyuk siymolar, allomalar.T.: Ma'naviyat. 1995 yil.

3.9. “Bag'rikenglik – jamiyat barqarorligining asosi” (ilmiy-amaliy anjuman).- T,: 2003 yil.

- 3.10. “O’zbekistonda millatlararo munosabatlar: tarix va hozirgi zamon” (ilmiy-anjuman).-T.: 2003 yil.
- 3.11. “Yoshlarda ijtimoiy tolerantlikni yuksaltirish masalalari” (ilmiy-nazariy konferensiya materiallari).-T.: 2006 yil. 1-2 kitob.
- 3.12.Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar).-T.: “Abdulla Qodiriy” nomidagi nashriyot. 2001 yil.
- 3.13.Islom ensiklopediyasi.-T.: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004 yil
- 3.14.Azizxo’jayev A.A. “Mustaqillik, kurashlar, iztiroblar va quvonchlar”.-T.: 2001 yil.
- 3.15.O’zbek Milliy ensiklopediyasi. 1-12 jildlar.-“O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi ” Davlat nashriyoti.-T.: 2000-2006 yillar.
- 3.16.Millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik – taraqqiyot omili. (konferensiya materiallari).-T.: 2003 yil.
- 3.17. “Islom”, -T.: 1987 yil.
- 3.18. “Mustaqillik”(izohli ilmiy – ommabop lug’at), -T. “Sharq”. 200 yil.
- 3.19. “O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”. (darslik), -T.: 2001 yil.
- 3.20.Ochildiyev A. “Milliy g’oya va millatararo munosabatlar”.-T. “O’zbekiston”. 2004 yil.
- 3.21. “Ijtimoiy fikr-Inson huquqlar”. №3. 2005 yil.
- 3.22.Husniddinov Z. “Islom: oqimlar, yo’nalishlar, mazhablar”. –T.: 2000 yil.

Tadqiqotda foydalanilgan ma’ruzalar hamda hisobotlar

- 4.1.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. (Prezident Islom Karimovning “Tafakkur” jurnali bosh muharririning savollariga bergan javoblari). -T.: O’zbekiston, 1998 yil.
- 4.2.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir.O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasi. -: O’zbekiston, 2005 yil 28 yanvar.

4.3.Karimov I.A. “Inson manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamiz”. (O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi). // “Toshkent oqshomi”, 2006 yil 8 dekabr soni.

4.4.Karimov I.A. Inson,uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng ooliy qadriyat. –T.: “O’zbekiston”, 2005 yil.

4.5.Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so’zlagan nutq. 1997 yil.

4.6.Karimov I.A. 1996 yil yakunlari hamda 1997 yildagi qilinadigan ishlarga bag’ishlangan majlisdagi “Islohotlar izchilligi – inson manfaatlari omili” nutqidan “Ma’rifat” gazetasi 1997 yil 1 mart.

4.7.O’zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashining harakatning 5 yillik faoliyati to’g’risidagi ma’ruzasidan. T.: 2006 yil.

4.8. Ta’lim – Bandlik – Kar’yera” – Yoshlar forumi. Toshkent sh. 2005 yil 25 mart.

4.9.Karimov I.A. Xushyorlikka da’vat. (Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Milliy axborot agentliga muxbirining savollariga bergan javoblari). - T.: O’zbekiston, 1999 yil.

4.10.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. (Prezident Islom Karimovning “Tafakkur” jurnali bosh muharririning savollariga bergan javoblari). -T.: O’zbekiston, 1998 yil.

4.11.O’zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashining harakatning 5 yillik faoliyati to’g’risidagi ma’ruzasidan. T.: 2006 yil.

4.12. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011hamda 2014 yildagi faoliyati to’g’risidagi hisoboti.

4.13 Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Xorazm viloyat Kengashining 2011 hamda 2014 yildagi faoliyati to’g’risidagi hisoboti.

4.14. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati UrDU Boshlang’ich tashkilotining 2010-2014 yildagi faoliyati to’g’risidagi hisoboti.

Foydalanilgan dissertatsiya va avtoreferatlar

5.1.Yusupov O.O. “Umummilliy g’oya: shakllanish omillari va muammolari”. Avtoreferat.fal.f.n.T.: 2000 yil.

5.2.Yunusov A.M. “Демократизация общества и взаимодействие национального и общечеловеческого в развитии духовных ценности”. Афтореф. дисс. док. филос. н.-Т.:1995.”

5.3.Джумаев Р.З. “Проблемы формирование и укрепления политической системы Республики Узбекистан”.Афтореф. дисс. док. филос.н.Т.:1996.

Elektron manbalar:

6.1.www.kamolot.uz—O’zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati sayti.

6.2.www.forum.uz— “O’zbekiston madaniyati va san’ati” jamg’armasining sayti..

6.3www.urdukamolot.uz- UrDU Kamolot boshlang’ich tashkiloti sayti

6.4.www.mtrk.uz— O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining bosh sayti.

6.5.uzbekistan.uzpak.uz. – O’zbekiston tarixining “Buyuk ipak yo’li” davridan mustaqillik yillarigacha bo’lgan davri haqidagi sayt.

6.6.zamin.freenet.uz. - O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi “Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi”ning sayti. Saytda davlatimizning mustaqillik yillari tarixi haqidagi ma’lumotlar mavjud.

6.7.www.uzbekistan.uz – O’zbekiston buyuk kelajak sari.

6.8.www.mfa.uz -O’zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligining maxsus sayti. Saytda davlatimizning xalqaro aloqalari to’g’risidagi ma’lumotlar jamlangan.

6.9.www.press-service.uz.-Prezidentimizning asarlari va mehnatlari jamlangan sayt.

6.10.www.gov.uz - портал правительства Республики Узбекистан.

6.11.www.natlib.uz /turk/ - Туркестанский сборник.

6.12.history.uzsci.net - Tarix institutining “O’zbekiston tarixi” nomli jurnali.

6.13.ula.uzsci.net – Журнал: Наука и образование Узбекистана.

6.14.www.xonatlas.uz – O’zbekiston madaniyati to’g’risidagi sayt.